

74.267.5
A-59

BAXTIYOR AMONTURDIEV

FUTBOL O'YINI



74.264.5
A-59

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

AMONTURDIEV BAXTIYOR KURBANOVICH

FUTBOL O'YINI

(5112000-jismoniy madaniyat)

“Surxon-nashr”—2021

UO'K: 796.332(075.8)

KBK: 74.267.5

A59

Amonturdiyev Baxtiyor. Futbol o'yini (o'quv qo'llanma). –Termiz: “Surxon-nashr”, 2021. – 220 b.

O'quv qo'llanmada sport sohasida davlatimizning e'tibori, Surxon vohasida ilk sport turlari va futbolning rivojlanish jarayonlari bayon etilgan. Shuningdek, jahon futboliga oid tarixiy manbalar hamda sportning boshqa turlari haqida ma'lumotlar bayon qilingan. Ushbu o'quv qo'llanma jismoniy madaniyat fakulteti professor-o'qituvchilari, talabalari, boshqa soha ilmiy tadqiqotchilari uchun muhim manba hisoblanib, talabalarning futbolni o'rgatish nazariyasi va futbolning texnika va taktika nazariyasini o'zlashtirish, mustaqil ishlash uchun zarur bo'lgan bilimlar va kasbiy-pedagogik ko'nikmalarini egallashi nazarda tutildi hamda ommaviy kitobxonlarga mo'ljallangan.

В учебном пособии изложено об особом внимании нашего государства спортивной сфере, о процессе развития футбола и новых видов спорта в Сурханской долине. А также, изложена информация об исторических источниках о футболе и других видах спорта.

Данное учебное пособие является важным источником для профессорско-преподавательского состава и студентов факультета Физической культуры, более того для изучения теории футбола, теории техники и тактика футбола, предусмотрены необходимые знания для профессиональных и педагогических новыков и самостоятельной работы, предназначено для массовых читателей.

The manual outlines the special attention of our state to the sports sector, the development process of football and new sports in the Surkhan Valley. Also, information is provided about the historigal sources about football and other sports. This manual is an important source for the students of the Physical Culture Faculty, morcover, to study the theory of football, the thery of tehnology and tactics of football, the necessary knowledge for professional and pedagogical skills and self-training is provided, intended for general readers.

Muallif:

Amonturdiyev Baxtiyor Kurbanovich – Termiz davlat universiteti jismoniy tarbiya va sport o'yinlari kafedrası mudiri.

Mas'ul muharrir: f.f.d., professor P.U. Bakirov

Taqrizchilar: professor J.Toshpo'latov

p.f.n. dots, Y.Ch.Danieva

p.f.n. Sh.Suhonov

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 07 dekabrda 648-sonli buyrug'iga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi.

ISBN-978-9943-6626-2-9

© Amonturdiyev Baxtiyor

© “Surxon-nashr”, 2021

KIRISH

1.1. O'zbek sportining milliy g'ururi va iftixorining ma'naviy poydevorlari.

Jahon xalqlarini o'zaro hurmat va ahillikka chorlovchi futbol sporti O'zbekistonda ham katta rivoj topib, yuksalib borayotgan sohaga aylanib bormoqda. O'zbekiston futbolchilari o'zlarining chinakam sabot va madonati bilan mamlakatimizning nufuzini oshirishiga, xalqimizning sport sohasidagi orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishda alohida xizmat qilib kelmoqdalar. Vatanimizning mustaqillik yillarida o'zbek futbolchilari jahon arenalarida O'zbekiston bayrog'ini yuksaklikga ko'tarib shon-shuhratlarga erishmoqdalar. Har bir o'zbekistonlik sportchining yutug'i tufayli O'zbekiston bayrog'i va madhiyasi jahonni zabt etmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning bevosita tashabbusi va rahbarligida yoshlarni futbol sportiga bo'lgan jismoniy kamolotini yanada oshirish hamda jahon futbol arenalarida chinakam mardlik, jasurlik ko'rsatib, jismoniy baquvvatlikga erishishlari uchun hamma shart-sharoitlar yaratilib berilmoqda. O'zbekiston futbol sporti o'zining halolligi, qadriyatlarga boyligi, kamtarligi, mard jasurligi, raqibga nisbatan vijdonan munosabatda bo'lishi, uning hurmatini joyiga qo'yishi bilan alohida ajralib turadi. O'zbekistonda jismoniy baquvvatlikni o'zida ifoda etgan futbol sportiga bo'lgan munosabat qadimdan ma'lum va mashhur bo'lib, Surxon vohasidagi Zarautsoy manbalarida aks etgan ov manzarasida ham aks etgan. Sport bilan bog'liq ma'naviy qadriyatlarga e'tibor berilsa, Surxon vohasida boy qadriyatlar va an'analar nihoyatda sirqirra va xalq og'zaki ijodida alohida ahamiyatga ega bo'lgan afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, topishmoqlar va latifalar asrlar davomida boyib, xalqning ma'naviy boyligi hisoblanib kelmoqda. Jismoniy kamolatga chorlovchi milliy o'zbek sportni o'zida mu'jassam etgan xalq og'zaki ijodiyotining noyob ma'naviy boyligi hisoblangan «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Xasanxon», «Nurali», «Sherali» singari dostonlar, milliy qo'shiq, laparlar hamda xalq og'zaki ijodiyoti dunyo sport sohasi madaniyatida o'z hurmatini topdi. O'zbek yoshlarni milliy g'ururi hisoblangan, jasurlik, mardlikga chorlovchi, sportga bo'lgan muhabbatini o'zida mu'jassam etgan "Alpomish" dostoni haqida 1952 yil 28-31 martida O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasining Hamid Olimjon nomidagi Adabiyotchilar uyida alohida muhokama bo'ldi. Biroq sovet mafkurasi asosida bo'lib o'tgan ushbu muhokamada dostonning mazmuni va mohiyati kamsitilib, go'yoki dostonda xonlar va beklar sha'niga hamdu-sanolar o'qilib, bosqinchilik va zo'ravonlik targ'ib, qilingan hamda diniy oxanglar, iloxiy kuchga ishonish, iloxiyatning mavjudligi kabi g'oyalar targ'ib qilinib, dostonda diniy g'oyalar kengroq tahlil etilgan deb uning milliy ma'naviy sportni ilhomlantirishga oid g'oyasi kamsitildi. Yig'ilishda xalqimizni jismonan baquvvat, sog'lom, mard, jasur, kuchli, or-nomus uchun kurashuvchi, chinakam polvoni, chavondozi bo'lganligi tufayli ma'naviy qaxramoniga aylangan Alpomish qiyofasi soxta talqin etilib, uning mardligi, jasurligi, vatanparvarligi, insonparvarligi maxsus buzib talqin etildi.

Masalan, sovet mafkurasi talqinidan o'tgan dostonni o'qigan mashhur xalq kuychisi O'tar shoir Safarov aytgan «Oypari» dostoni qayta ishlanib, nashr ettirilgandan so'ng, o'g'li Qorabaxshiga kitobni o'qitib o'ksigan, bu men aytgan doston emas, deb yig'lagan ekan. Mustaqillik ana shunday istiroblar, qon yutishlar iskanjasida qolgan

xalqimiz qalbiga nur, umidlarga qanoat, dardlariga malham bo'lib dostonlar milliy sportimizning mazmun va mohiyatini o'zida mu'jassam etgan. «Alpomish» dostoni qadimiy ajdodlarmizning ijodiy daxosining bebaxo badiiy yodgorligi sifati jismonan sportni rivojlanishi hamda keng rivoj topishi uchun alohida o'rin tutganoigi tahlil etiladi. Ayniqsa, davlatimizning mustaqilligi qo'lga kiritilgandan so'ng mustaqil rivojlanish davrida millat birligi ma'naviy uyg'onish, milliy g'urur va o'z-o'zini anglash ramziga aylanganligi natijasida milliy sportni yuksalishi uchun ma'naviy dastur ekanligi alohida e'tirof etilmoqda.

O'zbekistonda sportni rivojlantirish ishlariga jiddiy e'tibor berilib, yosh avlodni tarbiyalashda sportning xizmatlari beqiyosdir. 2017 yil 31 oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miziyoiev raisligida jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqarish tizimini takomillashtirish, ommaviy sportni rivojlantirish iqtidorli sportchilarni tanlash va tarbiyalash, sohani malakali kadrlar bilan mustahkamlash hamda zamonaviy sport inshootlarini barpo etish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

Unda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Chunki sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishi natijasida turli kasalliklar, yoshlar o'rtasida zararli odatlarning oldini oladi. Sport yuksak madaniyat, vatandarparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha yurtdoshlarga g'urur-iftixor bag'ishlaydi.

O'quv qo'llanmada mustaqillik yillarida bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilganligi alohida qayd etilib, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. "Shahar va qishloqlarda zamonaviy sport komplekslari bunyod etildi. "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va Universiada musobaqalari yoshlarni ommaviy sportga, sog'lom turmush tarziga oshno qilish vositasiga aylandi.

Iste'dodli bolalarni tanlash va professional sportchilarni tayyorlash bo'yicha uzluksiz tizim yaratildi. Umumta'lim maktablari va bolalar sport majmualaridagi mashg'ulotlarda qobiliyati ko'zga tashlangan o'qil-qizlar bolalar va o'smirlar sport maktablari, sport kollejlari olinib profesional yondashuvlar asosida tarbiyalanmoqda. Oliy o'quv yurtlari va o'quv-yig'in mashg'ulotlarida mahoratini oshirilishi tufayli mamlakatimiz sportchilari jahonning nufuzli musobaqalarida yuksak g'alabalarni qo'lga kiritib, xalqimiz salohiyatini butun dunyoga namoyon qilmoqda. Xususan, sportchilarimiz 2016 yili Braziliyada o'tgan Olimpiya o'yinlarida 13 ta, Paralimpiya o'yinlarida 31 ta medalga sazovor bo'lib, yurtimiz sporti tarixidagi eng yuqori natijalarga erishdi.

O'quv qo'llanmada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 15 fevraldagi "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni mamlakatimiz sporti rivojida yangi davrni boshlab berganligi bayon etilib, farmonga binoan O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil qilindi. Aholi keng qatlamini sport bilan

shug'ullanishga jalb etish, jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash, sport industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish, shahar va tumanlarda ommaviy sport tadbirlari va musobaqalar o'tkazish, Milliy olimpiya qo'mitasi, sport turlari bo'yicha federatsiyalar va assotsiatsiyalar bilan birgalikda iste'dodli sportchilarni tanlash, tayyorlash va mahoratini oshirish, kadrlar tayyorlash, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro aloqalarni kengaytirish uning asosiy vazifalari etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tuzilmasidagi O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi ijro apparati, 300 ga yaqin sport ta'lim muassasasi Davlat qo'mitasi tasarrufiga o'tkazildi Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish ishlarining samaradorligini oshirish borasida jamoatchilik fikrini o'rganish, tahlil qilish, sohadagi ishlarni takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqish maqsadida Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish kengashi tashkil etildi.

Hududiy boshqaruv organlari tarkibida 201 ta tuman (shahar)da jismoniy tarbiya va sport bo'yicha vakillar faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu joylarda sohaga oid davlat siyosati, farmon va qarorlar ijrosini to'la ta'minlash, sportni quyi pog'onalardan rivojlantirishda muhim o'rin tutmokda.

Bundan tashqari, 2017 yilda sohaga oid yana 20 dan ortik, hujjat – Prezidentimizning farmoyish va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilindi. Bu ham davlatimizning jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga e'tiboridan dalolat beradi.

Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilgan islohotlar natijasida sohada sifat o'zgarishlari sezildi. 2017 yilning o'tgan davrida mahalliy va xalqaro sport musobaqalarida sportchilarimiz tomonidan 483 ta oltin, 394 ta kumush, 536 ta bronza, jami 1 ming 413 ta medal qo'lga kiritildi.

Mamlakatimizda xalqaro miqyosdagi musobaqalar muvaffaqiyatli o'tkazildi. 2017-yil may oyida Toshkentda o'tgan boks bo'yicha Osiyo chempionatida sportchilarimiz o'n vazn toifasidan to'qqiztasida oltin medalga sazovor bo'ldi.

O'zbekistonda sport sohasi uchun malakali kadrlar va murabbiylar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilishi natijastda, davlatimiz rahbari tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar yuzasidan muayyan ishlar bajarildi.

Bu borada asosiy bilim maskani bo'lgan O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti Chirchiq shahriga ko'chirildi. Natijada institut malakali sportchi va murabbiylarni o'qitish hamda tayyorlash uchun zarur infratuzilmaga ega bo'ldi, zamonaviy sport shaharchasi barpo etish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, institutda 2017-2018 o'quv yilidan boshlab sirtqi ta'lim olish yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti huzurida Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi tashkil etildi. Markazda hozirgi kunga qadar 800 dan ortiq xodim malaka oshirdi.

2017 yil institut faoliyatini yanada takomillashtirish, o'quv jarayoniga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, ilmiy izlanishlar uchun maxsus laboratoriyalar tashkil etildi. Jismoniy tarbiya institutini zamonaviy sport ta'lim muassasasiga aylantirish, o'quv dasturlarini zamonaviy ilm-fan yutuqlari asosida

tashkil etish bo'yicha 2018-2020 yillarga mo'ljallangan dastur ishlab chiqilib, dastlabki natijalarga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori sohadagi yana bir muhim hujjat bo'ldi. Ushbu qaror bilan Uzbekistan Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Dasturda 2017-2021 yillarda jismoniy garbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish uchun 995,2 milliard so'mdan ziyod mablag' sarflanishi, sport maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida 167 ta sport inshooti, jumladan, 90 ta sport majmuasi va 77 ta suzish havzasini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, jihozlash va qayta jihozlash nazarda tutilgan.

Dastur doirasida 2017 yilda 153 ta bolalar maydonchasi ta'mirlanib, 232 ta zamonaviy maydoncha, Nukus shahrida sportning olimpiya va milliy turlariga ixtisoslashtirilgan sport majmuasi foydalanishga topshirildi.

O'zbekistonda sport sohasida yo'l qo'yilgan kamchiliklar mavjud bo'lib, xususan, bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 39 ta sport inshootini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari bajarilmadi. Suzish havzalarini zamonaviy anjomlar bilan jihozlash kechiktirilganligi tufayli, ishlar samarali bo'lmadi.

Sport maktablari, respublika oliy sport mahorati maktablari hamda sport federatsiyalarining iqtidorli yoshlarni kashf etish borasidagi hamkorligi, seleksiya ishlari talab darajasida yo'lga qo'yilmaganligi natijasida jismonan yutuqlar ko'proq samarali bo'lmadi.

Mamlakatimiz sportchilarini nufuzli xalqaro musobaqalar, jumladan, Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari muhokama qilindi. Davlatimiz rahbarining 2017 yil 9 martdagi O'zbekiston sportchilarini 2020 yil Tokio shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o'yinlariga tayyorlashga oid qarori ijrosi doirasida O'zbekistan Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi, Milliy olimpiya ko'mitasi hamda sport tashkilotlari hamkorligida iqtidorli sportchilarni saralash va terma jamoalarni shakllantirish, sportchilarning mahalliy va xorijiy o'quv-mashg'ulot yig'inlarini tashkil etish, ularning nufuzli musobaqalardagi munosib ishtirokini ta'minlash borasida qator ishlar amalga oshirildi.

Prezidentimizning 2017 yil 10 avgustdagi "Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O'zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag'batlantirish to'g'risida"gi qarorida sportimiz yulduzlari va ularni kamolga yetkazgan murabbiylarning mashaqqatli mehnatlarini munosib takdirlandi, ularning tajribasi va salohiyatidan samarali foydalanilib, oliy va maxsus ma'lumot olishlari hamda salomatliklarini tiklashlari xususida g'amxo'rlik qilish uchun yetarli moddiy-ma'naviy salohiyat yaratildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning bevosita tashabbusi hamda rahbarligida O'zbekistonda sportchi va murabbiylarni moddiy rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirilib, ularning nufuzli xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etadigan sportchilar zahirasi yaratilmoqda¹.

Yosh futbolchilarning kuch-g'ayratga to'lishi, komil, kamolatga yetishi, chinakam jahon futbol arenalarida munosib raqiblar bilan tenglashadigan hamda g'alabalarni qulga kiritishida milliy ajdodlarimiz yaratgan va asrlarosha milliy or-nomusni himoya qilib kelayotgan qadriyatlarimizning o'rni alohida ahamiyatga egadir. Futbolchilarmizga ma'naviy ibrat bo'ladigan, mardlik, jasurlik timsoli bilan Surxon vohasi ahli faxrlanadi.

Ushbu o'quv qo'llanmada O'zbekiston sportning shakllanishi va rivoj topish bosqichlari va uning barkamol avlodni tarbiyalashdagi xizmatlari alohida ta'kidlab o'tilib, O'zbekistonda futbolning tashkil topishi va takomillashib borish tarixi haqida tarixiy ma'lumotlar taqdim qilingan. Eng muhimi, muallif, Surxon vohasida futbolni tashkil topishi, dastlabki natijalar, futbol sohasining rivoj topishiga munosib hissa qo'shgan futbolchilar to'g'risidagi tarixiy ma'lumotlarni taqdim etgan va kitobning qimmatini oshishiga alohida hissa qo'shgan.

Kitob oliy va o'rta maxsus ta'limi, sport maktablari professor-o'qituvchilari va talabalariga o'quv qo'llanma sifatida hamda sportga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

I-BOB. FUTBOL O'YINING TARIXI

1.1. Millionlar uyini futbolning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi.

Futbol eng qadimiy o'yinlardan biri bo'lib, inglizlarning e'tirof etishlaricha, oyoq bilan to'p o'ynash Britan orollarida IX asrdayoq juda mashhur bo'lganligi bayon qilingan. 1863 yil 26 oktyabrda Londonda Angliya futbol uyushmasining tashkil etilishi paytida bu o'yinning 13 moddadan iborat bo'lgan ilk rasmiy qoidalari tasdiqlangan. Keyinchalik bu qoidalar boshqa barcha milliy uyushmalar uchun futbol o'yinining asosi bo'lib qoldi.

Futbol o'yinining ilk qoidalarida belgilanishicha, maydon uzunligi 200 yard (183 metr)dan, kengligi 100 yard (91 metr)dan oshiq bo'lmasligi kerak. Darvozalar ikki ustundan iborat bo'lib, ular orasida to'sin bo'lmagan va ustunlar orasidagi masofa 8 yard (7,32 m) bo'lgan. 1866 yilda balandlikni cheklash uchun ustunlar orasiga arqon tortib qo'yilgan. Yana 10 yil o'tib, bu arqonni yog'och to'singa almashtirishgan.

Darvozonning qo'l bilan o'ynashga haqqi yo'q edi. 1871 yilda o'ng qo'l bilan o'ynashga ruxsat berilgan, u ham bo'lsa faqat darvoza maydoni ichida. Darvozonning jarima maydoni ichida ham qo'l bilan o'ynash huquqiga ega bo'lishi uchun 30 yildan ko'proq vaqt kerak bo'ldi (1902 yil). Uzoq vaqt mobaynida na jarima to'pi, na 11 metrlik zarba bo'lgan. Qoidabuzarlik uchun erkin zarbalar bilan chegaralanib qolinaverardi. Nihoyat, 1891 yil eng qat'iy jazolardan biri – 11 metrlik zarba kiritildi, uni inglizcha so'z bilan «penalti» deb atadilar.

Futbol shakllanayotgan davrlarda jamoa sardorlari o'yin qoidalariga rioya qilinishini kuzatib turardilar. Futbol maydonida hakam 1880 yilda paydo bo'ldi, 1 yildan so'ng esa hakam ikkita yordamchisi bilan maydonga chiqa boshladi. 1878 yilda xushtak muomalaga kiritildi, bunga qadar hakam to'xtatish yoki o'yinni qayta boshlash uchun ovozdan yoki qo'l harakatlaridan foydalanilar edi. O'sha yillarda barcha milliy futbol uyushmalari uchun qoidalar bir xil yoki majburiy bo'lmagan. Har bir uyushma o'z xohishiga ko'ra bu qoidalariga turli o'zgartirishlar kiritishi mumkin edi. Bu vaziyat xalqaro uchrashuvlar o'tkazish yoki xalqaro musobaqalar tashkil etishda qiyinchiliklar tug'dirardi. 1882 yili to'p mustaqil futbol ittifoqlari, ya'ni Angliya, Shotlandiya, Uels va Irlandiya ittifoqlarining birlashuvi bo'lib o'tdi. Bunda yagona qoidalar qabul qilindi va futbol qoidalarida u yoki bu o'zgarishlarni amalga oshirish xuquqiga ega bo'lgan xalqaro Kengash tasdiqlandi.

1871 yilda Angliyada mamlakat Kubogining yo'nalishi tasdiqlandi. Bu kubok uchun hozirda ingliz futbol klublari kurash olib boradilar xalqaro miqyosdagi ilk futbol uchrashuvi Angliya va Shotlandiya jamoalari o'rtasida 1873 yilda bo'lib o'tdi. O'yinchilar soni 11 kishidan ortiq bo'lsa, ularning jamoadagi joylashishi hozirgidan boshqacharoq bo'lgan. Angliya jamoasida 7 ta o'yinchi hujumda, 1 tasi yarim himoyada bo'lgan, shuningdek, 2 ta himoyachi va 1 ta darvozon bo'lgan. Shotlandiya jamoasi tarkibida esa 6 ta hujumchi, 2 ta yarim himoyachi bo'lgan edi.

XIX asrning 80-yillarida futbol o'yini Yevropa qit'asidagi mamlakatlarga yoyila boshladi. 1875 yilda futbol Gollandiyaga, keyinroq esa Daniyaga kirib keldi. 1882 yildan boshlab Shveysariyada, 1890 yildan Chexiyada, 1897 yildan esa Rossiyada futbol o'ynay boshladilar.

1882 yilda xalqaro uyushmalar boshqarmasiga asos solindi. Nihoyat, 1904 yil 21 mayda Fransiya tashabbusiga ko'ra hozirda 200 dan ortiq davlatlar a'zo bo'lgan Xalqaro Futbol Uyushmasi – FIFA tashkil etildi. FIFA bilan bir qatorda 1954 yildan boshlab Yevropa Futbol ittifoqi – UEFA ham faoliyat ko'rsata boshladi.

1930 yildan boshlab har 4 yilda futbol bo'yicha jahon chempionati, 1958 yildan boshlab esa milliy terma jamoalar qatnashadigan Yevropa chempionatlari o'tkazilib kelmoqda. 1900 yilda futbol olimpiya sport turiga aylandi, ammo rasmiy jihatdan u Olimpiya o'yinlari dasturiga 1908 yilda kiritilgan. Osiyo Futbol konfederatsiyasi (OFK) 1954 yili tuzilgan bo'lib, hozirgi vaqtda 40 dan ortiq mamlakatlarni birlashtiradi.

O'zbekiston futbol federatsiyasi 1994 yildan FIFA va OFK ga a'zo bo'lgan, hozirda FIFA va OFK tomonidan o'tkaziladigan barcha rasmiy musobaqalarda qatnashib kelmoqda.

1.2. Sobiq Ittifoq futbolining jahon arenalaridagi ishtiroki.

Sovet davlati yillarida jismoniy tarbiya va sport ishlari yoshlarni Vatan mudofaasiga tayyorgarlik omil sifatida yo'naltirilib, yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport bilan muntazam shug'ullanish, mehnatga va mudofaaga tayyor turish kabi ustav talablarni bajarish yuzasidan komsomol tashkilotlarining shaxsiy mas'uliyatlari oshirildi. Yoshlarni sog'lomligi, jismoniy kamoloti, ularning yuqori samarali mehnatga va Vatan mudofaasiga tayyorligi o'quv yurtlari va fizkultura jamoalarining ommaviy-sport hamda sog'lomlashtirish ishlari samaradorligining bosh, muhim ko'rsatgichi hisoblandi. 1985 yili viloyat fizkultura tashkilotlari 16 nafar sport ustasi, shuningdek, 821 nafar sport ustaligiga nomzod va birinchi razryadli sportchi, o'n minglab ommaviy razryadli sportchi va GTO nishondorlari tayyorlandi.

Ushbu kitobda gap, asosan, O'zbekistonning futbol taraqqiyoti haqida gap boradi. Ammo futbol haqida gap boshlashdan oldin ozroq uning tarixiga to'xtalishga to'g'ri keladi. Chunki futbol O'zbekistonda Sovet hukumati o'rnatilgandan keyin paydo bo'lgan.

Futbolning vatani Angiliya hisoblanadi deyishadi. To'g'ri, lekin bu munozarali gapdir. Masalan, qadimgi yunonlarda shunga o'xshash o'yinning kamida to'rtta turi bo'lgan. Ularning ba'zilari laxtakdan tikilgan va jun solib to'ldirilgan koptok bo'lib, uni "pilla" deyishgan. Ba'zilari puflab shishipilgan – "follic" deyilgan, uchinchi turi pat yoki qum bilan to'lg'azilib, "paganika", "garpaston" deyilgan. O'sha paytda ham hozirgiday ikki taraf bo'lib o'ynalgan va to'pni raqib tarafiga o'tkazish kerak bo'lgan.

Eramizdan oldingi 265 yili Yaponiyada ham futbolga o'xshash o'yin bo'lgan. To'pni oyoq bilan surishgan, lekin shu boraborda uni yerga tushirmay, havoda darvozagacha olib borish shart bo'lgan.

Xitoyda ham o'sha davrlarda futbolga o'xshash o'yinlar o'ynalgan. Donishmand Senekaning yozishicha, Qadimgi Rimda "yosh kishilar jazirama oftobda to'p bilan oyoqda nihoyatda ajoyib harakatlar qilishgan". Aynan Rim legionerlari Shimoliy Yevropa, jumladan, Britaniya orollariga ham bu o'yin urug'larini olib kelishgan deb taxmin qilinadi.

Irlandiyada bundan ming yil burun gel futboli o'ynala boshlangan. Bu o'yin o'ziga xos bo'lib, maydon uchdan 16 kilometrgacha, o'yinchilar soni 30 va undan ko'p

bo'lishi mumkin edi. Irlandlar ham hozir bu o'yinni o'ynashadi, lekin hozir maydon 154x21 metrga, o'yinchilar soni 15 nafarga qisqargan.

Italiyada futbolga o'xshash o'yin 1400 yilda o'ynalganligidan guvohlik beruvchi ma'lumotlar saqlanib qolgan. Qadimgi Rusda, masalan, Tver va Novgorod guberniyalari qishloqlarida o'tmish davrlardan buyon "shalga" o'yini uynalib kelingan. Uyinchilar lattta yoki jun bilan to'lg'azilgan to'pni "shahar", deb nomlashgan darvozaga kiritish uchun harakat qilishgan.

Ammo Angliyaning o'zi ham futbol o'tmishdoshlari borligidan guvohlik beruvchi qatop ma'lumotlarga ega 1313 yili Eduard IIning buyurigi'da shunday deyilgan: "Shaharlarda katta to'p bilan bo'ladigan ur-surlar katta shovqinlar tartib-intizomga zarar yetkazuvchi kuchga ega, shunday qilib qirol nomi bilan bundan keyin shaharlarda to'p o'ynash qamoqqa olish tahdidi bilan taqiqlangan."! Bularning hammasi faqat "bizning eramizda bo'lmagan futbol to'g'risidagi munozaralardir. Hozirgi futbol esa haqiqatdan ham 1863 yil 26 oktyabrda Angliyada tug'ilgan. O'sha kuni Londonda Greyn-Kuin-stritdagi kichik maydonda dastlabki futbol qonuni haqida gap bordi. Unda o'sha paytda keng tarqalgan tuxumsimon to'p bilan oyoqda bo'lgani kabi, qo'l bilan ham uynash imkoni bo'lgan regbidan farqli ravishda faqat oyoq bilan o'ynash talab qilingan.

Qariyb bir yarim oydan keyin birinchi qoidalar o'rnatildi. Maydon yana 183x91 metrdan katta bo'lib, har bir goldan keyin raqiblar darvozani almashtirishar edi. U paytlar darvozalar to'sinsiz edi. Faqat yetti metr va undan uzoqroq masofada ikkita xoda o'rnatilgan bo'lgan. Agar o'yinchi uchib kelayotgan to'pni ushlasa uni jazolashmagan. U to'pni ushlagan joyida yerga quyib uni erkin zarba berishi mumkin bo'lgan. Qarang-ki, darvozobonga esa faqat 1871 yildan keyingina qul bilan o'ynashga ruxsat etildi. Shu davr ichida "Qurolsiz" golkipir yonidan darvozagacha qancha tup uchib kirganini tasavvur qilish mumkin, albatta.

1866 yildan boshlab darvoza tepasiga ip tortilib qo'yilar, 1875 yildan esa 2, 44 balandlikda darvoza ustinar tepasiga xoda o'rnatildi. Nima uchun, masalan, 2,5 metr emas, aynan 2,44 metr balandlik bilasizmi.? va Nima uchun darvoza eni 7,5 metr emas, balki 7,32 metr bo'lganini~chi? Bu g'aroyib yuzdan birliklar inglizcha "funt" o'lchovining metrga tarjimasidan kelib chiqqan. "Fut" inglizcha oyoq tovon degan ma'noni beradi. Bu so'z "bol"-to'p so'zi bilan qo'shilib, "futbol"-to'p so'zi bilan qo'shilib "futbol" birikmasini hosil qilgan. 1860 yillarda oxiridan har bir goldan keyin emas, balki o'yining yarimidan keyin uyinchilar darvozalarini almashtiradigan bo'lishi. 1880 yildan boshlab uchrashuvlarda sudyalik qat'iy yo'lga qo'yildi, dastlab bir sudya, 1891 yildan sudya, 1891 yildan boshlab esa bir sudya va kkki yordamchisi hamkorligida o'tkaziladigan bo'ldi. 1871 yili inglizlar futbol bo'yicha mamlakat kubogini o'tkazishdi. Kubok musobakalari hozir ham futbol bo'yicha eng eski o'yin sifatida butun dunyoda o'ynab kelinmoqda.

XIX asr oxiriga kelib futbolni "butun Yevropa" uynaydigan bo'ldi. 1904 yili futbolchilar xalqaro futbol federatsiyasiga uyushdilar. Bundan tashqari qit'alar bo'yicha, masalan, 1954 yildan buyon faoliyat ko'rsatayotgan yevropa (UEFA) federatsiyasi xam mavjud Rossiya o'tgan asr oxirlarida horijiy, jumladan, ingliz mutahassislarini ishga taklif etib, xorijiy, konsessiya uchun katta imkoniyatlar yaratdi.

Ayniqsa, keyingi holat, yaniy inglizlarning) kelishi rus futbolining rivojida katta rol uynaydi. Chunki aynan xuddi shu inglizlar o'z tugunlarida futbol to'pini olib kelishdi. Ma'lumki, Peterburg korhonalari - Sampskievsk va Nevsk manufakturalarida ishlovchi ingliz xizmatchilari o'z jamoalarini tuzib, ushbu fabrikalar yonidagi bo'sh maydonlarda futbol o'ynashgan.

Ba'zan tomoshabinlar ko'z oldida ham o'ynagani chiqishgan, Peterburg ommaviy kutubxonasining hodimi daslabki rus sport sharhlovchi jurnalistlaridan biri, hatto Parijda II olimpiada o'yinlarini kuzatishga musharraf bo'lgan Georgiy Dyupperon buning guvohi bo'lganligini qayt etgan.

Moskvada 1695 yili inglizlar Gepner /hozirgi V.I.Lenin nomidagi/ zavodi yaqinidagi maydonda futbol o'ynashgan. Futbol Rossiyada tez ommaviylashib ketdi. Asrimiz boshida fabrikant Morozov Londonning "Tayms" ro'znomasida futbolda shubhasiz yaxshi o'ynaydigan texnikalarni o'z tikuv fabrikasida ishlash uchun yollashi to'g'risida e'lon berganligi bundan dalolat beradi. O'n yil o'tgach esa Orexova-Zuevadan, Morozov fabrikasidan ikki ishchi – Akimov bilan Kikin Rossiya terma jamoasida o'ynay boshlaydi.

1897 yili Peterburgdagi "sport havaskorlari to'garagi"da "Sport" nomi bilan birinchi rus futbol jamoasi tashkil etildi. 1901 yili Peterburg, 1909 yili Moskva futbol ligalari, 1911 yili Butunrossiya futbol ittifoqi tuzildi. 1912 yili Stokgolmda o'tgan olimpiada o'yinlarida Rossiya terma jamoasi futbol turnirida katta shov-shuv bilan yengildi. Ularning Germaniya terma jamoasi bilan bo'lgan uchrashuvida 0:16 hisobi qayd etildi. Bu ahvolda tanilgan rus sport tashabbuskorlaridan biri doktor Anoxin juda aniq baholab, shunday degan edi. "Ular sportning obro'yini to'kkan holda qiynalmasdangina birinchi mukofotni qo'lga kiritishni istaganlari uchun aybdordirlar".

Sovet hokimiyati davrida O'zbekistonda futbol misli ko'rilmagan ijtimoiy tezkorlik tusini oldi. Endilikda futbol ma'lum darajada millionlar o'yini nomini oldi. Ha, bu sobiq ittifoq futboliga tegishli gapdir. Chunki bu davrda futbol jamoasi bo'lmagan biror maktab, ilmgoh, fabrika, zavod, biror qishloq yo'q edi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu o'yinlar umumta'lim oluvchi otryadlar tayyorlash ishining tarkibiga kiritildi va shunday qilib, u mamlakatning barcha burchaklariga tarqatdi. 1922 yili Sovet davlati birinchi futbol chempionatini o'tkazdi. 1923 yili esa yosh sovet futboli Yevropaga "darcha" ochdi. Rossiya terma jamoasini fin ishchilarining "TUL" sport klubi mehmonga taklif etdi. Uchrashuv katta muvaffaqiyat bilan o'tdi. Gap hatto gollarda ham emas, balki uning ishchilar birdamligini namoyish etganligi hamda dunyoda birinchi xalq hukumati o'rnatilgan mamlakat imkoniyatlarini ko'rsatganligida edi.

1924 yili mamlakat terma jamoasi birinchi marta Turkiya milliy terma jamoasi bilan uchrashuv uchun tuzildi. 1924 yil 16 noyabr kuni Moskvada erta tushgan qorda uning ilk uchrashuvi bo'ldi. Xizmat ko'rsatgan sport ustasi Sovet davlati terma jamoasining birinchi darvozaboni Nikolay Sokolov shunday eslaydi: "Ko'plar o'yin boshlanishidan 2-3 soat oldin yo'lga chikishgan bo'lsa-da, shahar transporti tomoshabinlarni tashishni qiyinchilik bilan ta'minlardi. Biz qizil maykalarimizni kiyayotganimizda. Butunittifoq futbol komitetining raisi o'rtoq Semashko shunday deydi: O'rtoqlar, yillar o'tadi ammo mamlakat terma jamoasi SSSR bayrog'ini himoya qilish uchun birinchi marta o'yinga tushgan bu uchrashuv unutilmaydi. Keling, u haqida yaxshi xotira qolsin".

Haqiqatdan ham undan shunday xotira qoldi. Hisob SSSR foydasiga 3:0 bo'ldi. Sovet futboli tarixida nihoyatda odatdan tashqari xolatlar yuz bergan o'yinlar mavjud. Masalan, 1942 yil bahorida qamaldagi Leningrad ustidan nemis-fashist samolyotlari "Leningradliklar (o'liklar) shahri" degan varaqalar tashlamdi. Lekin o'sha uqubatli qirq ikkinchi yilning 6 may kuni Leningradda futbol uchrashuvi bo'ldi. U, dushman shahar himoyachilarining ka'tiyatga ishonch hosil qilsin uchun, shahar partiya komiteti tashabbusi bilan o'tkazildi. 1956 yilgi olimpiada o'yinlarida SSSR terma jamoasi Bolgariya terma jamoasi bilan bo'lgan yarim final uchrashuvida Nikolay Tishchenko yiqilib umrov suyagi sindi, ammo u uchrashuvining so'ngi daqiqalarigacha o'yindan chiqib ketmadi. Keyin SSSR terma jamoasi, dastlab, finalda Yugoslaviya jamoasi bilan o'ynagan, so'ngra, olimpiada chempionlari bilan uchrashuvlarga olib chiquvchi golni raqib darvozasiga kiritishi unutmadi.

"Deyli mirror" ingliz ro'znomasini muxbiri Piter Villsonga taalluqli quyidagi so'zlarga ham e'tibor bering: "Biz, odatda, yulduzlar haqida gap ketganda, ko'pincha, hujumlarni tilga olamiz. Lenin men ularga qarshi o'ynovchi rus darvozaboni Lev Yashin haqida, futbolning bu ajoyib shoiri haqida eng qoyil qolgan so'zlarimni aytishni istayman".

Braziliyalik dunyoga mashhur futbolchi Pele shunday deydi: "Men Lev Yashindan yaxshiroq darvozabonni bilmayman. Men maydonda bunday muruvvatli sportchini uchratmaganman. Ba'zan jarima maydonida biz to'qnashib qolardik, shunda Lev darhol menga o'rnimdan turishimga yordam qo'lini cho'zardi. Agar mening zarbam yaxshi chiqsa, Yashin meni tabriklab bosh barmog'ini ling qilib ko'rsatardi. Bunday xolislikni va olijanoblikni hech bir mashhur futbolchida uchratmaganman". Sovet futbol ustalari bir necha bor "jahon terma jamoasi" tarkibiga kiritildilar. 1963 yil 23 sentyabrda Londonning mashhur "Uembli" stadionida yuz yilligi nishonlandi. Xalqaro federatsiya Angliya terma jamoasiga qarshi birinchi marta baynalmilal terma jamoani qo'ydi. Bu baynalmilal terma jamoaning darvozasini o'yinni birinchi yarmida Lev Yashin himoya qildi. Besh yildan keyin Braziliyaning huddi shunday mashhur "Marakand" stadionida Rio de Janeyroda Braziliya terma jamoasiga qarshi "jaxon terma jamoasi" o'ynadi, darvozada esa har galgidek Yashin turar, jamoada Albert va Shesternev va Slava Metrevelilar o'ynadi.

"Jahon terma jamoasi" sharafiga uchun Yevgeniy Lovchev, Vladimir Onishchenko (1973 yil), Oleg Bloxin (1979-1980 yillar) ham kurash maydoniga tushishgan. Katta futbol hamisha ikki ko'rinishda – milliy va terma klublar bayrog'i ostida mavjud bo'ladi. Terma jamoalar olimpiada uyinlarida, jahon va qit'alar chempionatlari va birinchiliklarida uchrashadilar. Xuddi ana shunday chiqishlar u yoki bu futbol saltanatining "xalqaro harakat" yo'nalishini belgilab turadi, deb hisoblanadi.

Olimpiada turnirlari 1900 yili boshlandi. To'g'ri, birinchi turnir ikkitagina uchrashuvdan iborat bo'lib, inglizlar, fransuzlar va belgiyaliklarni yenggan edi. Sobiq ittifoq jamoalari kubok uchun kubok o'yinlarida 1975 yili kievlik dinomachilar, 1981 yili ularning ustidan "Dinamo" Tbilisilik klubdoshlari g'olib kelishgan.

FIFA yosh futbolchilar uchun iloji boricha ko'proq musobaqalar o'tkazishga harakat qiladi. Masalan, Yevropada 16 yoshlilar uchun musobaqalar tashkil etiladi, 18 yoshlilar uchun qit'a chempionati yo'lga qo'yilgan. 12 yoshdan oshmagan futbolchilar uchun xatto halqaro uchrashuvlar ham tashkil etiladi. Bu uchrashuvda Moskvaning V.I.Lenin nomli markaziy stadioni oliy sport mahorati tajriba maktabi tarbiyalanuvchilari g'olib kelishgan.

1977 yildan boshlab o'smirlar uchun jahon chempionati o'yinlari tashkil etildi. O'sha yili jahon kubogi sovet terma jamoasiga tegdi, uni 1979 yili argentinaliklar, 1981 yili GFR jamoasi, ikki yildan keyin Braziliya terma jamoasi qo'lga kiritdilar. Endi xalqaro futbol federatsiyasining tashabbusiga ko'ra 14-16 yoshli futbolchilarning jahon chempionati navbat kutib turibdi. Qadimiy Ingliz kitoblaridan birida shunday deb yozilgan: "Bizning fikrimizcha, erkaklar xavf-xatar va og'riqqa dosh berishga o'rgatuvchi o'yinlar o'ynashlari kerak. Ularning baxtiga, futbol xuddi shunday o'yindir".

1.3. O'zbekistonda futbolning rivojlanishi

O'zbekistonda zamonaviy futbol o'tgan asrning boshlarida paydo bo'lib, u tezda mashhur o'yinga aylanib, dastlab, Farg'ona, Toshkent, Andijon, Qo'qon va Samarqandda shakllandi.

Ilk futbol o'yini Farg'ona shahrida bo'lib o'tgan. Xuddi shu yerda 1911 yilning oxirida birinchi futbol jamoasi tashkil topgan. Farg'onada tuzilgan futbol jamoalari soni 1912 yil avgustida «Futbolchilar jamoasi»ga birlashishga yo'l berdi. Bir oz vaqt o'tgach, Toshkentda ham futbol o'ynay boshladilar. Toshkentlik futbol ishqibozlari orasida eng mashhur jamoa bu – TOLS (Tashkentskoe obiestvo lyubiteley sporta, TSIJ – Toshkent sport ishqibozlari jamiyati) edi.

Bu jamiyat 1912 yilda tuzilgan bo'lib, juda qisqa vaqt ichida futbol hamda boshqa sport turlarining rivojlanishi uchun ko'p xizmat qilgan. 1912 yilning ikkinchi yarmida O'zbekistonda futbol aytarli darajada yoyila boshladi. Futbol o'yiniga Qo'qon, Andijon va Samarqandda ham qiziqish orta boshladi.

Bu yillardagi eng qiziqarli bosqich albatta Farg'ona, Toshkent, Andijon, Samarqand futbolchilarining uchrashuvi bo'ldi. Toshkentga tashrif buyurgan ilk futbolchilar Samarkand futbolchilar to'garagi (SFT) a'zolari edi. 1913 yil 29 avgustida ular TOLS futbolchilari bilan uchrashuv o'tkazdilar. Yaxshi tayyorgarlik ko'rgan Toshkent jamoasi 5:0 hisobi bilan g'alaba qozondi.

1913 yil iyunida Andijonda «Andijon futbolchilar klubi» tasdiqlandi. Va, nihoyat, 1914 yil 25 mayda Toshkentda O'zbekistonning eng kuchli ikki jamoasining markaziy uchrashuvi bo'lib o'tdi. Bunda Toshkent va Farg'ona futbolchilari to'p surdilar. Toshkentliklar o'yinda 3:2 hisobida muvaffaqiyatga erishdilar. O'zbekistonda futbol rivojlanishining boshlang'ich davri haqida xulosa qilsak, futbol maydonlari va o'quv mashg'ulotlarining bo'lmaganiga qaramay, qisqa vaqt ichida Farg'ona, Toshkent, Qo'qon, Andijon va Samarqandda o'zbek futbolining rivojiga ulkan hissa qo'shgan iste'dodli futbolchilar paydo bo'ldi.

Shuni alohida aytib o'tish lozimki, Farg'ona, Toshkent va Samarqandda, balki O'zbekistonning boshqa shaharlarida futbolning muvaffaqiyat bilan tarqalishiga qaramay, uning rivojlanishida o'zi bo'larchilik kuzatilar edi. Jamoalarni o'rgatish tizimi yo'q edi, mashg'ulotlar o'ta sodda va vaqti-vaqti bilan o'tkazilardi. Hech bir shaharda futbol birinchiliklari tashkillashtirilmagandi, hatto o'ndan ortiq jamoa mavjud bo'lgan Toshkent shahrida ham bironta rasmiy musobaqa o'tkazilmagan edi.

1920 yildan boshlab futbol respublikamizning chekka qishloq va mahallalariga kirib borib, mashhur o'yinga aylandi. Yoshlar, talabalar, ishchi va dehqonlar futbolga talpina boshladilar. 1921 yil Moskva va Toshkent futbolchilarining ilk uchrashuvi o'tkazilgani bilan ahamiyatga loyiqdir. 1925 yilda mamlakat jismoniy tarbiya kengashi tomonidan ommaviy jismoniy tadbirlarning taqvimini tuzildi. O'zbekistonda futbolni tashkillashtirish bir oz tartibliroq tizimga ega bo'ldi.

Shunday qilib, Toshkent birinchiligi 3 toifa bo'yicha o'tkazildi va unda 28 jamoa ishtirok etdi. 1927 yilda o'zbek sportchilarini tayyorlashda muhim bosqich bo'lgan 1 Umumo'zbek spartakiadasi o'tkazildi.

Spartakiada finalida doimiy raqib bo'lib qolgan Toshkent va Farg'ona jamoalari uchrashdilar. Ikkala tarkibda ham O'zbekiston terma jamoa a'zolari chiqish qildilar. Katta qiyinchiliklar bilan 2-taymda toshkentliklar hal qiluvchi golni urdilar va 2:1 hisobi bilan g'alaba qozondilar. 1928 yil Moskvada bo'lib o'tgan xalqaro spartakiadada qatnashish O'zbekiston futbolchilari uchun nihoyatda jiddiy imtihon bo'ldi.

Futbol bo'yicha spartakiada birinchiligi uchun 22 jamoa kurash olib bordi, ular qatorida Angliya, Germaniya, Avstraliya, Shveysariya va Finlyandiyaning ishchi klublardan iborat terma jamoalari ham bor edi.

Shveysariya va O'zbekiston jamoalarining uchrashuvi futbol ishqibozlarida katta qiziqishga sabab bo'ldi. O'zbek futbolchilari bu o'yinda jamoaviy o'yin, chiroyli va chaqqon kombinatsiyalar namoyish etdilar. Ammo asosiy vaqt 3:3 hisobi bilan yakunlangani sababli, g'olibni aniqlash uchun qo'shimcha 30 daqiqa qo'shib berildi. So'nggi 15 daqiqa ichida O'zbekiston futbolchilari shveysariyaliklar qarshiligini yenga oldilar va 8:4 hisobi bilan O'zbekiston futbolchilari g'alaba qozondilar.

Bir kundan so'ng esa qiyin kechgan o'yinda o'zbek futbolchilari Rossiya jamoasiga 1:2 hisobida g'alabani boy berdi. Keyingi yillarda o'rtoqlik o'yinlarini o'tkazish uchun O'zbekistonga Norvegiya, Germaniya, Finlyandiya, Moskva, Leningrad, Ukraina, Kavkaz orti mamlakatlaridan ko'plab kuchli futbol jamoalari keldi.

Misol uchun 1931 yil 4 oktyabrda bo'lib o'tgan matchda Norvegiya terma jamoasiga qarshi O'zbekiston kasaba uyushmalari terma jamoasi chiqdi. Norvegiyaliklar texnikali futbol namoyish etib, 5:2 hisobida g'olib chiqdilar. Uch kundan so'ng skandinaviyalik mehmonlarga qarshi Toshkentning birinchi terma jamoasi maydonga tushdi. O'zbekistonliklar o'yinni yuqori tezlikda olib borib, 4:2 hisobida muvaffaqiyatga erishdilar.

Norvegiyalik va o'zbekistonlik futbolchilarning uchinchi uchrashuvi 2:2 hisobidagi durang bilan yakunlandi. 1932 yilda O'zbekistonga nemis futbolchilari tashrif buyurdilar. Bu jamoa ishchi sport klublarining eng yaxshi futbolchilaridan tuzilgan bo'lib, ulardan ko'pchiligi Germaniya chempionati ishtirokchilari edi. O'zbek

futbolchilari bu bo'lajak o'yinga kuchli tayyorgarlik ko'rdilar va birinchi matchda 4:2 hisobidagi og'ir g'alabani qo'lga kiritdilar.

Birinchi uchrashuvdan so'ng nemis jamoasi sardori Lor shunday degan edi: «Toshkentliklar jipslashgan jamoa bo'la olishdek ajoyib xususiyatga ega va ular biz hech narsa bilan taqqoslay olmaydigan yuqori tezlikda o'ynadilar. Yuqori darajali jamoa bo'lish uchun O'zbekiston futbolchilarida barcha imkoniyatlar mavjuddir».

Takroriy uchrashuvda nemis futbolchilari bir oz ustunroq kelib, yuqori darajadagi taktik tayyorgarlikni namoyish etdilar va 3:1 hisobi bilan g'olib bo'ldilar.

Norvegiyalik, nemis, fin futbolchilari bilan o'tkazilgan o'yinlar O'zbekistondagi ilk xalqaro o'yinlar edi. Ular texnik va taktik tayyorgarlik borasida tajriba almashishga, o'yinning yangi-yangi usullari bilan tanishishga yordam berdi.

1934 yil O'zbekiston poytaxtida ilk O'rta Osiyo spartakiadasining ochilishiga bag'ishlab 36 ming nafar jismoniy tarbiya ixlosmandlari namoyishi bo'lib o'tdi. Bu namoyish O'rta Osiyo respublikalarida jismoniy tarbiya harakati o'sishining yorqin namunasi edi.

Futbol bo'yicha musobaqalar bir paytning o'zida uch stadionda bo'lib o'tdi, ulardan eng yirigi spartakiada ochilishi arafasida qurilgan 10 ming o'rinli «Spartak» stadioni edi. Bu O'rta Osiyo respublikalari orasida futbol birinchiligi uchun olib borilayotgan ilk o'yin edi. O'zbekiston futbolchilari o'z raqiblari bo'lmish Turkmanistonni 3:1, Tojikistonni 5:0, Qirg'izistonni 10:1 hisobi bilan dog'da qoldirib, muvaffaqiyatli chiqish qildilar.

1934 yil futbol jamoalarining kelgusidagi o'sishlari uchun muhim yil bo'ldi. Birgina Toshkentda kasaba uyushmalari birinchiligida 50 ta jamoa qatnashdi. 1930 yilning boshlarida bolalar va o'smirlar futboliga yanada ko'proq e'tibor berila boshladi. 1935 yil Toshkentda o'smirlar o'rtasida futbol bo'yicha O'zbekiston birinchiligining ilk tanlovi bo'lib o'tdi. Bu tanlovda Toshkent, Samarkand, Farg'ona va Andijon terma jamoalari ishtirok etdi. Poytaxtlik yosh futbolchilar g'alaba qozondilar.

1936 yil respublika shaharlaridagi futbol mavsumining bahorgi ochilishi ahamiyatga loyiq. Toshkentdagi musobaqa namoyishida 324 futbolchi ishtiroq etdi. Ommaviy futbol keyingi rivojlanish bosqichiga o'tdi. Umumta'lim maktablari, texnikumlar, oliy o'quv yurtlari o'z birinchilik o'yinlarini o'tkazar, muntazam ravishda korxonalarining ichki musobaqalari tashkil etilar edi.

Shahar futbol bo'limi (seksiya) qaroriga binoan Toshkentda futbolga ixtisoslashgan birinchi bolalar va o'smirlar maktabi ochildi.

Bu yerda ko'pgina qobiliyatli yosh futbolchilar o'z mahoratlarini mukammallashtirar edilar. 1936 yili O'zbekiston birinchiligida 16 shahardan terma jamoalar ishtirok etdi. Bu o'yinlar katta qiziqish uyg'otib, ko'plab tomoshabinlarni jalb qildi. Shiddatli o'yinlardan so'ng 1- va 2- o'rinlar Qo'qon hamda Toshkent terma jamoalariga nasib etdi. 1936 yildan boshlab futbol musobaqalari asosida shahar terma jamoalarining match o'yinlari emas, balki O'zbekiston Kubogi va birinchiligi uchun klub jamoalar musobaqalari o'tkazila boshladi. O'sha yillardan buyon ko'pgina guruhlar, birinchiliklar va musobaqa qatnashchilari almashdi, musobaqa o'tkazish tamoyillari, baholash tizimi o'zgardi, ammo sportchilar mahoratining yangi taktik yo'nalishlarini aniqlaydigan chempionlik unvoni uchun kurash o'zgarmay qolaverdi.

1937 yil futbol mavsumining ahamiyatli hodisasi – Sovet ittifoq chempionati edi: 56 jamoa oʻrtasidagi guruhlar oʻyini boʻlib oʻtdi. Oʻzbekiston shaʼnini Toshkentning dinamochilari himoya qildilar. Ular futbol boʻyicha mamlakat chempionatida ishtirok etgan birinchi oʻzbekistonlik jamoa edilar.

Oʻz oʻyinlari bilan toshkentliklar sinalgan charm toʻp ustalariga munosib raqib boʻla olishlarini isbotladilar. Ular Yevropaning «Spartak» jamoasini 5:0, Bakuning «Neftchi»sini 3:2, Dnepropetrovskning «Stal» jamoasini 2:1, Gorkiyning «Torpedo» jamoasini 1:0 hisobi bilan yutib, oʻz maydonlarida chiroyli oʻyinlar oʻtkazdilar. Moskvada «Krilya Sovetov» jamoasi bilan 2:2, Leningradga «Avangard» bilan 1:1 hisobida yakunlangan durustgina oʻyinlar koʻrsatdilar.

Ammo tajriba yetishmasligi sabab yuqori oʻrinlarni egallay olmadilar, natijada bor-yoʻgʻi 8-oʻringa erishdilar (4 ta gʻalaba, 3 ta durang, 4 ta magʻlubiyat).

Sovet Ittifoqning yetakchi sport jamiyati boʻlgan «Spartak» KSJ Markaziy Kengashi birinchiligida muvaffaqiyatli chiqish qildi. Saratovdagi dastlabki oʻyinlarda ular oʻz klubdoshlarini 11:1 hisobida tom maʼnoda gʻalaba qildilar, soʻng esa Qozonning «Spartak» jamoasi ustidan gʻalaba qozondilar. Bu gʻalabalar toshkentliklarga Ivanovoda oʻtkaziladigan final oʻyinlarida qatnashish huquqini berdi. Unda Xarkov, Krasnodar, Toshkent va Ivanovo sportchilari qatnashdilar. Toshkentliklar yaxshi oʻyin koʻrsatib, uchinchi sovrinli oʻrinni egalladilar (ular xarkovliklarni 3:1 ga yutib, Krasnodar bilan 1:1 hisobida durang oʻynadilar va mezbonlarga 0:4 hisobida oʻyinni boy berdilar).

Shu yilning oʻzida Toshkentda oʻtkazilgan «Besh yoʻl» turnirida «Lokomotiv» jamoasi muvaffaqiyatli chiqish qildi. Bu turnirda Kuybishev, Orenburg, Turkiston-Sibir, Ashxobod va Toshkent temir yoʻllari jamoalari ham ishtirok etdi. Barcha raqiblarni yengib, toshkentliklar 1-oʻrinni egalladilar.

1939 Sovet ittifoq Kubogi uchui koʻrashda Toshkent dinamochilarining chiqishi katta muvaffaqiyatga sazovor boʻldi. 28 avgustda Moskvada «Dinamo» stadionida oʻzbek futbolchilari chorak finalda Bokuning «Temp» jamoasiga qarshi toʻp surdilar, Oʻyin juda oʻtkir va shiddatli kurashda oʻtdi. Toshkent dinamochilari 2:1 hisobida gʻalaba qozonib, Kubok yarim finaliga yoʻl oldilar. Bunda ular Rossiyaning eng kuchli jamoalaridan boʻlgan «Stalines» (Zenit) bilan uchrashdilar va 3:0 hisobi bilan yutqazdilar. Finalda esa Moskvaning «Spartak» jamoasi leningradliklardan 3:2 hisobida ustup keldi.

1941 yilning futbol mavsumiga Toshkent dinamochilari jiddiy tayyorgarlik koʻrgandilar. Chempionat oʻyinlari taqvimiga koʻra ular Olma-Otalik klublarni qabul qilishlari kerak edi. Ammo butun dunyo uchun fojeaviy boʻlgan 1941 yilning 22 iyunida Ikkinchi jahon urushi boshlandi, shuningdek, Oʻzbekiston sporti faoliyati ham vaqtincha toʻxtatildi.

1941 yilda Oʻzbekiston Kubogi uchun kurashda Toshkentdan ikkita, Fargʻona va Samarqanddan bittadan jamoa ishtirok etdi. 1941 yili Olma-Otada urush davrining qiyin sharoitlarida Oʻrta Osiyo mamlakatlari va Qozogʻiston Spartakiadasi oʻtkazildi. Respublikamiz futbolchilari texnik futbol oʻyinini namoyish etib, Turkmaniston jamoasini 9:0, Tojikistonni 3:0, Qirgʻizistopni 5:0 hisobi bilan magʻlubiyatga uchratdilar. Hatto oʻzlarining qozoqlar bilan boʻlgan oʻyindagi magʻlubiyatga

qaramay, 1-o'rinni egallay oldilar.

1950 yilning boshida O'zbekistonda «Paxtakor» sport jamiyati tashkil etildi. Mustaqil O'zbekiston chempionatida va rasmiy xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli o'yinlar ko'rsatgan, respublikamizning eng kuchli jamoasi bo'lgan «Paxtakor»ning tuzilishi ham shu jamiyat bilan bog'liq.

1960 yildan 1991 yilgacha (tanaffuslar bilan) «Paxtakor» Sovet ittifoqining oliy ligasida ishtirok etib keldi. Bu islohotlar va tub o'zgarishlar davri bo'lgan edi. Kichik guruh (podgruppya)lardagi saralash o'yinlaridan keyingina chempionatga yo'l olinardi. Oliy ligaga chiqish uchun tayyorlanadigan jamoa Toshkentning ikki jamoasi asosida tuzilgan bo'lib, bular «Paxtakor» va «Mehnat zahiralari» («Trudovye rezervy») klublari edi. «Paxtakor»ning barcha ko'zga ko'rinarli muvaffaqiyatlari uning kuchlilar guruhidagi chiqishlari bilan bog'liq. Yitirma yil tanaffus bilan ikki bora 1962 va 1982 yillarda «Paxtakor» oliy ligada faxrli 6-o'ringa sazovor bo'lgan. 1968 yilda finalga chiqib, unda Moskvaning «Torpedo» jamoasiga 0:1 hisobida g'alabani boy berishi «Paxtakor»ning Ittifoq Kubogi o'yinlaridagi eng yirik muvaffaqiyatsizligi edi.

1965 yil chempionati natijalariga ko'ra Moskva jamoalari bilan o'tkazilgan uchrashuvlardagi eng yaxshi ko'rsatkichlari uchun paxtakorchilar «Moskva oqshomi» gazetasining maxsus sovrini bilan taqdirlandilar (toshkentliklar «Dinamo»ni 2:0, «SSKA»ni 2:0, Spartakni 1:0 va «Lokomotiv»ni 2:0 hisobida mag'lub etgandilar). Sovet Ittifoqi chempionatlarida qatnashish yillari mobaynida «Paxtakor» uch jamoaviy sovrinni qo'lga kiritdi: «G'alabaga ishonch» (1971), «Groza avtoritetov» hamda «Adolatli o'yin» uchun sovrin (1983).

Ikki marotaba «Paxtakor» futbolchilari oliy liga chempionatining eng yaxshi hujumchilari deb tan olingan. 1968 yil B.Abduraimov Tbilisi «Dinamo»si o'yinchisi bilan birga (22 tadan gol) va 1982 yilda A.Yakubik (23 ta gol)lar to'purarlar bo'lishdi.

Sovet Ittifoqning ilk terma jamoasi uchun 5 ta paxtakorchi o'ynar edi: V.Fedorov, Yu.Pshenichnikov, G.Krasniskiy, M.An, A.Pyatniskiy. Turli yillarda eng yaxshi 33 futbolchi qatorida Yu.Pshenichnikov (1966, 1967), M.An (1974, 1978), B.Abduraimov, V.Xadzipanagis (1974), A.Yakubik (1982) va A.Pyatniskiy (1991) nomlari bor edi.

1964 yil paxtakorchilarning «Pirasikaba» (Braziliya) hamda (1:0), Urugvayning 25 karra chempioni «Nasonal» (Montevideo) jamoalari bilan uchrashuvlar kiradi. Urugvayliklarning harchand urinishlari va qarshiliklariga qaramasdan «Paxtakor» 2:1 hisobida g'alaba qozondi.

17 nafar iste'dodli futbolchining hayotini olib ketgan 1979 yilgi mash'um avia halokatdan so'ng 1980 yilda Paxtakor yangi tarkibda Sovet Ittifoq chempionatining oliy ligasiga yo'l oldi. U yerda Tbilisi dinamochilarini 3:0, Doneskning «Shaxtyor»ini 2:1 hisobida mag'lub etdi, Kievning «Dinamo»si bilan durang o'ynadi va «Groza avtoritetov» sovrinini qo'lga kiritdi.

1960-90 yillarning paxtakorchilari O'zbekiston futbolining rivojlanishida yorqin iz qoldirganlar. Bu davr mobaynida «Paxtakor»ni Sovet Ittifoqi chempionatidagi chiqishlarga tayyorlashda M.Yakushin, B.Arkadev, G.Kachalin, V.Solovev, B.Abduraimov, X.Rahmatullaev kabi murabbiylarning hissasi beqiyosdir. Respublika terma jamoalari va yuqori malakali jamoalar uchun zahira tayyorlashda G.Sorvin,

X.Muhitdinov, A.Mosheev kabi ustoz murabbiylarning mehnati ulkan bo'lgan.

Xuddi shu yillarda bir qator malakali hakamlar yetishib chiqqanini aytib o'tish joizki, ular qatorida V.Doljenkov, B.Baklunov, F.Sultonov va boshqalar bor.

Murabbiy kadrlar tayyorlash bo'yicha O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutining o'zbek futboliga qo'shgan hissasi o'ta muhimdir. institut 1955 yilda ochilgan bo'lib, u paytda futbol mutaxassisligi sport o'yinlari kafedrasida tarkibiga kirar edi, biroq, 1966 yilda u mustaqil kafedra sifatida ajralib chiqdi. O'z faoliyati mobaynida bu kafedra futbol bo'yicha murabbiy kadrlar tayyorlash o'chog'iga aylandi. Natijada ko'pgina bitiruvchilar murabbiylik ishida ma'lum muvaffaqiyatlarga erishib, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy unvoniga sazovor bo'ldilar. Bular B.Abduraimov, V.Tixonov va boshqalardir. Ayni paytda futbol kafedrasining ko'pchilik bitiruvchilari O'zbekistonning turli viloyatlari va chet ellarda ishlab kelmoqda.

1992 yil mustaqil O'zbekiston Respublikasining ylk chempionati yili edi. Mamlakatimiz futboli tarixida yangi sahifa ochildi. Bu chempionatning oliy ligasida 17 ga, birinchi ligasida 18 ta, ikkinchi ligasida esa 42 ta jamoa ishtirok etdi. O'zbekiston chempioni unvoni uchun kechgan shiddatli kurashda «Paxtakor»ga, asosan, Farg'ona vodiysining «Neftchi», shuningdek, «So'g'diyona» (Jizzax) va «Nurafshon» (Buxoro) jamoalari kuchli qarshilik ko'rsatdilar. 1994 yil 7 iyunda O'zbekiston Futbol federatsiyasi «FIFA»ga, shu yilning dekabr oyida esa Osiyo Futbol konfederatsiyasiga a'zo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 18 martdagi «O'zbekiston Respublikasida futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonining mamlakatimizda futbolni rivojlantirishdagi ahamiyati juda kattadir.

Oltin medal sovrindorlari nomi uchun kurashda o'zbek futbolchilari Saudiya Arabistoni (4:1), Malayziya (5:0), Gonkong (1:0) va Tailand (5:4) terma jamoalari ustidan g'alaba qozondilar. Chorak finalda Turkmaniston terma jamoasini 3:0 hisobida, yarim finaldagi shiddatli va o'ta murakkab o'yinda Janubiy Koreyaning kuchli jamoasini 1:0 hisobida mag'lub etdilar. Va, nihoyat, finalda Xitoy terma jamoasini 4:2 hisobi bilan yengdilar. Bu jamoa murabbiylari dotsent R.Akramov va sport ustasi B.Abduraimovlar edi. Asosiy tarkibning 7 nafar o'yinchisi O'zDJTI talabalari bo'lganini aytib o'tish joizdir.

Shu yilning o'zida Osiyo chempionlari Kubogida ilk bor qatnashgan Farg'onaning «Neftchi» klubi futbolchilari uchinchi sovrinli o'rinni egalladilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 17 yanvardagi «O'zbekistonda futbolni rivojlantirish tamoyillari va tashkillashtirish asoslarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni O'zbekistonda futbolning keyingi rivoji uchun katta ahamiyat kasb etdi. Bu farmonda kelgusi futbolni klublar asosida rivojlantirish va 1996-1997 yillarda viloyat markazlarida futbol bo'yicha o'smirlar maktab-internatlari ochilishi ko'rsatilgan edi.

1992 yildan 2005 yilgacha bo'lgan vaqt ichida Toshkentning «Paxtakor» va Farg'onaning «Neftchi» klublari chempionat yetakchilari bo'lib keldi. Paxtakorchilar besh marotaba O'zbekiston chempioni bo'lganlar (1992, 1998, 2002, 2003, 2004) va 6

marotaba mamlakat Kubogi sovrindorlari qatoridan joy olganlar (1993, 1997, 2001, 2002, 2003, 2004). «Neftchi» ham besh karra respublika chempioni (1992-1995, 2001) va 2 karra O'zbekiston Kubogi sohibi (1994, 1996) bo'lgan.

O'zbekiston chempioni unvoniga yana «Navbahor» (1996), MHSK (1997) va «Do'stlik» klublari erishganlar. Shuningdek, 1997, 1995, 1998 yillarda «Navbahor» va 2000 yilda «Do'stlik» jamoasi O'zbekiston Kubogini ko'lga kiritganlar. 2002 yilgi Osiyo Chempionlari Kubogi uchun kurashda Qarshining «Nasaf» jamoasi ishtirok etadi. Saralash bosqichlarida 5 g'alabani ko'lga kiritib, yarim finalga chiqdilar. Ammo bronza medali uchun kechgan bu o'yinda qarshiliklar «Istiqlol» (Eron) jamoasiga 2:5 hisobida g'alabani boy berib, 4-o'rinni egalladilar.

2003 yilda Toshkentda bo'lib o'tgan chempionlar ligasi chorak finalida paxtakorchilar katta ustunlik bilan Turkmanistonning «Nissa» jamoasini 3:0, Eronning «Piruz»sini 1:0 va Iroqning «Al-Taliba» kabi jamoalarini 3:0 hisobida yengdilar. Yarim finalda ikki match natijalariga binoan Tailandning «Bek-Tero Sosana» jamoasi ustun keldi.

2002-2003 yillarda O'zbekistonning yoshlar terma jamoasi futbolchilari katta yutuqlarga erishdilar. Qatarda Tailand terma jamoasini 4:0, Katarni 5:4 hisobida yengib, so'ng Janubiy Koreyaga 0:2 hisobida g'alabani boy berib, futbolchilarimiz chorak finalga yo'l oldi va unda Suriya Arabistonini 4:0 hisobida mag'lub etdilar. Yarim finalda o'zbek futbolchilari Yaponiya terma jamoasi bilan uchrashdilar. Shiddatli va qizg'in o'tgan o'yinning asosiy vaqti 1:1 hisob bilan yakunlandi. 11 metrli zarbalar yo'llashda yaponlar bir oz ustunroq chiqib, 4:2 hisobida g'olib bo'ldilar.

To'rtinchi o'rinni egallagan O'zbekiston yoshlar terma jamoasi dunyoning eng kuchli 16 jamoasi qatorida maydonga chiqish imkoniyatini qo'lga kiritdi.

Jahon chempionati 2003 yilning dekabr oyida BAA da bo'lib o'tdi. O'zbekiston futbolchilari chiroyli va bahamjihat o'yin ko'rsatdilar, lekin 1/8 finalga chiqa olmadilar. Biroq mutaxassislar va ishqibozlar O'zbekiston terma jamoasi o'yinini yuqori baholadilar. Uch o'yin davomida ular o'z tengdoshlari bilan kurash olib bordilar, lekin Mali jamoasiga (Afrika chempioni) 2:3, Argentina termasiga (ayni paytda jahon chempioni) 1:2, Ispaniya terma jamoasiga (Evropa chempioni) 0:1 hisobi bilan g'alabani boy berdilar.

2-BOB. JAHON FUTBOLINING UMUMIY BOSHQARUVI

2.1. Futbolning umumiy tavsifi

Futbol – haqiqiy atletik o'yindir. U tezlik, chaqqonlik, chidamlilik, kuch va sakrovchanlik kabi xususiyatlarning rivojlanishiga yordam beradi. O'yin davomida futbolchi o'ta yuqori yuklamadagi ishini bajaradi va bu narsa, o'z navbatida, insonning funksional imkoniyatlari darajasini oshiradi, aqliy-irodaviy sifatlarni tarbiyalaydi.

O'zbekistonda futbol jismoniy tarbiya vositasi sifatida tarqalgan. Futbol bilan maktab, kollej, institut, ishlab chiqarish tashkilotlari va armiyada shug'ullanishadi.

O'yin jamoaviy kurashning murakkab vaziyatida o'tadi. Bunda har bir jamoa eng yaxshi natijaga erishish uchun barcha bilim va imkoniyatlarini ishga soladi. O'yin negizida o'yinchilar yagona maqsadida birlashgan ikki jamoaning kurashi yotadi. Futbol o'yini davomida har bir o'yinchi o'zining shaxsiy fazilat (sifat)larini ko'rsatish imkoniyatiga ega, lekin shu bilan bir qatorda o'yin har bir futbolchining shaxsiy intilishlarining umumiy maqsadga bo'ysunishini talab etadi.

Futbolchi texnik usullarni mukammal darajada bilishi, murakkab o'yin vaziyatlari texnik usullarni qo'llay olishi va jamoaning barcha a'zolari bilan kelishgan holda harakat qilishi lozim.

2.2. Futbol boshqaruvining tashkiliy tuzilishi

O'zbekiston futbol federatsiyasi (O'FF) jamoatchilik tashkiloti sifatida mamlakatda futbolning rivojlanishi uchun to'liq javobgardir. Mamlakatda bolalar va o'smirlar futbolini ommaviylashtirish, futbolchi, murabbiy va hakamlarning professional darajasi va mahoratini oshirish, musobaqalar tizimini tashkil etish va takomillashtirish, moddiy-texnik bazaning rivojlanishiga ko'maklashish O'zbekiston futbol federatsiyasining asosiy vazifalaridandir.

O'zbekiston futbol federatsiyasi O'zbekiston respublikasida futbol rivojiga oid joriy va istiqbolli rejalar ishlab chiqadi, O'zbekiston terma jamoalarining tayyorgarligini tashkillashtiradi.

O'zbekiston futbol federatsiyasi 14 ta xududiy va viloyat futbol federatsiyalarini, 200 dan ortiq usta jamoalar, futbol klublari, sport maktablari, iqtidorlilar va terma jamoa tayyorlash markazlarini birlashtiradi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirliti va viloyatlar madaniyat va sport ishlari boshqarmalari bilan hamkorlik qiladi.

O'zbekiston futbol federatsiyasi nizomiga asoslangan holda hududiy futbol federatsiyalari o'z ish sharoitlariga muvofiq nizom ishlab chiqadi va shu nizom bo'yicha o'z faoliyatini olib boradi.

O'zbekiston futbol federatsiyasining eng yuqori organi anjuman bo'lib, unda 4 yil muddatga prezident saylanadi. Ijroiya qo'mitasi ish organi hisoblanadi. Futbolni rivojlantirish masalalari bo'yicha, qabul qilingan qarorlarning tadbiq etilishini nazorat qilish uchun ijroiya qo'mitaga qo'shimcha bolalar va o'smirlar, o'quv-uslubiy, hakamlar va boshqa ko'mitalar tuziladi.

O'zbekiston futbol federatsiyasi 1994 yil 21 mayda tuzilgan va ayni paytda 200 dan ortiq milliy federatsiyalarni birlashtirib turgan xalqaro futbol federatsiyalari uyushmasi (FIFA) bilan yaqindan hamkorlik olib boradi. Hududiy joylashuv jihatidan

O'zbekiston futbol federatsiyasi Osiyo futbol konfederatsiyasi (OFK) tarkibiga kiradi.

FIFAning tashkiliy negizini 6 qit'aning tashkilotidan iborat. Bular: UEFA – Yevropa ittifoqi futbol uyushmasi, KONKAKAF – shimoliy va markaziy Amerika mamlakatlari hamda Karib dengizi havzasi mamlakatlarining futbol konfederatsiyasi, KONMEBOL – janubiy Amerika mamlakatlari futbol konfederatsiyasi, KAF – Afrika futbol konfederatsiyasi, AFK – Osiyo futbol konfederatsiyasi, KFO – Okeaniya futbol konfederatsiyasidir.

2.3. FIFA oliy organi kongressdir

FIFAning joriy faoliyatini ijroiya ko'mita bilan bir qatorda yana bir necha maxsus qo'mitalar boshqarib boradi. Ular quyidagilardir: favqulodda holatlar, moliyaviy, jahon kubogini o'tkazish bo'yicha, Olimpiya turnirlari, o'smirlar chempionatlari, hakamlik, texnik, intizom, tibbiy va h.k. qo'mitalardir.

FIFAning asosiy vazifasi hududlarda futbol rivojlanishini nazorat qilish va moddiy va uslubiy yordam ko'rsatish, nizom va qarorlar, o'yin qoidalarining buzilishi oldini olish bo'yicha kerakli choralar ko'rish, irqiy, siyosiy va diniy sabablarga asosan kamsitilishga yo'l qo'ymaslikdir.

Zamonaviy futbol tavsifi

Mutaxassislarimiz tadqiqotlari bizga o'yinchilarning to'p bilan va to'psiz harakatlarining hajmi va xususiyati haqida ma'lumot olishga imkon berdi.

Aniqlandiki:

- o'yinning sof vaqti 60-65 daqiqani tashkil etadi.
 - 90 daqiqa o'yin davomida bir o'yinchi 12-15 km masofani chopib o'tadi.
- Shundan 1000-2000 m. masofani maydonda tezkorlik bilan bosib o'tadi.
- to'p o'rta qator o'yinchilari eng ko'p (170 soniya), markaziy himoyachilar eng kam (130 soniya) olib yuradilar.
 - yaxshi o'ynaydigan jamoalar match davomida o'rtacha 900 tagacha texnik usullarni bajaradilar, shulardan taxminan 60%i xujum harakatlariga yo'naltirilgan bo'ladi.
 - hozirgi zamon futbolida himoyachilar o'z zonalarida 850 soniyagacha va maydonning o'rta qismida 350 soniyagacha miqdorda o'zlarining asosiy vazifalarini bajaradilar.
 - darvozaga urilgan zarbalarining ko'pchiligi yon tomondan oshirib beriladi (hamma zarbalarining 65% i).

Zamonaviy futbol o'zining yuqori darajadagi faol harakatchiligi hamda texnik-taktik harakatlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy futbol o'yin taktikasi quyidagilar bilan ifodalanadi:

- maydonning har bir qismida hujumning tez tashkil qilish bilan. Himoyachilar, o'rta qator o'yinchilari, kerak bo'lgan taqdirda xujum qatori o'yinchilari bilan himoya chizig'ini mustahkamlash;

- match yaxshi yakunlashida iqtidorli o'yinchilarning rolini oshirish;
- yuqori tempdagi o'yinni pauzalar bilan birga olib borish;
- o'yinning har bir holatida (o'yinning boshida, uning davomida va hujumni yakunlashda) markaziy himoyachilarning rolini oshirish;
- qanotdan xujum uyushtirishda qanot yarim himoyachilari va himoyachilarning

rolini oshirish;

- standart holatlardan (jarima to'plari, burchakdan to'pni o'yinga kiritish va boshqa standart holatlar) unumli foydalanish.

Zamonaviy futbol o'yin texnikasi quyidagilar bilan ifodalanadi:

- harakat holatida, yugurib ketayotib to'pni o'ziga bo'ysundira olish;
- har xil vaziyatlarda to'pni imkon qadar aniq uzatib berish.

Jismoniy tayyorgarlikda:

- maydonning har bir qarich yerida yuqori darajadagi texnika bilan harakatlanish va to'pga egalik qilish, aldamchi harakatlarni qo'llay bilish;

- o'yinchilarning o'yin davomida umumiy yugurish harakatlari quyidagicha taqsimlanadi: 45 martadan 78 gacha (umumiy masofa 1000-2000 metrga yetadi), to'p uchun kurashda sakrash harakatlari, kurashlar 11 tadan 42 gacha, har xil masofaga tezlik bilan yugurish 40 tadan 60 tagacha (umumiy vaqti 2-5 daqiqagacha), sekin yugurish 224 tadan 367 gacha (umumiy vaqti 25-35 daqiqa);

- tezlik – kuch sifatleri va tezlikka chidamlilikning yuqori darajasi;
- raqib bilan kurashda muhim bo'lgan shiddat va qat'iylikning yuqori darajasi;
- jamoa o'yin potensialining muntazam oshib borishining ta'minlanishi;

Keyingi paytlarda futbolchilarning sezilarli darajada o'yinlardagi harakatlanish tezligi oshdi, o'yin faoliyatining jadalligi (samaradorligi) oshdi va bular sportchilar organizmiga bo'lgan yuklamani ancha oshirdi.

Har bir o'yin davomida turli quvvatdagi ish yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli mashqlar futbolchilarda aerob va anaerob sifatlarning unumdorligini yuqori darajaga ko'tarishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Uyin davomida futbolchilar kattagina energiyani (ya'ni bir daqiqada yurak qisqarish chastotasining 180-190 bo'lishi, tana og'irligining 2-3 kg kamayishi va quvvatining 1500 kkal ga) sarf qilishida, futbolchilarning organizmidagi yuqori darajada tayyorgarlikka ega bo'lishini ta'kidlash o'rinlidir.

Futbolchilarning sog'ligini mustahkamlashda ularning gigienik talablarga rioya qilishlari va ko'proq toza havoda mashq qilishlari katta ahamiyatga egadir. Futbolchilarning bunday amallarga rioya qilishlari organizmda moddalar almashinuvi yaxshilanishi, tayanch harakat a'zolar, muskul, asab tizimlarining mustahkam va sog'lom bo'lishini ta'minlaydi.

2.4. Jahon sportiga bir nazar

Jahon tarixi sahifalariga nazar solsak, sport tinchlik elchisi, xalqlarni o'zaro hurmatga, bag'rikenglikga, hamjihatlikka chorlovchi, xalqlar o'rtasida madaniy-siyosiy aloqalarni tiklash hamda yuqori ijobiy yutuqlarga olib chiqishga xizmat qilib kelmoqda. Ushbu sport musobaqalari o'zining nufuzi, o'zaro hamkorligi, olijanob hamkorlikdagi xislatlari bilan ma'lum va mashhur bo'lib bormoqda. Sport musobaqalarning qaysi mamlakatda o'tkazilishidan qat'i nazar, sportchilarni g'alabaga undovchi davlat bayroqlari, madhiyalari, gimnlari milliy iftixor, g'urur sifatida qabul qilingan.

Jahon sportning ommalashuvi mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy-madaniy va siyosiy aloqalarning dastlabki o'zaro hamkorlik rishtalarni shakllantirdi. Natijada sport mamlakatlararo do'stlik ko'prigini paydo bo'lishiga asosiy tayanch bo'lib xizmat qildi.

Xalqaro sport musobaqalarni tashkil etish, uni sport qonunlari asosida o'tkazishda har bir davlatning ishtirokini ta'minlash uchun zaruriy qonun qoidalarini amaliy dasturini yaratish maqsadida yagona markazlashgan sport uyushmasi boshqaruvni tuzish taklifi paydo bo'ldi. Ushbu markazning maqsadi davlatlardan keladigan sportchilarning xavfsizligini ta'minlash, ularning hayotini qonuniy himoya qilish, sport musobaqalarini o'tkazish va sportchilarga shart-sharoitlar yaratib berish, sport natijalarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash masalasi kun tartibdagi asosiy masalaga aylandi. 1984 yil 23 iyunda jahon miqyosidagi dastlabki sport tashkiloti – Parijda baron Per de Kuberten tashabbusi bilan Xalqaro Olimpiya Komiteti (XOK) tashkil qilindi. Komitetning dastlabki prezidenti grek Demetrius Vikelas tayinlandi. Har yili 23 iyunda xalqaro olimpiya kuni bayrami jahon bo'yicha nishonlanadi. Mustaqillik yillarida berilgan katta e'tibor tufayli 2012 yilda XOK tarkibiga 204 milliy komitetlar kirgan bo'lib, unga O'zbekiston Respublikasi ham qilib qabul qilindi. Yer yuzidagi 5 qit'aning alohida olimpiya komitetlari mavjud: Afrika (ANOCA), Amerika (PASO), Osiyo (OSA), Yevropa (EOS), Okeaniya (ONOC)].

Jahonda sportni xalqlar do'stligiga aylantirish, yangi sport g'oliblarini aniqlash, sportning yangi turlarni xalqaro musobaqalarga kiritish, dunyo xalqlari urf-odatlari, an'analari va marosimlarini hurmat qilgan holda Xalqaro Olimpiya Komitetining xizmatlari beqiyosdir. Ushbu tashkilot nufuzli sport musobaqalarini tashkil etishda xalqaro qonunlarga amal qilish, har bir mamlakatning sportchilari manfaatlarini himoya qilishda qonuniylikka alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Eng muhimi, ushbu tashkilotni tashkil etish va uning obro'-e'tiborini saqlashda qo'yidagi tashkilotchi va tashabuskor insonlar Xalqaro Olimpiya Komitetlari Prezidentlari bo'lib xizmat qildilar: Demetrius Vikelas (Gresiya; 1894-1896), baron Per de Kuberten (Fransiya; 1896-1916 va 1919-1925), baron Godfrua de Blone (Shveysariya; 1916-1919; v.b.), graf Anri de Baye-Latur (Belgiya; 1925-1942), Zigfrid Edstryom (Shveysiya; v.b.; 1942-1946; 1946-1952), Everi Brendej (AQSh; 1952-1972), lord Maykl Morris (Irlandiya; 1972-1980), markiz Xuan Antonio Samaranch (Ispaniya; 1980-2001), graf Jak Rogge (Belgiya; 2001-2013), Tomas Bax (Germaniya; 2013 yildan) lari tahsinga sazovardir.

Jahon sport musobaqalarini tashkil etish osonlikcha kechmadi, olib borilgan mashaqqatli izlanishlar, davlatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, o'zaro bir-birlari o'rtasidagi siyosiy jarayonlardagi ziddiyatlarni hal etish tufayli, siyosiy hukmron kuchlarni sportga va uning musobaqalarni tashkil qilishdan manfaat topishi mumkinligiga ishonitirish natijasida shakllantirildi. Bu masalani amalga oshirishda tashabuskor, tashkilotchi insonlarning tinimsiz mehnatlari, sport musobaqalari uchun zarur mablag'larni topish, uni sport natijalariga yo'naltirish sohasidagi zahmatli ishlarni ijodiy harakatlari tufayli 1896 yil 6-15 aprel Afina (Gresiya)da I yozgi Olimpiada o'yinlari o'tkazildi. Zamonaviy olimpiya harakatining asoschisi, fransiyalik jamoat arbobi Per de Kuberten tomonidan Olimpiada o'yinlari qayta tiklandi.

Jahon sportning ommalashib borishi albatta yangi qonunlarni, qoidalarini yaratilishiga asos bo'ldi. Har bir o'tkazilgan sport musobaqalari o'zining kamchiliklari, muammolari hamda amalga oshirilishi zarur bo'lgan turlari bilan yangi bo'ladigan

musobaqalarga imkoniyat yaratib berdi. Jahon Olimpiadasi yangi sportchilarni, sportning yangi turlariga asos solgani kabi, yangi sportga ishqiboz davlatlarni kashf etib bordi. Natijada Jahon Olimpiadasini o'tkazish bo'yicha raqobatlar paydo bo'lib, undan manfaat ko'radigan davlatlar o'z mavqelarni oshirish uchun sportga e'tibor qaratdilar. Shu tufayli tarixiy manbalarga izoh beradigan bo'lsak, qo'yidagi davlatlar bunga sazovor bo'ldilar.

Jumladan, *Yozgi Olimpiada o'yinlari*: I – 1896 (Afina), II – 1900 (Parij), III – 1904 (Sent-Luis; AQSh), IV – 1908 (London), V – 1912 (Stokgolm), VII – 1920 (Antverpen; Belgiya), VIII – 1924 (Parij), IX – 1928 (Amsterdam), X – 1932 (Los-Anjeles; AQSh), XI – 1936 (Berlin), XIV – 1948 (London), XV – 1952 (Xelsinki), XVI – 1956 (Melburn; Avstraliya), XVII – 1960 (Rim), XVIII – 1964 (Tokio), XIX – 1968 (Mexiko), XX – 1972 (Myunxen; GFR), XXI – 1976 (Monreal; Kanada), XXII – 1980 (Moskva), XXIII – 1984 (Los-Anjeles; AQSh), XXIV – 1988 (Seul), XXV – 1992 (Barselona), XXVI – 1996 (Atlanta; AQSh), XXVII – 2000 (Sidney), XXVIII – 2004 (Afina), XXIX – 2008 (Pekin); XXX – 2012 (London); XXXI – 2016 (Rio-de Janeyro) shaharlarida bo'lib o'tdi.

Chunonchi, Olimpiyalarda futbol bo'yicha Olimpiya g'oliblari: 1900, Parij (mezbon) – Buyuk Britaniya (champion); III. 1904, Sent-Luis - Kanada; IV. 1908, London-Buyuk Britaniya; V. 1912, Stokgolm - Buyuk Britaniya; VII. 1920, Antverpen - Belgiya; VIII. 1924, Parij - Urugvay; IX. 28, Amsterdam - Urugvay; XI. 1936, Berlin - Italiya; XIV. 1948, London - Shvesiya; XV. 1952, Xelsinki - Vengriya; XVI. 1956, Melburn - SSSR; /II. 1960, Rim-Yugoslaviya; XVIII. 1964, Tokio-Vengriya; XIX. 1968, Mexiko - Vengriya; XX. 1972, Myunxen - Polsha; XXI. 1976, Monreal - GDR; Sh. 1980, Moskva - Chexoslovakiya; XXIII. 1984, Los-Anjeles - Fransiya; XXIV. 1988, Seul - SSSR; XXV. 1992, Barselona - Ispaniya; XXVI. 96, Atlanta - Nigeriya; XXVII. 2000, Sidney - Kamerun; XXVIII. 2004,) Afina - Argentina; XXIX. 2008, Pekin - Argentina; XXX. 2012, London - Meksika; XXXI. 2016 yil, Rio-de Janeyro.

2.5. Futbol millionlar nigohida

Jahon sportining millionlarcha ishqibozlariga ega bo'lgan futbol bugungi kunda dunyoning hamma mintaqalarni egalladi. Futbol sport turi qadimiy bo'lib, uning mashhurligi shundaki, futbol jangovar harakatlar usulida shakllanib, jismoniy baquvvatlik, tez ilg'ash, harakat tezligini muntazam to'xtovsiz davom ettirish, raqibga yuzma-yuz borish, uni ixtiyoridagi narsani qupollik qilmasdan, raqibga tan jarohati yetkazmasdan, harakat tezligini pasaytirmasdan undan tortib olish o'yinidir. O'z navbatida, ixtiyoridagi narsani oyoq orqali mo'ljalga olib, nishonga puxta zarb berish orqali egallash, uzoq masofani bir joydan turib raqibni mag'lubiyatga uchratish yoki yaqin masofada turib raqibni lol qoldirib g'alabani ta'minlash. Futbol turlari qadimiy O'rta Osiyoda ilk bor shakllangan sport turlaridan biri bo'lib, dastlab, qo'l bilan uloqtiriladigan mol terisidan tayyorlangan, dumaloq shakldagi jismoniy kuchni sinab ko'rish maqsadida tayyorlangan buyum bo'lgan. Keyinchalik ot vositasida sport turi sifatida ko'pkari usulida uloq o'yinlari musobaqalarida ishlatish uchun tayyor holga keltirilgan charmdan iborat dumaloq jism bilan o'ynaladigan sport turi paydo bo'ldi. Ot ustida qo'lda maxsus tayoq olinib, to'p o'sha tayoq vositasida harakatga

keltirilgan. Keyinchalik ilk o'rta asrlarda to'p o'yin usuli oyoq vositasi orqali amalga oshiriladigan bo'ldi.

O'rta Osiyoga islomning kirib kelishi natijasida futbol turi man etildi. Faqatgina 1920 yildan boshlab O'zbekistonda futbol yana o'z mavqeini tikladi. 1950 yillardan boshlab mamlakatimizda futbol musobaqalari sport turi sifatida ommalashib bordi. Jahon mamlakatlari futbolni millionlar o'yiniga aylantirish uchun butun chora-tadbirlarni ishga solib, uni "sport qiroli" darajasiga ko'tardi. Natijada futbol o'yinchilarni tayyorlash davlat darajasidagi asosiy siyosatga aylandi. Millionlab yoshlar futbol qiroli bo'lish orzusi bilan o'zining butun kuch-g'ayratini sarflashga o'tdi. Futbol davlatlar, ya'ni millatlar taqdirini hal qiluvchi vositaga aylanib, jahon mamlakatlari yangi futbol yulduzlarini kashf etib, futbol sport maktablariga asos solindi. Dunyoda mashhur Angliya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya futbol sport maktablari bilan raqobatlashadigan Braziliya, Argentina, Yaponiya, Koreya, Eron, Rossiya, Turkiya futbol sport maktablari shakllandi va raqobatga chiqdi. Futbol raqobat, chinakam raqiblar sport o'yiniga aylandi.

Futbol tarixini o'rganib chiqadigan bo'lsak, shunga amin bo'lamizki, o'tkazilgan har bir futbol musobaqasi cheksiz yangi futbol qonun-qoidalarining paydo bo'lishiga shart-sharoit yaratib bermoqda. Futbol musobaqalari qo'yidagi mamlakatlarda o'zini namoyon qildi. Jumladan, 1900 yil 14 may-28 oktyabr – Parij (Fransiya)da o'tkazilgan II yozgi Olimpiada o'yinlarida futbol olimpiya sport turlari qatoridan joy oldi.

Jahon futbolini ommalashtirish maqsadida futbol o'yinlariga oid yangi qonun-qoidalar yaratildi. Dunyo futboli yangi shaharlarni, mamlakatlarni, futbol o'yinchilarni ixtiro qildi. Futbol jamoalari musobaqalarda sinovlarda o'tib, yangi o'yin strategiyasini ishlab chiqdi. Futbol ternerlari o'z ma'suliyatlarni cheksiz oshirish uslubiyotini yaratdi. Natijada 1951 yil - Osiyo o'yinlari sport musobaqasi ilk marta Yangi Dexli (Hindiston)da o'tkazildi. U har 4 yilda bir marta o'tkaziladi. Osiyo o'yinlari o'tkazilgan shahar (mamlakat)lar va unda futboldan chiqqan milliy jamoalar:

1. 1951. Yangi Dehli (Hindiston) [mezbon] - (Hindiston) [g'olib].

2. Manila (Filippin) - Xitoy.

3. 1958. Tokio (Yaponiya) - Xitoy.

4. Jakarta (Indoneziya) - Hindiston.

5. 1966. Bangkok (Tailand) – Iroq.

6. 1970. Bangkok (Tailand) - Janubiy Koreya.

7. 1974. Tehron (Eron) – Hindiston.

8. 1978. Bangkok (Tailand) - Janubiy Koreya.

9. 1982. Yangi Dexdiston) - Iroq.

10. 1986. Seul (Janubiy Koreya) - Janubiy Koreya.

11. Pekin (Xitoy) - Eron.

12. 1994. Xirosima (Yaponiya) - O'zbekistan.

13. Bangkok (Tailand) - Eron.

14. 2002. Pusan (Janubiy Koreya) – Polestin

15. 2006. Doha (Qatar) - Qatar.

16. 2010. Guanchjou (Xitoy) – Yaponiya

17. 2014. Inchxon (Janubiy Koreya) - Janubiy Koreya.

18. 2019. Xanoy-Pekin

Futbol o'yinlari jahon miqyosini egallab borishi tufayli, yangi futbol uyushmalari, tashkilotlari shakllanib, futbolning nufuzi yanada oshib bordi. Xalqaro futbol o'yinlarni tashkil qilish va nazoratga olish bo'yicha Osiyo qit'asida o'yinlarni yangi talablar asosida tashkil qilish maqsadida 1954 yil 8 may Osiyo Futbol Konfederatsiyasi (OFK) tashkil kilindi. Qarorgohi Malayziya poytaxti Kuala-Lumpurda joylashgan. OFK tarkibiga Osiyo qit'asidan 46 davlat va Avstraliya a'zo. Konfederatsiya geografik va etnomadaniy jihatdan 5 mintaqaga bo'linadi. Ushbu tashkilotga O'zbekiston 1992 yilda OFKga a'zo bo'ldi hamda Markaziy Osiyo mintakasi tarkibiga kirdi. Rasmiy tillari – ingliz, arab, xitoy, koreys, rus, fors, yapon. OFK futbol bo'yicha har to'rt yilda Osiyo chempionatini hamda klublar o'rtasida har yili Osiyo chempionlari ligasi, OFK kubogi, OFK prezidenta kubogi (2005 - 2014) musobaqalarini o'tkazalib kelmoqda.

Jahon futbolini shuhrat topishi albatta uning shakl va mazmunini tashkil etuvchi qonun-qoidalarga amal qiluvchi o'yinchilarga bog'liqdir. Futbol qiroli bo'lish esa har bir yosh yigitning orzu umidiga aylanib bordi. Albatta, har bir o'yinchi o'zining tug'ma qobiliyat, jismoniy tayyorgarligi, mashg'ulotlarda tinimsiz shug'ullanishi, o'z zimmasiga og'ir mashqlarni bajarishni olgandagina orzusiga erishish mumkinligini seza oladi. Yillar davomida olib borilgan og'ir, mashqatli sinovlar tufayli o'yinchi bosqichma-bosqich pillapoyalardan o'tib, o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari intilib boradi. Eng muhimi, har qanday orzu ham futbolda omad keltirmaydi. Chunki mashqlar jarayonidagi sinovlarga bardosh bera olmaslik yoki mashqlarda jismoniy jihatdan zaiflik bunga to'siqinlik qiladi. Shuningdek, raqiblarni zarbalari, yiqilish vaqtidagi badanga shikast yetishi, raqibning qo'polligi har qanday futbolchini orzusini yo'qqa chiqarib qo'yishi tabiiy hol hisoblanadi. Shuning uchun ham futbol qiroli bo'lish o'yinchidan katta aqlni, tafakkurni charxlashni, har qanday vaziyatga tayyor turishni talab etadi. Eng muhimi, futbolchi psixologik jihatdan tayyor, aqliy jihatdan mukammal bilimga ega bo'lishi talab etiladi. Tarixiy manbalarga e'tibor berilsa, jahon futbolini millionlar o'yinga aylanishiga munosib hissa qo'shgan qo'yidagi futbolchilarning nomi tarixda futbol qiroli sifatida muhrlangan. Jahon futbolida Osiyoning eng yaxshi futbolchilari: **Ahmad Radxi** (Iroq, 1988), **Kim Ju Son** (Koreya Respublikasi, 1989), **Kim Ju Son** (Koreya Respublikasi, 1990), **Kim Ju Son** (Koreya Respublikasi, 1991), **Kadzuyosi Miura** (Yaponiya, 1993), **Said al-Ovayran** (Saudiya Arabistoni, 1994), **Masami Ixara** (Yaponiya, 1995), **Xodadad Aziziy** (Eron, 1996), **Xidetosi Nakata** (Yaponiya, 1997), **Xidetosi Nakata** (Yaponiya, 1998), **Ali Daei** (Eron, 1999), **Navaf al-Temyat** (Saudiya Arabistoni, 2000), **Fan Chjii** (Xitoy, 2001), **Sindzi Ono** (Yaponiya, 2002), **Mexdi Maxdavikiya** (Eron, 2003), **Ali Karimiy** (Eron, 2004), **Xamad al-Muntashari** (Saudiya Arabistoni, 2005), **Xalfan Ibrohim** (Qatar, 2006), **Yassir al-Qaxtoniy** (Saudiya Arabistoni, 2007), **Server Jeparov** (O'zbekiston, 2008), **Yasuxito Endo** (Yaponiya, 2009), **Sasha Ognenovski** (Avstraliya, 2010), **Server Jeparov** (O'zbekiston, 2011), **Li Keyun Xo** (Janubiy Koreya, 2012), **Chjen Chji** (Xitoy, 2013)lar shular jumlasidandir.

Osiyo Futbol Konfederatsiyasi prezidenti **Shayx Salmon bin Ibrohim al-Xalifaning** tashabbusi bilan 1954 yil 15 iyun Yevropa futbol assotsiatsiyalari ittifoqi (UEFA) Bazel (Shveysariya)da tashkil qilindi. U FIFA tarkibiga kiradigan 6 qit'a

konfederatsiyalaridan biri hisoblanadi. Tashkilotga Yevropa va G'arbiy Osiyodan 54 milliy assotsiatsiya a'zo bo'ldi. Qarorgohi Non (Shveysariya) shahrida joylashib, rasmiy tillari – ingliz, nemis, fransuzlar hisoblanadi. UEFA futbol bo'yicha Yevropa chempionatini (1960 yildan), klublar o'rtasida UEFA Chempionlar ligasining dastlabki uchrashuvi va musobaqalari tashkil etildi, UEFA Yevropa ligasi va UEFA superkubogini o'tkazalib qit'alar musobaqasi yangi futbol o'yinchilarni yulduzlarni kashf eta boshladi. Biroq Kubok egalari kubogi 1960-1999 yillarda, Intertoto kubogi esa 1995-2007 yillarda turnirlari futbol musobaqalarini tashkil etib, kuboklar va yangi-yangi futbol qirollari dunyoga tanildi. 2007 yildan boshlab kuboglar o'tkazish to'xtatildi.

Jahon futbolining shon-shuhrati o'zining eng yuqori nufuzini UEFA kubogi atrofida mustahkamlab, jahonni larzaga keltiradigan futbol jamoalarni paydo bo'lishiga imkoniyat yaratib bera boshladi. UEFA Prezidentlari **Ebbe Shvars** (Daniya, 1954-1962), **Gustav Viderker** (Shveysariya, 1962-1972), **Artemio Franki** (Italiya, 1972-1983), **Jak Jorj** (Fransiya, 1983-1990), **Lennart Yuxansson** (Shveysiya, 1990-2007), **Mishel Platini** (Fransiya, 2007-2015), **Anxel Mariya Vilyar** (2015-2016), **Aleksandr Geferin** (2016 dan) lar bu futbol kubogini rivoj topishiga mukammal rahbarlik qilib keldilar.

UEFA Bosh kotiblari bo'lib ishlagan **Anri Delone** (1954-1955), **Per Delone** (1955-1960), **Xans Bangerter** (1960-1989), **Gerxard Aygner** (1989-2003), **Lars-Krister Olsson** (2003-2007), **Devid Teylor** (2007-2009), **Janni Infantino** (2009 yil 1 oktyabrdan) yangi musobaqalarni tashkil etish va o'tkazishda alohida namuna ko'rsatdilar. UEFA zaminda olib borilgan izlanishlar, yangi zamonaviy futbol o'yinlarni namoyish qiladigan futbol yulduzlarini aniqlash, futbol ixlosmandlariga o'ta shiddatli o'yinlarni namoyish etish maqsadida 1955 yil yanvar oyida Yevropadagi futbol klublari o'rtasida UEFA chempionlari kubogini yanda nufuzini oshirish uchun 1992-1993 yillardan UEFA Chempionlari ligasiga asos solindi.

Shu maqsadda tashkil etilgan 1956 yil may oyida Parij shahrida o'tkazilgan futbol bo'yicha Yevropa chempionlari kubogi dastlabki finalida Ispaniyaning «Real Madrid» klubi g'olib chiqdi. Hozirgacha bu musobaqada «Real Madrid» 10 marta, «Milan» 7 marta, «Bavariya», «Liverpul», «Barselona» 5 martadan, «Ayaks» 4 marta g'olib chiqishdi.

UEFA Chempionlar ligasi g'oliblari va finalchilaridan qo'yidagilarni futbol ixlosmandlariga taqdim etamiz: 1955-1956 - «Real Madrid» (Ispaniya) - «Reyms» (Fransiya) - 4:3; 1956-1957 - «Real Madrid» (Ispaniya) - «Fiorentina» (Italiya) - 2:0; 1957-1958 - «Real Madrid» (Ispaniya) - «Milan» (Italiya) - 3:2; 1958-1959 - «Real Madrid» (Ispaniya) - «Reyms» (Fransiya) - 2:0; 1959-1960 - «Real Madrid» (Ispaniya) - «Ayntraxt F» (Germaniya) - 7:3; 1960-1961 - «Benfika» (Portugaliya) - «Barselona» (Ispaniya) - 3:2; 1961-1962 - «Benfika» (Portugaliya) - «Real Madrid» (Ispaniya) - 5:3; 1962-1963 - «Milan» (Italiya) - «Benfika» (Portugaliya) - 2:1; 1963-1964 - «Inter» (Italiya) - «Real Madrid» (Ispaniya) - 3:1; 1964-1965 - «Intern» (Italiya) - «Benfika» (Portugaliya) - 1:0; 1965-1966 - «Real Madrid» (Ispaniya) - «Partizan» (Yugoslaviya) - 2:1; 1966-1967 - «Seltik» (Shotlandiya) - «Inter» (Italiya) - 2:1; 1967-1968 - «Manchester Yunayted» (Angliya) - «Benfika» (Portugaliya) - 4:1; 1968-1969 -

«Milan» (Italiya) - «Ayaks» (Gollandiya) - 4:1; 1969-1970 - «Feyenoord» (Gollandiya) - «Seltik» (Shotlandiya) - 2:1; 1970-1971 - «Ayaks» (Gollandiya) - «Panatinaikos» (Gresiya) - 2:0; 1971-1972 - «Ayaks» (Gollandiya) - «Inter» (Italiya) - 2:0; 1972-1973 - «Ayaks» (Gollandiya) - «Yuventus» (Italiya) - 1:0; 1973-1974 - «Bavariya» (Germaniya) - «Atletiko» (Ispaniya) - 1:1, 4:0; 1974-1975 - «Bavariya» (Germaniya) - «Lids» (Angliya) - 2:0; 1975-1976 - «Bavariya» (Germaniya) - «Sent-Etenn» (Fransiya) - 1:0; 1976-1977 - «Liverpul» (Angliya) - «Borussiya M» (Germaniya) - 3:1; 1977-1978 - «Liverpul» (Angliya) - «Bryugge» (Belgiya) - 1:0; 1978-1979 - «Nottingham Forest» (Angliya) - «Malmyo» (Shvesiya) - 1:0; 1979-1980 - «Nottingham Forest» (Angliya) - «Gamburg» (Germaniya) - 1:0; 1980-1981 - «Liverpul» (Angliya) - «Real» (Ispaniya) - 1:0; 1981-1982 - «Aston Villa» (Angliya) - «Bavariya» (Germaniya) - 1:0; 1982-1983 - «Gamburg» (Germaniya) - «Yuventus» (Italiya) - 1:0; 1983-1984 - «Liverpul» (Angliya) - «Roma» (Italiya) - 1:1 (pen.b. - 5:3); 1984-1985 - «Yuventus» (Italiya) - «Liverpul» (Angliya) - 1:0; 1985-1986 - «Styaua» (Ruminiya) - «Barselona» (Ispaniya) - 0:0 (pen.b. - 2:0); 1986-1987 - «Portu» (Portugaliya) - «Bavariya» (Germaniya) - 2:1; 1987-1988 - «PSV» (Gollandiya) - «Benfika» (Portugaliya) - 0:0 (pen.b. - 6:5); 1988-1989 - «Milan» (Italiya) - «Styaua» (Ruminiya) - 4:0; 1989-1990 - «Milan» (Italiya) - «Benfika» (Portugaliya) - 1:0; 1990-1991 - «Svena Zvezda» (Yugoslaviya) - «Marsel» (Fransiya) - 0:0 (pen.b. - 5:4); 1991-1992 - «Barselona» (Ispaniya) - «Sampdoriya» (Italiya) - 1:0; 1992-1993 - «Marsel» (Fransiya) - «Milan» (Italiya) - 1:0; 1993-1994 - «Milan» (Italiya) - «Barselona» (Ispaniya) - 4:0; 1994-1995 - «Ayaks» (Gollandiya) - «Milan» (Italiya) - 1:0; 1995-1996 - «Yuventus» (Italiya) - «Ayaks» (Gollandiya) - 1:1 (pen.b. - 5:3); 1996-1997 - «Borussiya Dortmund» (Germaniya) - «Yuventus» (Italiya) - 3:1; 1997-1998 - «Real Madrid» (Ispaniya) - «Yuventus» (Italiya) - 1:0; 1998-1999 - «Manchester Yunayted» (Angliya) - «Bavariya» (Germaniya) - 2:1; 1999-2000 - «Real Madrid» (Ispaniya) - «Valensiya» (Ispaniya) - 3:0; 2000-2001 - «Bavariya» (Germaniya) - «Valensiya» (Ispaniya) - 1:1 (pen.b. - 5:4); 2001-2002 - «Real Madrid» (Ispaniya) - «Bayer L» (Germaniya) - 2:1; 2002-2003 - «Milan» (Italiya) - «Yuventus» (Italiya) - 0:0 (pen.b. - 3:2); 2003-2004 - «Portu» (Portugaliya) - «Monako» (Fransiya) - 3:0; 2004-2005 - «Liverpul» (Angliya) - «Milan» (Italiya) - 3:3 (pen.b. - 3:2); 2005-2006 - «Barselona» (Ispaniya) - «Arsenal» (Angliya) - 2:1; 2006-2007 - «Milan» (Italiya) - «Liverpul» (Angliya) - 2:1; 2007-2008 - «Manchester Yunayted» (Angliya) - «Chelsi» (Angliya) - 1:1 (pen.b. - 6:5); 2008-2009 - «Barselona» (Ispaniya) - «Manchester Yunayted» (Angliya) - 2:0; 2009-2010 - «Inter» (Italiya) - «Bavariya» (Germaniya) - 2:0; 2010-2011 - «Barselona» (Ispaniya) - «Manchester Yunayted» (Angliya) - 3:1; 2011-2012 - «Chelsi» (Angliya) - «Bavariya» (Germaniya) - 1:1 (pen.b. - 4:3); 2012-2013 - «Bavariya» (Germaniya) - «Borussiya D» (Germaniya) - 2:1; 2013-2014 - «Real Madrid» (Ispaniya) - «Atletiko» (Ispaniya) - 4:1; 2014-2015 - «Barselona» (Ispaniya) - «Yuventus» (Italiya) - 3:1; 2015-2016 - «Real Madrid» (Ispaniya) g'olib, 2016-2017 «Real Madrid» (Ispaniya) g'olib, 2017-2018 «Real Madrid» (Ispaniya) g'olib, 2018-2019 «Liverpul» (Angliya) g'olib bo'lishgan.

Yevropaning eng yaxshi futbolchisiga berilgan Oltin tup unvoni sohiblari (Parijda chiqadigan «France Football» gazetasi talqini bo'yicha): 1956, Stenli Metyuz («Blekpul»; Angliya); 1957, Alfredo di Stefano («Real Madrid»; Ispaniya); 1958, Raymon Kopa («Real Madrid»; Fransiya); 1959, Alfredo di Stefano («Real Madrid»; Ispaniya); 1960, Luis Suares («Barselona»; Ispaniya); 1961, Omar Sivori («Yuventus»; Italiya); 1962, Yozef Masopust («Dukla»; Chexoslovakiya); 1963, Lev Yashin («Dinamo» (Moskva); SSSR); 1964, Denis Lou («Manchester Yunayted»; Shotlandiya); 1965, Eysebio («Benfika»; Portugaliya); 1966, Bobbi Charlton

(«Manchester Yunayted»; Angliya); 1967, Florian Albert («Ferens-varosh»; Vengriya); 1968, Jorj Best («Manchester Yunayted»; Shimoliy Irlandiya); 1969, Janni Rivera («Milan»; Italiya); 1970, Gerd Myuller («Bavariya» (Myunxen); GFR); 1971, Yoxan Kroyf («Ayaks»; Niderlandiya); 1972, Frans Bekkenbauer («Bavariya» (Myunxen); FRG); 1973, Yoxan Kroyf («Ayaks», «Barselona»; Niderlandiya); 1974, Yoxan Kroyf («Barselona»; Niderlandiya); 1975, Oleg Bloxin («Dinamo» (Kiev); SSSR); 1976, Frans Bekkenbauer («Bavariya» (Myunxen); GFR); 1977, Allan Simonsen («Borussiya» (Myonxengladbax); Daniya); 1978, Kevin Kigan («Gamburg»; Angliya); 1979, Kevin Kigan («Gamburg»; Angliya); 1980, Karl-Xayns Rummenigge («Bavariya» (Myunxen); GFR); 1981, Karl-Xayns Rummenigge («Bavariya» (Myunxen); GFR); 1982, Paolo Rossi («Yuventus»; Italiya); 1983, Mishel Platini («Yuventus»; Fransiya); 1984, Mishel Platini («Yuventus»; Fransiya); 1985, Mishel Platini («Yuventus»; Fransiya); 1986, Igor Belanov («Dinamo» (Kiev); SSSR); 1987, Ruud Gullit («PSV», «Milan»; Niderlandiya); 1988, Marko van Basten («Milan»; Niderlandiya); 1989, Marko van Basten («Milan»; Niderlandiya); 1990, Lotar Matteus («In-ter» (Milan); Germaniya); 1991, Jan-Per Papen («Olimpik» (Marsel); Fransiya); 1992, Marko van Basten («Milan»; Niderlandiya); 1993, Roberto Badjo («Yuventus»; Italiya); 1994, Xristo Stoichkov («Barselona»; Bolgariya); 1995, Jorj Vea («PSJ», «Milan»; Liberiya); 1996, Mattias Zammer («Borussiya» (Dortmund); Germaniya); 1997, Ronaldo («Barselona», «Internatsionale»; Braziliya); 1998, Zinedin Zidan («Yuventus»; Fransiya); 1999, Rivaldo («Barselona»; Braziliya); 2000, Luish Figu («Barselona»/«Real Madrid»; Portugaliya); 2001, Maykl Ouen («Liverpul»; Angliya); 2002, Ronaldo («Inter» (Milan)/«Real Madrid»; Braziliya); 2003, Pavel Nedved («Yuventus»/«Real Madrid»; Chexiya); 2004, Andrey Shevchenko («Milan»; Ukraina); 2005, Ronaldino («Barselona»; Braziliya); 2006, Fabio Kan-navaro («Yuventus»/«Real Madrid»; Italiya); 2007, Kaka («Milan»; Braziliya); 2008, Krishtianu Ronaldu («Manchester Yunayted»; Portugaliya); 2009, Lionel Messi («Barselona»; Argentina); 2010, Lionel Messi («Barselona»; Argentina); 2011, Lionel Messi («Barselona»; Argentina); 2012, Lionel Messi («Barselona»; Argentina); 2013, Krishtianu Ronaldu («Real Madrid»); 2014, Krishtianu Ronaldu («Real Madrid»); 2015, Lionel Messi («Barselona»; Argentina); 2016, Krishtianu Ronaldu («Real Madrid»); 2017, Krishtianu Ronaldu («Real Madrid»); 2018, Luka Modrich («Real Madrid»); 2019, Virdjil Van Deyk (Niderlands).

Jahonning eng yaxshi futbolchisiga berilgan Brilliant to'p unvoni sohiblari: 1956, Stenli Mettyuz («Blekpul»; Angliya); 1957, Alfredo di Stefano («Real Madrid»; Ispaniya); 1958, Raymon Kopa («Real Madrid»; Fransiya); 1959, Alfredo di Stefano («Real Madrid»; Ispaniya); 1960, Luis Suares («Barselona»; Ispaniya); 1961, Omar Sivori («Yuventus»; Italiya); 1962, Yozef Masopust («Dukla»; Chexoslovakiya); 1963, Lev Yashin («Dinamo» (Moskva); SSSR); 1964, Denis Lou («Manchester Yunayted»; Shotlandiya); 1965, Eysebio Di Silva Farreyra («Benfika»; Portugaliya); 1966, Bobbi Charlton («Manchester Yunayted»; Angliya); 1967, Florian Albert («Ferensvarosh»; Vengriya); 1968, Jorj Best («Manchester Yunayted»; Shimoliy Irlandiya); 1969, Janni Rivera («Milan»; Italiya); 1970, Gerd Myuller («Bavariya» (Myunxen); GFR); 1971, Yoxan Kruiff («Ayaks»; Niderlandiya); 1972, Frans

Bekkenbauer («Bavariya» (Myunxen); GFR); 1973, Yoxan Kruiff («Ayaks»/«Barselona»; Niderlandiya); 1974, Yoxan Kruiff («Barselona»; Niderlandiya); 1975, Oleg Bloxin («Dinamo» (Kiev); SSSR); 1976, Frans Bekkenbauer («Bavariya» (Myunxen); GFR); 1977, Allan Simonsen («Borussiya» (Myonxengladbax); Daniya); 1978, Kevin Kigan («Gamburg»; Angliya); 1979, Kevin Kigan («Gamburg»; Angliya); 1980, Karl-Xayns Rummenigge («Bavariya» (Myunxen); GFR); 1981, Karl-Xayns Rummenigge («Bavariya» (Myunxen); GFR); 1982, Paolo Rossi («Yuventus»; Italiya); 1983, Mishel Platini («Yuventus»; Fransiya); 1984, Mishel Platini («Yuventus»; Fransiya); 1985, Mishel Platini («Yuventus»; Fransiya); 1986, Igor Belanov («Dinamo» (Kiev); SSSR); 1987, Ruud Gullit («PSV»/«Milan»; Niderlandiya); 1988, Marko van Basten («Milan»; Niderlandiya); 1989, Marko van Basten («Milan»; Niderlandiya); 1990, Lotar Matteus («Inter» (Milan); Germaniya); 1991, Lotar Matteus («Inter» (Milan); Germaniya); 1992, Marko van Basten («Milan»; Niderlandiya); 1993, Roberto Badjo («Yuventus»; Italiya); 1994, Romario («Barselona»; Braziliya); 1995, Jorj Vea («Milan»; Liberiya); 1996, Ronaldo («Barselona»; Braziliya); 1997, Ronaldo («Barselona»/«Inter» (Milan); Braziliya); 1998, Zinedin Zidan («Yuventus»; Fransiya); 1999, Rivaldo («Barselona»; Braziliya); 2000, Zinedin Zidan («Yuventus»; Fransiya); 2001, Luish Figu («Real Madrid»; Portugaliya); 2002, Ronaldo («Inter» (Milan)/«Real Madrid»; Braziliya); 2003, Zinedin Zidan («Real Madrid»; Fransiya); 2004, Ronaldino («Barselona»; Braziliya); 2005, Ronaldino («Barselona»; Braziliya).

2006 yildan bu sovrinni berish to'xtatildi. 2010 yildan boshlab Oltin to'p va Brilliant to'p unvonlari birlashtirilib, u FIFA Oltin to'pi unvoniga aylantirildi.)

FIFA Oltin to'p sohiblari: 2010, Lionel Messi («Barselona»; Argentina); 2011, Lionel Messi («Barselona»; Argentina); 2012, Lionel Messi («Barselona»; Argentina); 2013, Krishtianu Ronaldu («Real Madrid»; Portugaliya); 2014, Krishtianu Ronaldu («Real Madrid»; Portugaliya); 2015, Lionel Messi («Barselona»; Argentina); 2016, Krishtianu Ronaldu («Real Madrid»; Portugaliya); 2017, Krishtianu Ronaldu («Real Madrid»; Portugaliya); 2018, Luka Modrich («Real Madrid»); 2019, Lionel Messi («Barselona»; Argentina).

UEFA tarkibiga kiruvchi mamlakatlardagi milliy chempionatlarning eng yaxshi to'purarlariga berilgan Oltin butsa sohiblari: 1968, Eysebio - 42 ta gol («Benfika»); 1969, P.Jekov - 36 ta gol («SSKA», Sofiya); 1970, G.Myuller - 38 ta gol («Bavariya»); 1971, I.Skoblar - 44 ta gol («Marsel»); 1972, G.Myuller - 40 ta gol («Bavariya»); 1973, Eysebio - 40 ta gol («Benfika»); 1974, Elzalde - 46 ta gol («Sporting»); 1975, D.Jorjesku - 33 ta gol («Dinamo Buxarest»); 1976, S.Kaifas - 39 ta gol («Omoniya»); 1977, D.Jorjesku - 47 ta gol («Dinamo Buxarest»); 1978, I.Krankl - 41 ta gol («Rapid»); 1979, K.Kist - 34 ta gol («AZ-67»); 1980, E.Vandenberg - 39 ta gol («Lers»); 1981, G.Slavkov — 31 ta gol («Trakiya»); 1982, V.Kift - 32 ta gol («Ayaks»); 1983, F.Gomesh - 32 ta gol («Portu»); 1984, Ian Rash - 32 ta gol («Liverpul»); 1985, F.Gomesh - 39 ta gol («Portu»); 1986, Marko van Basten - 37 ta gol («Ayaks»); 1987, R.Kemetaru - 44 ta gol («Dinamo Buxarest»); T.Polster - 39 ta gol («Austriya»); 1988, T.Cholak - 39 ta gol («Gala-tasaroy»); 1989, D.Mateus - 43 ta gol («Dinamo Buxarest»); 1990, X.Stoichkov - 38 ta gol («SSKA», Sofiya) va

U.Sanches - 38 ta gol («Real Madrid»); 1991, D.Panchev - 34 ta gol («Srvana Zvezda»); 1992 - 1996 yillarda sovrin o'z egalariga topshirilmagan; 1997, Ronaldo - 34 ta gol («Barselona»); 1998, N.Maxlas - 34 ta gol («Vitess»); 1999, MJardel - 36 ta gol («Portu»); 2000, K.Fillips - 30 ta gol («Sanderlend»); 2001, X.Larsson - 35 ta gol («Seltik»); 2002, MJardel - 42 ta gol («Sporting»); 2003, R.Ma- kaay - 29 ta gol («La Korunya»); 2004, T.Anri - 30 ta gol («Arsenal»); 2005, T.Anri - 25 ta gol («Arsenal»); D.Forlan - 25 ta gol («Vilyarreal»); 2006, L.Toni-31 ta gol («Fiorentina»); 2007, F. Tori'i -26 ta gol («Roma»); 2008, K.Ronaldu - 31 ta gol («Manchester Yunayted»); 2009, D.Forlan - 32 ta gol («Atletiko»); 2010, L.Messi - 34 ta gol («Barselona»); 2011, K.Ronaldu - 40 ta gol («Real Madrid»); 2012, L.Messi-50 ta gol («Barselona»); 2013, L.Messi - 46 ta gol («Barselona»); 2014, K.Ronaldu - 31 ta gol («Real Madrid») va L.Suares - 31 ta gol («Liverpul»); 2015, K.Ronaldu - 48 ta gol («Real Madrid»), 2016, L.Suares («Barselona»); 2017, L.Messi («Barselona»); 2018, L.Messi («Barselona»); 2019, L.Messi («Barselona»). 1956 yil Gonkongda futbol bo'yicha birlinchi Osiyo chempionati o'tkazildi.

Futbol bo'yicha Osiyo chempionati o'tkazilgan mamlakatlar va Osiyo chempionlari: 1. 1956, Gonkong (mezbon) - Janubiy Koreya (champion); 2. 1960, Janubiy Koreya - Janubiy Koreya; 3. 1964, Isroil - Isroil; 4. 1968, Eron - Eron; 5. 1972, Tailand - Eron; 6. 1976, Eron - Eron; 7. 1980, Kuvayt - Kuvayt; 8. 1984, Singapur - Saudiya Arabistoni; 9. 1988, Qatar - Saudiya Arabistoni; 10. 1992, Yaponiya-Yaponiya; 11. 1996, Birlashgan Arab Amirliklari - Saudiya Arabistoni; 12. 2000, Liviya - Yaponiya; 13. 2004, Xitoy - Yaponiya; 14. 2007, Vetnam, Indoneziya, Malayziya va Tailand - Iroq; 15. 2011, Qatar - Yaponiya; 16. 2015, Avstraliya - Avstraliya; 2019, Birlashgan Arab Amirliklari -Qatar.

1957 yil Sudanda futbol bo'yicha dastlabki Afrika millatlari kubogi o'tkazildi. *Futbol bo'yicha Afrika millatlar kubogi o'tkazilgan mamlakatlar va uning g'oliblari (Afrika chempionlari):* 1. 1957, Sudan (mezbon)-Misr (champion); 2. 1959, Birlashgan Arab Respublikasi- Birlashgan Arab Respublikasi; 3. 1962, Efiopiya-Efiopiya; 4. 1963, Gana - Gana; 5. 1965, Tunis-Gana; 6. 1968, Efiopiya-Kongo Demokratik Respublikasi; 7. 1970, Sudan-Sudan; 8. 1972, Kamerun-Kongo; 9. 1974, Misr-Zoir; 10. 1976, Efiopiya-Marokash; 11. 1978, Gana-Gana; 12. 1980, Nigeriya-Nigeriya; 1982, Liviya-Gana; 14. 1984, Fil suyagi qirg'og'i-Kamerun; 15. 1986, Misr-Misr; 16. 1988, Marokko-Kamerun; 17. 1990, Jazoir-Jazoir; 18. 1992, Senegal-Kot-D'Ivuar; 19. 1994, Tunis-Nigeriya; 20. 1996, Janubiy Afrika Respublikasi-Janubiy Afrika Respublikasi; 21. 1998, Burkina-Faso-Misr; 22. 2000, Gana, Nigeriya-Kamerun; 23. 2002, Mali-Kamerun; 24. 2004, Tunis-Tunis; 25. 2006, Misr- Misr; 26. 2008, Gana-Misr; 27. 2010, Angola-Misr; 28. 2012, Gabon, Ekvatorial Gvineya-Zambiya; 28. 2013, Janubiy Afrika Respublikasi-Nigeriya; 29. 2015, Kot-D'Ivuar; 30. 2019, Aljir-Sineral.

1960 yil 6-10 iyul Parij (Fransiya)da futbol bo'yicha dastlabki turnir - Yevropa millatlar kubogi o'tkazildi (U 1968 yildan futbol bo'yicha Yevropa chempionati deb nomlandi). SSSR terma jamoasi Yevropaning dastlabki chempioni bo'ldi. Hozirgacha Germaniya va Ispaniya 3 marta, Fransiya 2 marta, SSSR, Italiya, Chexoslovakiya, Gollandiya, Daniya, Gresiya bir martadan futbol bo'yicha Yevropa chempioni

bo'lishdi.

Futbol bo'yicha Yevropa chempionatlari o'tkazilgan mamlakatlar va Yevropa chempionlari: 1. 1960, Fransiya (mezbon) - SSSR (champion); 2. 1964, Ispaniya - Ispaniya; 3. 1968, Italiya - Italiya; 4. 1972, Belgiya - GFR; 5. 1976, Yugoslaviya - Chexoslovakiya; 6. 1980, Italiya - GFR; 7. 1984, Fransiya - Fransiya; 8. 1988, GFR - Niderlandiya; 9. 1992, Shvesiya - Daniya; 10. 1996, Angliya-Germaniya; 11. 2000, Belgiya va Niderlandiya - Fransiya; 12. 2004, Portugaliya - Gresiya; 13. 2008, Avstriya va Shveysariya - Ispaniya; 2012, Polsha va Ukraina - Ispaniya; 15. 2016, Fransiya.

2.6. O'zbekiston futbolida yilning eng yaxshilari aniqlandi

2017 yil 14 dekabr kuni Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatrida futbol bo'yicha 2017 yilning "Eng yaxshilari"ni taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Toshkentning "Lokomotiv" klubi O'zbekistonning 2017 yildagi eng yaxshi jamoasi sifatida e'tirof etildi. Shuningdek, "Yilning eng yaxshi ayol futbolchisi" deb Bekobodning "Metallurg-W" jamoasi a'zosi Lyudmila Karachik, "Yilning yeng yaxshi yosh futbolchisi" sifatida "Paxtakor" vakili Igor Chikrizov, "Yilning yeng yaxshi futzalchisi" sifatida "Olmaliq" futzalchisi Konstantin Sviridov, "Yilning eng yaxshi muxlislar jamoasi" sifatida "Qo'qon - 1912", "Eng yaxshi futbol akademiyasi" "Nasaf" akademiyasi, "O'zbek futboli rivojiga hissa qo'shayotgan eng yaxshi chet ellik murabbiy" sifatida gruziyalik Shota Arveladze, "Yoshlar ligasining g'olibi sifatida "Bunyodkor" jamoalari taqdirlandilar.

Buriramda yoshlarimiz tengsiz

O'zbekiston yoshlar terma jamoasi Tailandning Buriram shahrida bo'lib o'tgan "M - 150 Sup" musobaqasi finalida Yaponiya U - 23 terma jamoasiga qarshi maydonga tushdi va penaltilar seriyasida g'oliblikni qo'lga kiritdi. Vakillarimiz, dastlab, guruhda Myanmaga qarshi uchrashuvda 2:2 hisobida durang qayd etishdi. Ikkinchi uchrashuvda esa, Vetnam terma jamoasini 2:1 hisobida mag'lubiyatga uchratishdi. Guruhda birinchi o'rinni qo'lga kiritga terma jamoamiz finilga yo'l oldi. Terma jamoa sardori Zabihillo O'rinboev final uchrashuvining yeng yaxshi o'yinchisi deb topildi. Shuningdek, u to'rtta gol bilan "M - 150 Sup" musobaqasining eng yaxshi to'purari ham bo'ldi.

Yurtimizning mard va jasur fidoyi o'g'lonlari , haqiqiy qahramonlari

Mamlakatimizda olib borilayotgan xalqchil, adolatli, inson manfaatlariga qaratilgan siyosat ko'plab sohalarida o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi. Birgina Sport misolida aytsak, o'zbek futbolida yangi davr boshlandi. Buni hayotga katta kuch bo'lib kirib kelayotgan yoshlarimiz isbotlab berishdi. Joriy yilning 9-27 yanvar kunlari Xitoyda 23 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida O'zbekiston yoshlar terma jamoasi eng yuksak natija ko'rsatib oltin medalni qo'lga kiritishdi. Erishilgan muvaffaqiyatning salmog'ini bu raqalardan bilishimiz mumkin: Osiyo hududi jihatdan ham, aholisining soni jihatdan ham Yer yuzining eng katta qit'asi chempionatida yosh futbolchilarimiz "A" guruhida Qatar, O'mmon, Xioy xalq respublikasi jamoalari bilan bellashdi. Olimpiya terma jamoamiz finalda Vetnam

futbolchilari bilan ro‘paro kelishdi. “ Qor jangi” deb atalgan ushbu uchrashuvda 2:1 hisobida Osiyo chempioni bo‘lishdi.

Baxtiyor Nomozov OFK ning maxsus sovriniga sazovor bo‘ldi. Bangkok shahrida Osiyoning yeng yaxshilarini aniqlashga bag‘ishlangan” AFK ANNUAL AWARDS 2017” marosmi bo‘lib o‘tdi. Osiyoning hakamlar uchun maxsus sovrini O‘zbekistonlik FIFA referesi, plyaj futboli hakami baxtiyor Nomozbekovga beriladigan bo‘ldi.

3-BOB. SURXONDARYO FUTBOLINING RIVOJLANISH TARIXI

3.1. Surxon futbolining tashkil topishi va yuksalishi

Surxondaryo viloyatimizda futbolning rivojlanish yo'lini sport faxrilarining hikoyalaridan, arxiv hujjatlaridan bilib olamiz. By epda, dastlab, futbolni mamlakatimizning Yevropa qismidan jo'natilgan rus kishilarining farzandlari boshlab berdilar. Termiz shahrida futbolning dastlabki tashkilotchilaridan aka-uka Lev va Valentin Novikovlar, Vartan Arutyunov, Salom Sulaymanov, Isko Geyfman va boshqalarning xizmatlari muhim ahamiyatga egadir.

Vartan Arutyunov "Spartak" jamoasi tashkil topgan kundan boshlab uning tarkibida o'ynaydi. Ikkinchi jahon urushi arafasida harbiy xizmatga chaqirildi, Vatan uchun jang qildi. So'ngra Termizga qaytib kelib, bu yerda bir muncha vaqt Sovet Armiyasi safida katta leytenant sifatida xizmatni o'tashda davom etdi. Urushdan keyingi yillarda "SKA" (sportivnyy klub armii) jamoasida o'ynadi, so'ngra o'yinlardan birida jarohat olib, futbolni tashlashga majbur bo'ldi. U bilan va unga qarshi o'ynaganlar Vartan haqida yaxshi fikrlar bildirishadi, uning yaxshi o'yin texnikasiga ega bo'lganligi hamda katta tezlikda futbol o'ynaganini eslashadi.

"Avtomobilchi" jamoasining 1977-yildagi a'zolari

№	F.I.Sh	O'ynagan o'yinlar soni	Kiritilgan to'plar soni	Sport unvoni darajasi
1	A.Afanasev	3		SMN
2	A.Yarsev	36		-
3	B.Kashkinbaev	44	4	
4	N.Saprikin	40	7	SMN
5	V.Repin	41		SMP
6	B.Petuxov	43		SMN
7	V.Jukovskiy	39		SMN
8	G.Xabaev	44	12	SMN
9	K.Gerfanov	44	5	SMN
10	R.Fayruzov	42	23	SMN
11	V.Yurin	44	13	SMN
12	F.Alyukov	37	2	S/M
13	V.Gluxov	3	2	-
14	I.Namozov	18	-	-
15	A.Kochenev	24	3	SMN
16	M.Xushbakov	8	-	SMN
17	A.Tryupin	6	-	-
18	E.Vnuchkov	5	-	-

“Surxon” futbol jamoasining 1986 yilgi a’zolari

1	Aleksandr Yarsev	1961 Darvozabon
2	Sergey Tertichnyy	1958 Ximoyachi
3	Albert Xaliulin	1958 -“--
4	Nikolay Yurin	1962 -“--”-
5	Mixail Baranov	1959 -“--”-
6	Igor Puskov	1968 -“--”-
7	Murot Xushbakov	1959 -“--”-
8	Aleksandr Yushkov	1957 -“--”-
9	Ramil Turaev	1959 ---
10	Aleksandr Maksakov	1963-“-“--
11	Sergey Zaxarenko	1959 --”-“--“--
12	Batir Kashkenbaev	1959 --”-“--“--
13	Rustam Durmanov	1969 --”-“--“--
14	Erjan Yeraliev	1960 --”-“--“--
15	Ravshan Bazarov	1968 --”-“--Xujumchi
16	Kotov Yuriy Barisovich	Jamoa boshlig’i
17	Xabaev Taymuraz Biboevich	Bosh murabbiy

“Surxon” futbol jamoasining 1991 yildagi a’zolari

1	Aleksandr Yarsev
2	Albert Xaliulin
3	Xushbakov Murat
4	Xujakulov Shuxrat
5	Igor Puskov
6	Filibchuk Yevgeniy
7	Rajabmaxmudov Rustam
8	Bazarov Baxtiyor
9	Kovalenko Sergey
10	Durmanov Asad
11	Eraliev Yerjan
12	Xoliyorov Shuxrat
13	Golub Sergey

Bosh murabbiy:
Yordamchi murabbiy

M.Salixov
K.Gerfanov

U o'sha paytda eng yaxshi himoyachi bo'lgan **Salom Sulaymonov** ni ham hurmat bilan eslashadi. Salom "Spartak" jamoasi tashkil topgan kundan urushgacha markaziy himoyachi bo'lib uynadi, u urushda qatnashib, jang qildi. Urushdan keyin Termizga qaytib kelib, 1950-yillargacha "Spartakda" uyinni davom ettirdi.

Bu uyinchi o'z o'yin texnikasi bilan ajralib turgan, u maydonda hujumni davom ettirishning shunday yo'llarini topganki, goho raqib himoyachilari nima qilarini bilmay qolishgan. Temiz shahrining yosh futbolchilari an'anaviy aka-uka Novikovlar sovrini uchun musobaqa o'tkazdilar.

3.2. Aka-uka Novikovlar kim bo'lgan?

Urushdan oldingi yillari Termizda Valentin va Lyova Novikovlarni bilmagan odam kam topilardi, deb hikoya qiladi "Pravda vostoka" ro'znomasi, bular ehtirosli sport shaydolari edi. Nafaqat sport havasmandlari, balki targ'ibotchi va tashkilotchilar ham edi. Valentin va Lyova o'z tengdoshlarini shaharda birinchi sport maydonchasi qurishga, "Spartak" futbol jamoasini tuzishga qiziqdirdilar.

Ikkinchi Jahon urushi aka-uka Novikovlarni Vatan himoyasiga chaqirdi. Ular botirlarcha jang qildilar. Klemenko Petr Vasilevich, Skrinnik Ivan, Ashtaev, Dorshevskiy, Katosonov, Garipov M.S., Dubovskiy M., Popov Viktorovlar Termiz shahrida birinchi futbolchilardan bo'lishgan.



1937 йил.



Михаил Гарипов. Сурхондарёда биринчи ўйинчилардан бири.

1930 yillarning boshida viloyatda uch-to'rt jamoa bo'lib, o'zaro bellashardi. Shahar fuqaro aholisi orasidan terma jamoa tuzilib, uning o'yinchilari yuqorida nomlari zikr etilgan kishilar edi.

Boshqa ikki jamoa "Dinamo" bilan "SKA" ham ancha qiziqish uyg'otadi. "Dinamo" chegarachilar garnizonining jamoasi edi, "SKA" esa Termiz shahrida turgan harbiy garnizon jamoasi bo'lgan. Ular Termiz shahrida 1930-yillarda tuzilgan birinchi futbol jamoalari edi.

"Dinamo" jamoasi ancha kuchli bo'lib, shaharda unga teng raqib topilmasdi. Viloyatning boshqa hududlarida futbol hali yo'q edi. U paytlar shaharlar ham juda oz edi. Shaharning bir qismi harbiy shaharcha hududi bo'lgan. Temir yo'l uzeli tumanida bir necha ming kishi yashagan. Aholining ancha qismi daryo portida yashagan, ularning ham futbol jamoasi mavjud edi. 1930-1935 yillar orasida Jarqo'rg'onda jamoa tuzildi. Bu yerga o'sha paytda neftchi mutaxassislar kelib, ular jamoaning tashkilotchilari bo'lishdi. Denov shahrida ham jamoa paydo bo'ldi. Albatta, bu jamoalar ancha bo'sh edi, lekin viloyat tumanlarida jamoalarning paydo bo'lishi haqidagi manbaning o'zi muhimdir.

Uchqizil shaharchasida ham jamoa barpo etildi. By ham chegarachilar va neftchilar hisobiga tuzilgan edi. Asta-sekin shaharda yana bir qator jamoalar tuzila boshladi. To'g'ri, ular hali kuchsiz edi, lekin bu hol viloyat aholisi o'rtasida futbol ommalasha borayotganidan dalolat berardi.

Chegarachi daryochilarning "Torpedo", pedagogika bilim yurtlari hisobiga "Burevestnik" jamoalari qayta tashkil topdi. Bolalar futbol rejali tarzda rivojlanib, trenerlar yetishmas, bolalar o'z mahoratlarini o'zlari ko'rsatar edi.

"SKA" va Uchqizildagi neftchilar boshqarmasi bolalar jamoasiga ega edi. Chunki o'sha paytda Uchqizil neft sanoatida ishlash uchun 16-shaharda joylashgan bolalar uyidan bir guruh bolalar yuborilgan edi. Yoshlar futbol o'ynashi, futbol jamoalari mavjud bo'lishiga qaramay, 1935 yilgacha futbol bo'yicha viloyat va shahar musobaqalari o'tkazilmadi. Urushdan oldingi yillarda "Spartak" hozirda esa "Alpomish" futbol o'yingoxi shu ko'rinishda bo'lgan.



Урушдан олдинги йилда Спартак ўйингоҳи шу кўринишда бўлган. 1936 йил

To'g'ri, Buxoro viloyat birinchiligi musobaqalarida Surxondaryo okrugidan "SKA" jamoasi qatnashdi. 1935 yili Termiz shahrida "Spartak" ko'ngilli sport jamiyati tuzildi. Bu jamiyatning birinchi ma'sul kotibi o'sha davrda O'zbekistonning eng yaxshi yengil atletikachilaridan biri bo'lgan **Leonid Strekalov** edi. "Spartak" jamoasi paydo bo'lib, uning negizida shahar terma jamoasi turardi. Lekin "Spartak" jamoasining asosini bir yildan keyin armiyaga ketgan katta yoshlilar o'rnini almashtirgan shahar terma jamoasi egalladi. Jamoaga o'sha paytda O'zbekiston terma jamoasining ikkinchi darvozaboni bo'lgan **Viktor Ilin** trenerlik qilar hamda unda o'ynar edi.

Viktor Ilin jamoaga sezdimasdangina kirib keldi, deb xikoya qiladi Artunov. Uning so'ziga qaraganda, u darvozabon edi, amalda esa hujumchi bo'lib o'ynardi. Shuning uchun ham bolalar unga ko'p ham ishonishavermasdi, ammo bir kuni o'yin payti sodir bo'lgan bir voqea uning chinakam darvozabon ekanligiga bolalarni ishonishga majbur qildi.

1938 yili stadionda "Spartak" va "Dinamo" jamoalari o'rtasida uchrashuv ketayotir, "Dinamo" hujumda, to'p esa "Spartak"ning jarima maydonchasida. Shu payti sudya xushtagi chalinib, "Spartak" darvozasiga o'n bir metrlik jarima to'pi belgilanadi. "Spartak" sudyaning qarori noto'g'ri deb uzoq qarshilik qiladi, ammo oxir-oqibat yon berishga to'g'ri keldi.

V.Ilin to'pni tepishga shaylanayotgan o'yinchining yoniga kelib, "agar sen bu zarbaga halol erishdim deb o'ylasang, marhamat, tep to'pni" deydi va darvozabonning o'miga darvozaga borib turadi.

Hushtak chalinadi, "Dinamo" o'yinchisi yugurib keladi, zarba! Viktor ajoyib bir sakrash bilan to'pni

ushlab oladi. Ana shu voqeadan keyin bolalar va yigitlar Viktoring darvozabon bo'lganda ham yuqori darajali darvozabon ekanligiga tan beradilar.

"Dinamo", "SKA", "Spartak" shaharning ancha kuchli jamoalari edi. Spartakning qariyb barcha o'yinchilari Lunacharskiy nomli maktabda o'qir edilar. 3- maktabda ishlagan va maktab o'quvchilar orkestriga rahbarlik qilgan **Armik Nersesyans** bolalarning katta do'sti hamda ularning sport ishlarida yordamchisi edi. 1938 yildan boshlab "Spartak" jamoasi birmuncha bo'shashadi, bu hol qator o'yinchilarning harbiy xizmatga chaqirilishi bilan bog'liqdir. Ketgan o'yinchilar o'rnida Klimes A., Sukanovich, Kireev, L.Gomel singari yangi o'yinchilar paydo bo'ldi.

1938 yili "Lokomotiv" jamoasi shaharda birinchilikni egallab, katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Keyingi ikki yilda "Dinamo" birinchi raqamli jamoaga aylandi. Bu jamoadagi ikki o'yinchini markaziy hujumchi **Dmitriy Pilgu** bilan hujumchi **Nikolay Fedulovlarni** alohida ta'kidlash kerak. 1941 yili "Spartak" jamoasida M.Polbin paydo bo'ldi, keyinchalik u eng yaxshi darvozabonlardan biriga aylandi.

O'sha yili "Spartak" barcha raqiblarini yengib o'tib, birinchilikni qo'lga kiritdi. "DKA" jamoasi bilan bo'lgan oxirgi o'yinda Lev Novikov raqib himoyachisi bilan muvaffaqiyatsiz to'qnashuvda oyog'i sindi. Zarba shu qadar qattiq bo'lganki, himoyachining ikki juft bog'langan moslama qalqoni sinib ketgan. O'sha paytda rasmiy viloyat birinchiliklari o'tkazilmagan, lekin viloyatimiz jamoasi ishtirok etgan musobaqalar, uchrashuvlar bo'lgan.



Спартак жамоаси ўйин олдидан
1939 йил

1939 yili "Lokomotiv" O'rta Osiyo temir yo'li birinchiligi musobaqalarida qatnashdi. "Dinamo" jamoasi Dushanba shahrining "Dinamo" jamoasi bilan ikki marta uchrashdi. Har ikkala uchrashuvda ham termizliklar 7:1 va 6:3 hisobida yengildilar.

Har ikkala o'yinda ham birinchi bo'lib raqib darvozasiga to'p kiritdilar va o'yinning birinchi yarimida faol bo'lib turdilar, ikkinchi yarmida esa katta hisobda katta imkoniyatlarga bo'la turib, yengildilar. 1948 yili I.Geyfman, S.Sulaymonovlar Sovet armiyasi qaytib kelib, "Spartak" jamoasi sharafi uchun futbol maydoniga tushdi va ijobiy natijalarga erishdilar.

"Spartak" asta-sekin avvalgi mavqei va qudratini tiklay borib, viloyatdagi har qanday jamoa uchun dahshatli raqibga aylandi. "Spartak" jamoasining urushdan keyingi yillardagi tarkibi taxminan quyidagi ko'rinishda edi:

Usolev Yevgeniy, Sulaymanov Salom, Mejevov A., Mosienko V., Shibalov Mixail, Tursin Viktor, Gruzdenko, Glushenkov D., Sazanov I., Badigin K., Moiseev F., aka-uka Lashovlar, Neeshxdeb S., Makrousov Ivan, Somkin V., Geyfman I.A lardan iborat bo'lgan.



Termizning Spartak futbol jamoasi. Strekator Leonid, Chigirintsev
Сергей, Арutyunov Вартун, Судейманов Салом, Гаврилин Виктор,
Тейрман Илья, Девушев Шахат, Ильин Виктор.
Ўтирганлар: Раслов Штурин, Новинов Лева, Кумин Анатолий, Костюченко
Евгений. 1933 йил.

"Spartak" jamoasi 1948 yili respublika kubogi uchun bo'lgan musobaqalarda qatnashib, katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Jamoa barcha raqiblarini yengib o'tib, Toshkentning "Spartak" jamoasi bilan final o'yiniga chiqdi. Final uchrashuvi Toshkent shahrida "Spartak" stadionida bo'lib o'tdi. Jamoa tarkibi asta-sekin o'zgara bordi, u yoki bu sabablarga ko'ra ketib qolgan o'yinchilar o'miga Garipov N., Kalinin M., Nedelkin B., Nishchenko Anatoliy, Alekseev A., Morozov V., Pobedenniy M. kabi yangi o'yinchilar kelishdi.

Bu ro'yxatdagilar ichida Nedelkin, Nishchenko, Kalininlar eng yaxshi o'yinchilar hisoblanishgan.

1950 yil boshida yana Denov va Jarqo'rg'onda jamoalar paydo bo'ladi, lekin ular termizlik hamkasblari darajasida kuchli emas edilar. 1950 yilidandan boshlab Termizda shahar va viloyat birinchiligi muntazam o'tkaziladi. Shahar birinchiligi musobaqalarida "Dinamo", "Lokomotiv", "Spartak" harbiy gamizon jamoalari va paxta zavodi jamoasi ishtirok etishdi.

Keyinroq "Spartak" jamoasida Vishnevskiy, Biketov, Varlamov, Sagabatulinlar o'ynay boshladi. 1953 yilga kelib, Termizda qator qobiliyatli yoshlar o'sib yetishdi. Bu yoshlarning o'smirlar o'rtasida respublika birinchiligi musobaqalaridagi chiqishlarida ko'rsatgan natijalariga qarab, ularning qobiliyati haqida xulosaga kelish mumkin.



Termizning Spartak futbol jamoasi. В. Лилков, Рабаев, Зубков,
Игнатенко, Романов, В. Пичик, Клыкин, Зубрилов, Вартамов Ев,
В. Яценников, Осташкин Анатолий 1953 йил.

Ular 1954 yili respublikada uchinchi o'rinni egallashdi. 1955 yili esa ikkinchi o'miga ko'tarilishdi.

O'sha davr uchun bu, shubhasiz, katta yutuq edi. 1956 yili Moskvadan Markaziy Armiya sport

klubi (SSKA) jamoasi tayyorgarlik uchun Termizga keldi. Bu butun viloyat aholisi uchun chinakamiga katta voqea edi. SSKA Termizda bo'lgan paytida shahar terma jamoasi bilan ikki marta o'troqlik uchrashuvi o'tkazildi.

O'yin kunlari shahar aholisi uchun chinakamiga bayram bo'ldi. Hali stadion qurilganidan buyon bunchalik ko'p tomoshabinni ko'rman edi. Hamma ham o'sha davming eng kuchli jamoalaridan biri, SSSR chempioni va mamlakat kubogi sohibining o'yinini ko'rishga oshiqar edi. Har ikkala uchrashuvda ham shahar terma jamoasi quruq hisobda 7:0 va 6:0 hisobida yengildi. Lekin pirovard natijaga qaramay, shahar terma jamoasi mamlakatning yetakchi klublaridan biri bilan raqobatli kurashib, yaxshi o'yin ko'rsatdi. O'sha yili Tixonov V.M., Petrushenko Yu. kabi futbolchilar o'qishga ketishdi. Ular so'ngra jumhuriyatning eng yaxshi jamoalarida Tixonov "Paxtakor" jamoasida, Petrushenko "Mehnat rezervlari"da o'ynadilar. "Spartak" jamoasi ham jumhuriyat birinchiligi uchun bellashuvlarda doimo birinchi o'nlik safiga kirib, yaxshi yutuqlarga erishdi.

1956 yilda respublika birinchiligi uchun musobaqalarda kamida 23-24 jamoa qatnashar edi. Jamoaning o'sha yillardagi eng yaxshi yutug'i respublikada uchinchi o'rinni egallashi bo'ldi. Shaharda asta-sekin o'zlaridan kattaroq futbolchilarining o'mini almashtiruvchi yangi avlod yetishib chikdi. 1958 va 1959 yillari ko'ngilli sport jamiyatlari o'rtasida viloyat birinchiligi musobaqalari o'tkazildi. Ushbu musobaqalarda beshta jamoa: "Paxtakor", "Lokomotiv", Dinamo "Spartak" va "SKA" jamoalari ishtirok etindi. "Paxtakor" jamoasi Jarqo'rg'on posyolkasi vakili bo'lib, asosan, mahalliy yoshlardan tuzilgan edi. Bu o'yinga "Paxtakor" katta natijalarga erishdi, ikki yil uzluksiz birinchi o'rinni egalladi. Bu esa markazdan chekkada ham futbol shahardagidan qolishmaydigan darajada rivojlanayotganidan dalolat berardi. 1960 yilga kelib viloyat birinchiligi endi jamiyatlar orasidagina emas, balki ishlab chiqarish jamoalari o'rtasida ham o'tkazila boshladi. Bu gal birinchilikni "SKA" qo'lga kiritdi. Bu jamoa o'sha yilning shubhasiz kuchli jamoasi deb tan olindi.

"SKA"da Temiz shahri va Surxondaryo viloyatidan harbiy xizmatga chaqirilgan eng yaxshi o'yinchilar o'ynay boshlagan edi. Karimov, Mamatrahimov, Xudayqulov, Medvedev, Volkov, Galkin, Kotov, Bobrovskiy lami shular jumlasidan deb ko'rsatish mumkin. Kotov bilan Maksakov harbiy xizmatni tugatgach, harbiy qism va ustoz jamoalarida o'yinni davom ettirishdi. Denov va Jarqo'rg'on jamoalari ham yaxshi o'yin ko'rsatdi.

Kakaydi posyolkasidan harbiy uchuvchilar jamoasi ham e'tiborga tushdi. Ayniqsa, 1960 yili Tixonov, Petrushenkolar o'qishni bitirib qaytishgach, viloyatida futbol gurkirab rivojlana boshladi.

Tixinovning kelishiga ko'p umidlar bog'lanagan edi va keyinchalik bu ko'zda tutilgan umidlar ro'yobga chiqdi.

1961 yili Termizda birinchi marta ko'cha jamoalari o'rtasida musobaqa o'tkazildi. Butun shahar bolalari uchun bu musobaqalar naqadar quvonchli bo'lganligini tasavvur qilish ham qiyin edi. Musobaqalar yoz payti ikki haftaga yaqin davom etdi. "Spartak" stadioni har kuni o'z ko'chalari sharafiga himoya qilish uchun kelgan bolalar bilan to'la bo'lardi.

Ushbu birinchi tumir katta muvaffaqiyat bilan o'tdi. Birinchidan, u "Spartak" bolalar va o'smirlar jamoasiga a'zolar tanlash imkoniyatini berdi, ikkinchidan, ularning eng yaxshilari Toshkent shahridagi internatga o'qishga safarbar etildi.

1961 yili birinchi o'rinni "Lenin" ko'chasi, ikkinchi o'rinni "Novaya", uchinchi o'rinni "Betemariya" ko'chalarining jamoalari egalladilar. 1961 yil kuzida maktablar o'rtasida shahar birinchiligi musobaqalari o'tkazildi. Musobaqalar o'n yillik va sakkiz yillik maktablar uchun alohida-alohida tashkil etildi. O'n yillik maktablar o'rtasidagi "Karl Marks" nomli maktab, sakkiz yillik maktablar o'rtasidagi musobaqada "Gorkiy" nomli maktab jamoalari birinchilikni qo'lga kiritishdi.

Shahar viloyat birinchiligida hamon "Spartak" bilan "Lokomativ" peshqadam edi. Viloyat futbolchilari 1963 yili anchagina muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishdi. "Spartak" jamoasi respublika birinchiligida beshinchi o'rinni egalladi. Shuningdek, "Spartak" ko'ngilli sport jamiyati O'zbekiston Kengashi musobaqalarida esa birinchi o'rinni egalladi va bu hol unga Sovet Ittifoqi birinchiligi uchun bo'ladigan musobaqalarda qatnashish huquqini berdi. Bu o'yin Lipek shahrida bo'lib o'tdi. "Spartak" futbolchilari bu musobaqalarida katta muvaffaqiyatga erishib, Ittifoq bo'yicha uchinchi o'rinni egalladilar.

1964 yili birinchi marta aka-uka Novikovlar sovrini uchun musobaqalar o'tkazildi. Uni "Spartak" ko'ngilli jamiyati viloyat kengashi ta'sis etdi. Bu uchrashuvlarning birinchi sovrindori "Oktyabr" ko'chasi jamoasi bo'ldi va unga sovrin tantanali ravishda topshirildi. Jamoa mukofotlanib, sovrinni qabul qilgach, uni saqlash uchun qahramonlarning onasi Anna Andreevna Novikovaga topshirishdi.

1965 yili Sovet Ittifoqida birinchi marta ko'cha jamoalari o'rtasida "Charm tup" sovrini uchun uchrashuvlar o'tkazildi. 1965 yili ana shu sovrin uchun o'tkazilgan shahar birinchiligi musobaqalarida oltita jamoa qatnashdi. Musobaqalar "Spartak" stadionida uyushtirildi. Ushbu musobaqaning birinchi sovrindori "Proletar" ko'chasidan jamoasi bo'lib, ushbu jamoa buning uchun vlskm shahar komiteti sovrini hamda klubning emblemasi tushirilgan to'p bilan mukofotlandi.

Termizlik M.Boboev futbolning kuchli ishqibozi, chinakam ixlosmandi bo'lib, o'zining butun umrini sportga bag'ishladi. Ha, uning butun umri sportga baxshida edi. Xatto oltmish yoshga to'lgandan keyin ham uchrashuvlarda sudyalik qilishda davom etdi, shunda ham eng ma'suliyatli o'yinlarni unga ishonib topshirishar edi. U 1965 yili shahar sport qo'mitasining qarori bilan Boboev nomidagi sovrin ta'sis etildi, bu sovrin uchun bo'ladigan musobaqalarda ko'cha, jamoalari bellashadigan bo'ldi.

1965 yili sport jamoalari o'rtasida shahar birinchiligi musobaqalari o'tkazilib, unda o'nta jamoa qatnashdi. Bu musobaqalarda birinchi o'rinni shahar elektr stansiyasining "Elektrik" jamoasi, ikkinchi o'rinni "Dinamo" jamoasi, uchinchi o'rinni 165-qurilish trestining jamoalari egallashdi. Ko'rinadiki, ikkita sovrindor o'rinni ilgari shahar birinchiligida qatnashmagan jamoalar qo'lga kiritishdi, bu esa viloyatda futbol gurkirab rivojlanayotganidan dalolat beradi. 1960-1970 yillarda 165-qurilish trestining "Stroitel" jamoasi shahar va viloyatda yetakchi jamoalardan biriga aylanadi. 1965 yilgi shahar birinchiligi musobaqalarida ham avvalgidek o'nta jamoa qatnashdi.

8-qurilish boshqarmasi, 1-qurilish boshqarmasi jamoalari o'miga birinchilik musobaqalarida Sovet Armiyasi ofitserlar uyi hamda bolalar va o'smirlar sport maktabi jamoasini alohida ta'kidlashga to'g'ri keladi, chunki unga shaharning eng yaxshi yoshlari uyushgan bo'lib, bu jamoa 1968 yilgacha viloyatdagi har qanday jamoaning dahshatli raqibi bo'lib qoldi.

Moskvaning SSKA jamoasidan keyin shahrimizda 1966 yili mamlakatimizda va undan tashqarida mashhur bo'lgan "Spartak" Moskva jamoasi bilan uchrashuv o'tkazildi. Bu Termizda o'yin ko'rsatgan oliy liganing ikkinchi vakili edi.

1966 yili shahar birinchiligi uchun bo'lgan musobaqalarda ilgarigiday o'nta jamoa ishtirok etdi. To'g'ri, avvalgi yildagiga nisbatan jamoalar tarkibi bir muncha o'zgargan edi, masalan, "Zang" qurilish jamoasi o'miga Termiz qurilish texnikumi jamoasi paydo bo'ldi.

1966 yili 165-qurilish trestining jamoasi birinchilikni egallab, shahar kubogini qo'lga kiritdi. Nizomga muvofiq, viloyat kubogi uchun bo'ladigan musobaqalarda shahardan faqat ikki jamoa - shahar kubogi finalchilari qatnashishlari mumkin edi. Viloyat kubogi uchun musobaqalarda qatnashgan ikkinchi jamoa "Dinamo" bo'ldi, 1966 yili uning tarkibiga Valijon Qodirov, Jabbor Davxonov, Abdurahmon Yorqulov,

Yachenko Nikolay, Vovenko Sergey, Podolyan S., Pavlov V. kabi yangi o'yinchilar bor edi.

Viloyat kubogi uchun musobaqalarda, shuningdek, Jarqo'rg'on, Denov, Sariosiy va Kakaydi jamoalari ham ishtirok etishdi. "Stroitel" bilan "Dinamo" jamoalari bosh raqiblaridan o'zib, finalga chiqishdi. Viloyat kubogi uchun bo'lgan final o'yini 1966 yilning, shubhasiz, eng yaxshi uchrashuvi bo'ldi. Dastlab, dinomachilar yutuqqa erishdilar. Hisob 1:0. Lekin bu ilg'orlik uzoqqa cho'zilmadi, o'yinning birinchi yarmi oxirida Mitin V. dinamochilar darvozasiga to'p kiritdi.

Xisob 1:1 bo'ldi, o'yinning ikkinchi yarmi dinamochilarning qizg'in xujumi bilan boshlandi, lek "Stroitel"ning himoyachilari aniq va xatosiz o'ynashdi. O'yin yakuniga o'n minut qolgani "Stroitel"ning himoyachisi Yafæev A. maydonni tark etib, o'miga Bangiev Ya. chiqadi. E almashtirishdan dinamochilar muvaffaqiyatli foydalangan xato bo'ldi. Dinamochilar ikkinchi gol "Stroitel" darvozasiga ana shu Bangievning xatosi tufayli kiritishdi, chunki u to'pni ushlashda yanglish va "Dinamo" hujumchisi darvozabon Amner Masheev bilan yakkama-yakka qoldi. Hisob 2:1, oldind "Dinamo". Ikki minutdan keyin yana shu himoyachi jarima maydonida xatoga yo'l qo'ydi. Pavlov o' bir metrlik zarbani aniq nishonga oldi.

Shunday qilib, 3:1 hisobida g'alabaga erishib, "Dinamo" viloyat kubogi sovrindori bo'ldi. O'sha yili "Spartak" ancha yashargan tarkibda viloyat birinchiligi musobaqalarid qatnashdi. Jamoada Volobuev V., Sitnikov V., Boqiev E., Nuriddinov F, Onishchenk V. kabi o'yinchilar paydo bo'ldi.

Albatta ularning paydo bo'lishlari 1966 yili o'ninchi o'rinni egallagan jamoaning o'yinida ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 1966 yili eng yosh futbolchilar uchun ko'cha jamoalari o'rtasida "Boboev" nomidagi sovrin uchun shahar birinchiligi musobaqalari o'tkazildi. "Aka-uka Novikovlar" hotirasi sovrini uchun bo'lgan uchrashuvlarga juda ko'p son jamoalar to'plandi. 1965 yili "Charm to'p" sovrinini qo'lga kiritgan "Proletar ko'chasining "meteor" jamoasi 1966 yil ushbu sovrinni, ya'ni "Aka-uka Novikovlar xotirasi sovrinini egallashga muyassar bo'ldi. Ikkinchi o'rinni Uchqizil shaharchas jamoasi egalladi. Termizda o'quvchilar o'rtasida viloyat birinchiligi musobaqalar o'tkazilib, unda Termiz shahri jamoasi birinchi o'rinni egalladi. Shuningdek bu jamo o'z guruhida quruvchilar o'rtasida O'zbekiston chempioni ham bo'ldi.

1967 yili "Spartak" jamoasi o'z tarkibini qariyb to'liq almashtiradi. Faxriylar o'rnig yoshlar keldi. Jamoaga katta yoshlilardan faqat Tixonov V., Sagabatulin X., Mitin V. Yafæev A., Masheev A. jamoa tarkibida qoldi. O'tgan yillarga nisbatan jamoa respublik birinchiligida biroz durust o'ynab, to'qqizinchi o'rinni egalladi. Ammo jamoadar o'yinda yanada yaxshi o'ynash talab qilinar, shu bilan birga ayrim yoshlar o'yind kelajakda yaxshi, mohir futbolchilar bo'lib yetishishlariga umid uyg'otar edi.

Shahar birinchiligi musobaqalarida o'nta jamoa qatnashdi. 1967 yili shahar birinchi o'rinni "Dinamo» jamoasi ikkinchi o'rinni bolalar va o'smirlar maktab jamoasi, uchinchi o'rinni esa "Stroitel" jamoasi egalladi. Iyun oyida ko'cha jamoalarining shahar birinchiligi musobaqalari uyushtirildi. Unda birinchi o'rinni "Polevaya" ko'chasi jamoasi, ikkinchi o'rinni "Birinci May" ko'chasi, uchinchi o'rinni "Leningrad" ko'chasi jamoalari qo'lga kiritdilar.

Keyingi to'rt yil ichida "Spartak" jamoasi viloyat birinchiligi musobaqalarida bi qadar yaxshi o'yin ko'rsatdi, u Denov va Jarqo'rg'ondagi raqiblaridan bir muncha kuchli edi.

Kolpakov V.A. trenerlik qilgan bolalar va o'smirlar maktabi jamoasi yaxshi o'yinlar namoyish etdi. Qariyb butunlay 17-18 yoshli o'smirlardan iborat tarkibdagi bu jamoa viloyatdagi har qanday jamoaga qarshi muvaffaqiyatli chiqa olar edi. Viloyat kubogi uchun musobaqalarda jamoa o'lgan yutuqlarga erishdi, yarim final o'yinida viloyatdagi eng kuchli hisoblangan "Dinamo" jamoasini 4:1 hisobida yengib, finalga chiqdi.

Final uchrashuvi ikki kun davom etdi. Viloyat kubogining finalchisi "Stroitel" jamoasi edi. Bu uchrashuv futbol ishqibozlarida katta qiziqish uyg'otdi. Bu ikki jamoaning o'yinchilari tez orada jumhuriyat musobaqalarida viloyat sharafiga himoya qilib chiqadigan bo'lishdi. O'sha uchrashuvda jamoalar tarkibida ishtirok etgan o'yinchilar quyidagicha edi. Bolalar va o'smirlar sport maktabi jamoasi Onishchenko V., Yusupov A., Kuzmenko V., Solorov Yu., Volobuev V., Sitnikov V., Nuridlinov F., Boqiev E., Repin V., Sulaymanov A., Kirillov A., Gusev V., Shaxnazarov B., Yorqulov Abdurahmon, bu tarkibdan yetti kishi 1965 yilda Termiz tumani, Oktyabr 40 yilligi kolxozida tuzilgan "B" klassi bo'yicha sobiq SSJI birinchiligi uchun kurashga tushgan "Chegarachi" jamoasi tarkibida o'ynaydi.

"Stroitel" jamoasi tarkibida Masheev A., Yafaev A., Doronin N., Maxmudov T., Ganin G., Chirkin V., Jukovskiy V., Mardvinov A., Sagabatulin A., Mitin V., Pichik V. lar o'ynashar edi.



Спартак казловскийннг ешлари. 1960 йил



Сурхондарё ёшлар терма жаъмоаси 1961 йил.



Вилоят биринчилиги ЦКА Термиз 1960 йил. Чоппан ўнги Т.Мелвелев, Ю.Котев, В.Везеки, А.Геритов, М.Якутмуродов, Н.Живенин, В.Лани, В.Бабровский, В.Максиков, В.Демушкин, И.Гансин.

Agar tarkib jihatdan qaralsa, bolalar va o'smirlar sport maktabi jamoasi, shubhasiz, kuchliroq edi, chunki ularga muntazam mashqlar zarur jismoniy tayyorgarlik berib borilar edi, "Stroitel" jamoasi esa bir necha o'yinchisini hisobga olmaganda, bu jihatdan maqtana olmas edi, albatta.

"Stroitel"ning bir qism o'yinchilari allaqachon o'yinni tugatgan Doronin, Pichik, Sagabatulin, Mitinlar o'ttiz yoshdan oshib qolgan edilar. Shuning uchun ham faqat yengish ishtiyoqi bilan maydonga tushgan bolalar va o'smirlar sport maktabi jamoasiga e'tibor bersa yoki ishonch qaratilsa bo'lar edi, ular, darhaqiqat, ikki marta g'alabaga yaqin kelishdi, lekin oxirgi daqiqalarda uni qo'ldan boy berib qo'yishdi, baxt "Stroitel" jamoasi tarafiga kulib boqqandi.

1968 yilgi futbol musobaqalarida esa o'yinning boshlanishidanoq "Stroitel"ga hech nima va'da qilmasdi. 20 minutdayoq bolalar va o'smirlar sport maktabi jamoasi o'yinchisi Repin "Stroitel" jamoasi darvozasini ikki marta ishg'ol qilishga ulgurdi. O'yinning birinchi yarmi oxirida Sagabatulin oradagi farqni qisqartirishga erishadi.

Birinchi taym oxirida "Stroitel" jamoasining xujumchisi Pichik V. jarohat olib, maydonni tashlab chiqadi. Shunday qilib, jamoalar bolalar va o'smirlar sport maktabi foydasiga 2:1 hisobi bilan tanaffusga chiqishdi. O'yinning ikkinchi yarmi bolalar va o'smirlar sport maktabi jamoasining shiddatli hujumi bilan boshlandi, bu jamoa nima qilib bo'lsa ham, o'z yutug'ini mustahkamlashga intilardi. "Stroitel" ham shu tariqa muvaffaqiyatli himoyalanan, shu bilan birga javob hujumlari ham uyushtirib turardi. O'yin oxirlashiga besh minut qolganda, ana shunday hujumlardan biri "Stroitel"ga muvaffaqiyat keltirdi.

Jamoa erkin to'p tepish hududini qo'lga kiritdi. Himoyachilarning shoshilib qolganlaridan foydalangan "Stroitel" ikkinchi to'pni raqib darvozasiga kiritdi.

2:2 – o'yinning ikkinchi yarmi ana shu hisob bilan yakunlandi. 30 minutlik qo'shimcha vaqt har ikkala jamoaning hech biriga muvaffaqiyat keltirmadi.

Shunday qilib, jamoalar viloyat kubogini qo'lga kiritish uchun ikkinchi kuni qaytadan kurashni davom ettirish uchun dam olishga chiqishdi.

Ikkinchi uchrashuvning boshlanishi ham bolalar va o'smirlar sport maktabi jamoasining qo'li ustunligida bo'ldi.

O'yinning birinchi yarmining o'rtalaridayoq ular 1:0 hisobida oldinga o'tib oldilar.

Uchrashuvning ikkinchi yarmida yutuqni mustahkamladilar va kubok sovrindori bo'ldilar.

O'sha yillari "Chegarachi" jamoasining nomi "Avtomobilist" deb o'zgartirildi va jamoa viloyat avtotresti ixtiyoriga o'tdi.

1966 yil "Avtomobilist" jamoasi uchun ancha o'ngidan kelgan yil bo'ldi. U 24 ta jamoa ichida o'n oltinchi o'rinni egalladi. Jamoada Xojimurod Rustamov, Erkin Bakiev, Karim Mahmudov, Yermolaev Vyacheslav, Panshin Yevgeniy, Oleynikov Anatoliy kabi o'yinchilar paydo bo'lib, mahorat ko'rsata boshladilar.

1966 yili shahar birinchiligida musobaqalarida 12 ta jamoa qatnashdi. Unda Termiz davlat pedagogika institutining "Burevestnik" jamoasi birinchi o'rinni egalladi. Viloyat birinchiligi musobaqalarida Jarqo'rg'onning milliy jamoasi birinchi marta g'olib keldi va 1966 yili jumhuriyat birinchiligi musobaqalariga yo'llanma oldi. To'g'ri, bu jamoaning respublika birinchiligidagi chiqishlari muvaffaqiyatsiz bo'ldi, u turnir jadvalining eng oxiridagi o'ringa tushib qoldi.

"Charm to'p" sovrini uchun shahar birinchiligi musobaqalarida 15 ta jamoa ishtirok etdi. Unda birinchi o'rinni "Polevaya" ko'chasining "Saturn" jamoasi, ikkinchi o'rinni "Sportivnaya" ko'chasining "Vosxod" jamoasi qo'lga kiritdi.

1966 yili avgust oyi o'rtalarida ko'cha jamoalari o'rtasida "Aka-uka Novikovlar" xotirasi sovrini uchun musobaqalar o'ynaldi. Ana shu faxriy sovrinning egasi uchun 16 ta jamoa kurashga tushdi.

"Birinchi May" ko'chasining "Neftchi" jamoasi birinchi marta ushbu sovrinni qo'lga kiritdi. "Polevaya" ko'chasining "Saturn" jamoasi ikkinchi o'rinni egalladi, "Popov" ko'chasining jamoasiga uchinchi o'rin nasib etdi. 1968 yilgi viloyat kubogi sovrindori Denov shahri jamoasi bo'ldi.

1970 yili viloyatdagi eng kuchli jamoalardan biri darajasiga ko'tarilgan Termiz davlat pedagogika institutining jismoniy tarbiya kafedrasi qoshida tashkil topgan "Burevestnik" jamoasi edi, jamoa xuddi shu kafedra orqali rezervlar bilan ta'minlanib

turardi.

Pedagogika instituti tolibi Farid Alyupov 1975 yilda SSSR bo'yicha futbol terma (yoshlar) jamoa safida Yevropa chempioni bo'ldi va SSSR sport ustasi unvoniga erishdi.

"Lokomativ" jamoasi 1975 yili shahar va viloyat kubogini qo'lga kiritdi, institut, ya'ni "Burevestnik" jamoasi shahar va viloyat musobaqalarida g'olib chiqib shahar va Surxondaryo viloyati chempioni unvonini qo'lga kiritdi. 1975 yili jumhuriyat birinchiligi musobaqalarida Surxondaryodan jamoa qatnashmadi, chunki ana shu o'yinlar bo'layotgan paytda "Burevestnik" respublika oliy o'quv yurtlari birinchiligi musobaqalarida qatnashayotgan edi. 1975 yil "Charm tup" sovrini uchun bo'lgan musobaqalarda shahardagi 85 ta ko'chadan 48 ta jamoa qatnashdi. Ayrim ko'chalar ikkita va undan ko'prog' jamoalarini olib kelishdi. Uchrashuvlar butun bir oyga cho'zildi, uning yakunida Uchqizil shaharchasining "Iskra" jamoasi birinchi, "8 Mart" ko'chasining "Sokol" jamoasi ikkinchi, "Karl Marks" ko'chasining "Chayka" jamoasi uchinchi o'rinlarni egallashdi.

Surxondaryo viloyati sport qo'mitasi rahbariyati "Avtomobilist"ning 1969 yilgi chiqishlaridan qoniqmaganlarini bildirdi va shu tufayli boshqa respublikadagi klublardan bir qator o'yinchilarni chaqirishni lozim topdi. "Avtomobilist"ning oldingi tarkibidan Boqiev, Yudin, Sagabatulin, Oleynikov, Panyushin, Gizatullin, Repin va Kirilovlar qoldirildi. Jamoaga Sarkisyan Yu., Bondar N., Chemixin P., Yokubov V., Karcheev V. va Sherbetov V. futbolistlar taklif qilindi. Shuningdek, harbiy xizmatdan qaytgan termizlik Jukovskiy Vladimir ham jamoa tarkibiga kiritildi.

3.3. Termiz shahar "Avtomobilchi" jamoasining a'zolari I-davra II-liga

№	F.I.O	O'ynagan o'yin soni	Kiritilgan to'plar
1	S.Savelev	7	
2	A.Petrenko	35	
3	A.Afanaseva	4	
4	A.Xaliulin	8	
5	B.Gurman	38	4
6	B.Petuxov	36	-
7	A.Saprikin	4	3
8	B.Galiulin	34	-
9	F.Alyukov	11	-
10	B.Kashkinbaev	22	1
11	A.Maksimov	36	1
12	V.Panyushin	17	4
13	K.Gefmanov	35	-
14	T.Xabaev	34	9
15	V.Repin	34	2
16	R.Fayruzov	20	3

17	B.Tumakov	39	10
18	V.Ermolaev	13	3
19	V.Jukovski	17	-
20	E.Gluxov	8	-
21	K.Dergach	2	-
22	V.Gruzenko	1	-

Natijada 1970 yili futbol o'z rivojida ancha ilgari siljidi. Butun mavsum davomida jamoa ko'plab taniqli raqiblarini ortda qoldirib, turnir jadvalining oltinchi pog'onasiga ko'tarildi. 1970 yil noyabrda "Avtomobilist" o'z maydonida Toshkentning "Paxtakor" jamoasini qabul qildi. Uchrashuv 4:2 hisobida "Paxtakor" foydasiga yakunlandi. Keyinchalik bu ikki jamoa o'rtasidagi uchrashuvlar an'anaga aylanib qoladi. "B" klassidagi muvaffaqiyatli chiqishlari uchun "Avtomobilist" keyingi "A" klassining ikkinchi guruhida qatnashish sharafiga muyassar bo'ldi. Bu jamoaning o'zlarining muvaffaqiyati edi, chunki ular ham viloyat futbolining yanada yuksalishi uchun munosib mehnat sarfladilar.

Viloyatdagi mavjud 17 ta jamoan "Aka-uka Novikovlar" sovrini uchun musobaqalarda 14 ta jamoa ishtirok etdi. Bu musobaqalar shahar maktablari o'rtasida o'tkazilgan edi. Bu musobaqalar qobiliyatli yosh sportchi futbolchilarni aniqlash, shu bilan birga shahar maktablari o'rtasida terma jamoani mustahkamlash va uning kelajakda O'zbekiston birinchiligi musobaqalarida ishtirokini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan edi.

Katta yoshlilar o'rtasida ham shahar birinchiligi va kubogi-uchun musobaqalar o'tkazildi, ularda ham o'ntadan jamoa qatnashdi. Viloyat birinchiligi musobaqalarida 16 ta jamoa qatnashdi, qishloq sportchilari o'rtasida "Oltin boshqoq" sovrini uchun musobaqalar o'tkazildi. Viloyat kubogi uchun o'tkazilgan musobaqalarda 50 ta sport jamoasi qatnashdi. Ana shu musobaqalarda g'olib kelgan Termizning "Dinamo" jamoasi viloyatdan O'zbekiston kubogi uchun musobaqalarda qatnashdi. Termizning "Spartak" jamoasi O'zSSR birinchiligida ishtirok etdi. Ammo musobaqa natijalari shuni qo'rsatdiki, bu jamoalar o'z imkoniyatlari darajasida o'ynay olmadilar, sovrinli uchlikdan o'rin ololmadilar.

1967 yilgi futbol musobaqalaridagi ishtirokchilar tartibi quyidagicha bo'ldi:

Bolalar yoshida	- 10 ta	jamoalar - 1700 kishi
O'smirlar	- 50 ta	jamoalar - 750 kishi
Katta yoshlilar	- 50 ta	jamoalar - 900 kishi

Bu davrda futbol rivojiga ayrim muammolar ham bor edi. Masalan, mavjud har bir futbol maydoniga 120 futbolchi to'g'ri kelar, bitta tayyorgarlik mashqi uchun roppa-rosa 12 soat zarur bo'lar, bu esa amalda mumkin emas edi. Shuning uchun ko'pgina yosh futbolchilar seksiyalarda muntazam mashq qilish imkoniyatiga ega emas edi.

"Surxon" masterlar futbol jamoasi 1966 yili "Oktyabr 40 yilligi" jamoa xo'jaligining sport jamoasi vakili sifatida "Chegarachi" nomi bilan maydonga tushdi, ammo uchrashuvlarni muvaffaqiyatli o'tkaza olmadi, jamoa O'rta Osiyo zonasida eng oxirgi 22-o'ringa tushib qoldi.

Viloyat sport komitetining 1966 yilgi hisobotidan "Chegarachi" futbol jamoasining

bo'sh o'ynaganligining sababi shu bilan izohlanadiki, jamoa o'yinchilari katta musobaqalarda tajriba ko'rishmagan, tarkib jamoaning yosh o'yinchilardan tuzilgan edi.

Mavsum yakunlangach, "Chegarachi" jamoasi "Oktyabr 40 yilligi" jamoa xo'jaligidan olinib, viloyat avtomobil tresti ixtiyoriga beriladi va nomi ham "Avtomobilist" deb o'zgartiriladi, jamoa bu nom bilan 1983 yilgacha SSSR chempionati o'yinlariga qatnashib qoldi.

Uch yil mobaynida 1968-1969-1970 yillari ushbu futbol jamoasi SSSR birinchiligining "B" klassika o'ynab, 24 ta jamoa ichida izma-iz 22,16- va 6-o'rinlarni egallaydi.

1971 yili "Avtomobilist" jamoasi "A" klassining II ligasiga kiritildi. O'sha yillari "Avtomobilist" futbol jamoasi doimo o'yin jadvalining yuqori qismidan o'rin olib turdi. To'g'ri, 1975 yili o'yinchilar almashtirib, ya'ni "qariyalar" ketib, o'rniga jamoa tarkibiga yoshlar kiritilgach, u o'zbek jamoalari o'rtasida oxirgi 17-o'ringa tushib qoldi. Lenin yosh o'yinchilar tajriba to'plashib, jismoniy kamol topishib, jamoani ilgariga olib chiqa boshlashdi, shuning uchun ham jamoa 1976 yili 12-o'rinni, 1977 yili 3-o'rinni, 1977 yili 2-o'rinni egallaydi. Natijada SSSR kubogi o'yinlari to'g'risidagi nizomga muvofiq "Avtomobilist" jamoasi O'zbekistondan kubogi uchun zona musobaqalarida Moskvaning "Dinamo", Xarkovning "Metallist", Ashxobodning "Kolxozchi", Yaroslavlning "Shinnik" jamoalari bilan musobaqalashdilar.

1984 yili "Avtomobilist" jamoasi "Surxon" davlat xo'jaligi ixtiyoriga o'tdi va "Surxon" nomi bilan chiqa boshladi. 1984 yili 7-zonada 3-o'rinni egalladi, SSSR kubogi o'yinlarida ishtirok etib, Qarakandaning "Shaxtyor" jamoasini qabul qildi va uni 1:0 hisobida yengdi. Finalda Dushanbening "Pomir" jamoasi bilan o'ynab, 1:0 hisobida yengildi va o'yindan chiqib ketdi.

"Surxon" jamoasining g'alabalari va mag'lubiyatlariga qaramay, uning saflaridan yaxshi o'yinchilar yetishib chiqdi va ular hozirgi kunda oliy va birinchi liga jamoalari sharafiga himoya qilishmoqda.

"Paxtakor" jamoasida Termizda tarbiya ko'rgan Tixonov V., Fayruzov R., Panyushin Ye., Afanasev A., keyincha Marat Kabaev, Yerjon Yoralievlar o'ynadi, futbolchi Oleg Morozov esa Odessaning "Chernomores" jamoasida o'ynadi.

Jamoaning barcha yutuq va muvaffaqiyatlari uning tarbiyachi-trenerlari bo'lib ishlagan Gubin V.I., Desyatchikov V., Aranovich Ya, Tunis M., Tixonov V., Jukovskiy V., Xabaev T., Gerfanov K.larning xizmati bilan bog'langandir. Ularning bir qismining nomi "Avtomobilist" - "Surxon" jamoasining futbol bo'yicha mamlakat birinchiligi musobaqalarining ikkinchi ligasida yorqin chiqishlarida yaqqol ko'zga tashlangan.

Viloyat futbol ishqibozlari "Surxon" jamoasi futbolchilarining SSSRning yetakchi jamoalari Moskvaning "Spartak" "Torpedo", "Dinamo", Olmaotaning "Qayrat", Toshkentning "Paxtakor" va boshqa qator jamoalar bilan uchrashuvlarining guvohlari bo'lishgan.

"Surxon" jamoasining 1985 yilgi mavsumda bo'sh o'ynaganligi natijasida oxirgi o'rinlarga tushib qoldi, buning bir qator sabablari bor. Chunki jamoa amalda egasiz holga tushib qolgandi, u avtomobil transporti va yo'li xodimlari kasaba uyushmasi viloyat komitetiga ixtiyoriga o'tgan bo'lib, uning rahbarlari esa jamoa faoliyati ustidan

rahbarlik va nazoratdan chetlashib qolishgan edi. Shuningdek, 1965 yilgi mavsum boshida jamoaning olti nafar yetakchi o'yinchisi Sushkov I., Bozorov B., Shapran A., Andreev V., Profis S. Sovet Armiyasi safiga chaqirilgan edilar.

1966 yili "Surxon" futbol jamoasi Agrosanoat kompleksi ixtiyoriga o'tkazildi. Endilikda u jangovor ruh olib, yaxshi taktik-texnik tayyorgarliklarini ko'rsata boshladi. "Surxon" futbol jamoasi 1985 yili futbol bo'yicha SSSR birinchiligi musobaqalarida qatnashdi. "A" klassining II liga 7-zonasida o'ynadi. 1966 yili zonada qatnashgan 17 ta jamoa o'rtasida 15-o'rinni egallaydi. Jamoa 32 ta uchrashuv o'tkazdi, uning 9 tasi g'olib keldi, 6 tasida durang natijaga erishdi, 17 tasida mag'lublik alamini chekdi. Jamoa 1984 yilga nisbatan 12 ta o'rin quyiga tushib ketdi, o'zining o'yin-texnik taktik va jangovarlik sifatlarini boy berdi.

Futbol jamoasining qoniqarsiz chiqishning sabablari quydagicha izohlanadi:

qator o'yinchilar kasalligi yoki oilaviy ishlarini bahona qilib, ya'ni baz'ida oilasi bilan yashab musobaqa safarlariga hamma vaqt chiqisha olmadilar.

jamoa va uning rahbariyatining ishchi jamoalari, o'sha davrdagi komsomol tashkilotlari bilan amaliy aloqalarda bo'lib turgan;

- jamoada yetarli darajada siyosiy-tarbiyaviy ishlar olib borilmas, ma'ruza va targ'ibot ishlari uyushtirilmas, urush va mehnat fahriylari bilan uchrashuvlar tashkil etilmas edi.

Futbol jamoasi rahbarlari boshlig'i Z.Bokiev bosh treneri V.Jukovskiylar mahalliy matubot va radio orqali tanqidiy va tarbiyaviy mavzulardagi maqolalar bilan chiqish qilmadilar.

"Surxon" futbol jamoasiga uning ixtiyori berilgan viloyat avtomobil tresti, kasaba uyushmalari viloyat komiteti, "Spartak" ko'ngilli sport jamiyati viloyat kengashi rahbarlari tomonidan rahbarlik ishlari qoniqarsiz olib borildi. Ular jamoaning SSSR birinchiligi musobaqalariga tayyorgarligi va ishtiroki yuzasidan tegishli nazorat o'rnatmadilar, futbol jamoasi rahbarlarining hisobotlarini o'z kollegiya va xayrat yig'ilishlarida eshitmadilar, jamoa chiqishlari natijalari muxokoma qilib, mehnat va uyin intieomini yo'lga qo'yish yuzasidan amaliy yordam uyushtirmadilar.

1964 yil mavsumi oxirida olti nafar asosiy o'yinchining Sovet Armiyasi safiga chaqirilgani, o'yinchilarga maosh uchun mablag' yetishmasligi, uy-joy masalasining hal etilmaganligi, ayrim futbolchilar oilasi bilan jamoa bazasida yashayotgani kabi holatlar ushbu kamchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi.



Термининг: Спартак ҳамда Спартак Москва жамоалари ўртасида ўйин сурати. Тўпни дарвозага В.Тихонов урган ҳолати

Ma'muriy organlarning ommaviy futbolni rivojlantirish to'g'risidagi qarorini bajara borib, tuman va viloyat "Paxtakor" tashkilotlari ma'lum ishlarni amalga oshirdilar. "Paxtakor" viloyat tashkilotlarida 1985 yildan 1986 yil may oyigacha futbol bilan shug'ullanuvchi fizkultura jamoalari 48taga kupaydi va 186 taga yetdi, shu davr ichida unda shug'ullanuvchilar soni 5 ming nafardan ortiqroq ko'paydi yuqorida ta'kidlangan davr ichida qishloq fizkultura jamoalarida futbol bilan ommaviy shug'ullanish uchun moddiy-texnik baza ham sezilarli darajada mustahkamlandi.

Shu orada 82ta futbol maydoni, 6 ta o'quv-mashq qilish manevi Termiz rayonidagi "Namuna" jamoa xo'jaligi, Lenin yo'li (hozirgi Qiziriq) rayonidagi Yo'ldosh Oxunboboev nomli davlat xo'jaligida stadionlar qurildi.

Jarqo'rg'on rayonidagi "Surxon", Sariosiyo rayonidagi Kommunizm davlat xo'jaliklari hisobidan qurilgan bolalar va o'smirlar sport maktablarida futbol bo'limlari ishlab turib, ularda xo'jalik mehnatkashlarining 120 nafar farzandi shug'ullanar edi.

1966 yili futbol bo'limi bo'lgan ana shunday bolalar va o'smirlar sport maktabi Gagarin (hozirgi Muzrabot) rayonidagi Abdulla Nabiev nomli davlat xo'jaligida ham ochildi. Lenin yo'li qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash texnikumining futbol jamoasi O'zbekiston o'rta maxsus o'quv yurtlari o'rtasida o'tkazilgan respublika sportakiadasida g'olib deb topildi. "Surxon" davlat xo'jaligi futbolchilari "Yosh paxtakor" sovrini uchun o'tkazilgan o'yinlarda muvaffaqiyatli qatnashib, 4-o'rinni egalladilar.

Qishloq fizkultura jamoalari jamoalari har xil turdagi viloyat va respublika musobaqalarida faol ishtirok etdilar. 1985 yilgi mavsumda O'zbekiston birinchiligi musobaqalarida Surxondaryo viloyatidan Jarqo'rg'on rayonidagi Norali Boymuradov nomli jamoa xo'jaligining "Mehnat" jamoasi ishtirok etdi. "Surxon" II liga masterlar jamoasi 1986 yildan boshlab qishloq ko'ngilli sport jamiyati "Paxtakor" ixtiyoriga o'tdi.

Ushbu 1985-1986 yillardagi ommaviy sport va sog'lomlashtirish tadbirlarining kalendar rejalari tahlil qilib, shuni ta'kidlash mumkin: bu davrda futbol bo'yicha ommaviy musobaqalar sezilarli darajada barqarorlashdi, ular ichki qishloq fizkultura jamoasi musobaqalaridan tortib, g'olib jamoalarning respublika musobaqalarida bellashuvlar o'tkazish tizimini nazarda tutuvchi ko'p turi yagona rejalashtirishga

asoslangan edi.

Masalan, 1965 yili quyidagi tadbirlar rejalashtirilib, o'tkazildi:

1. Qishloq fizkultura jamoalari o'rtasida viloyat Paxtakor kengashi kubogida 16 ta jamoa
2. Viloyat kengashi birinchiligi 6 ta jamoa musobaqalar ikki davrada uyida va safarda o'tkazildi.
3. O'rta maxsus o'quv yurtlari o'rtasida birinchilik musobaqalari 8 ta jamoa
4. "Yosh paxtakor" sovrini uchun "Paxtakor" viloyat kengashining tashkilot birinchiligi 12 ta jamoa.

Ushbu tadbirlarning xammasidan avval musobaqaning I va II bosqichlari amalga oshirildi. Buni "Paxtakor" rayon tashkilotlarining 1965 yilgi hisobotlari isbotlaydi. 1986 yili qishloq ko'ngilli sport jamiyatida futbol bo'yicha ommaviy musobaqalarni o'tkazish tizimini takomillashtirish yuzasida ishlar olib borildi.

1986 yilda rejalashtirilib, amalga oshirilgan musobaqalar:

1. 1965-1966 yillarda tug'ilgan futbolchilar o'rtasida qishki viloyat birinchiligi 10 ta jamoa.
2. Qishloq fizkultura jamoalari o'rtasida "Paxtakor" viloyat kengashi kubogi 28 ta jamoa.
3. 3 may kuni ikki guruhga bo'lingan 16 ta jamoa o'rtasida "Paxtakor" viloyat kengashining birinchiligi boshlandi. Musobaqalar ikki davrada o'tadi va 1986 yil sentyabrgacha davom etadi. № 16 ta jamoa.
4. 25 maydan 30 maygacha o'rta maxsus o'quv yurtlari o'rtasida "Paxtakor" viloyat kengashining birinchiligi bo'lib o'tadi.
5. Iyunda o'smirlar jamoalari o'rtasida "Yosh paxtakor" sovrini uchun o'yinlarni o'tkazish rejalashtirildi va o'tkazildi.

Ommaviy futboli rivojlantirishda Jarqo'rg'on, Sariosiyo, Sho'rchi, Angor, Lenin yo'li rayonlari "Paxtakor" tashkiloti ma'lum yutuqlarga erishdilar. Bu rayonlarda kubok o'yinlari, chempionatlar o'smirlar birinchiliklari muntazam ravishda o'tkazib turildi.

Qishloq fizkultura jamoalari orasida Jarqo'rg'on rayonidagi N.Boymuradov nomli, Sho'rchi rayonidagi Y.Oxunboboev nomli, Kirov nomli, Angor rayonidagi K.Marks nomli kolxozlar, "Surxon", Sariosiyo rayonidagi "Kommunizm", Angor rayonidagi "Tallimaron", Lenin yuli rayonidagi V.I.Lenin nomli, Budyoniy nomli davlat xo'jaliklarining alohida ajralib turganliklarini ta'kidlash o'rinlidir.

Ammo viloyatning qishloq rayonlarida futbolni rivojlantirishning hal qilinmagan masalalari mavjud edi. Masalan, Jarqo'rg'on, Sariosiyo, Lenin yuli rayonlarida o'smirlar jamoalari o'rtasida o'tkazilgan musobaqalarda aynan o'yinlarni takrorlash hollari kuzatiladi.

Ya'ni qishloq ko'ngilli sport jamiyatlari o'smirlar jamoalari o'rtasida sovrin o'yinlaridan keyin xuddi shu yoshdagi guruhlar o'rtasida "Yosh kuch" rayon ko'ngilli sport jamiyati, rayon sport komiteti tomonidan tashkil etilgan uchrashuvlar boshlandi yoki, aksincha, Boysun, Sherobod, Oltinsoy rayon tashkilotlarida qishloq fizkultura jamoalari jamoalari o'rtasida tashkil etilgan futbol musobaqalari ommaviylik talablariga javob bermas edi. Odatda, ularda bor-yo'g'i 6-7 tadan jamoa ishtirok etardi.

Jamoatchi kadrlar – jamoatchi trenerlar va sudyalari tayyorlash bo'yicha ishlarning yo'lga quyilishi qoniqarsiz edi. Masalan, 1985 yil mobaynida "Paxtakor" viloyat tashkilotida futbol bo'yicha sudyalari bilan bir martagina seminar va jamoatchi trenerlar bilan bir marta metodik kengash o'tkazilgan, xolos.

Viloyatda futbolni ommaviy rivojlantirish bo'yicha ishlarni yanada yaxshilash, qishloq futbolchilarning mahoratini oshirish, yetakchi jamoalar uchun sifatli rezervlari hozirlash uchun bolalar va o'smirlar jamoalari o'rtasida musobaqalar sonini ko'paytirish, qishloq jamoalarining sonini keskin ko'paytirish, Boysun, Sherobod, Denov, Oltinsoy rayonlarida ko'p sonli futbol maydonlari qurish, qishloq futbolchilarini sport formalari, inventarlar, jihozlar bilan ta'minlash masalasida katta kamchiliklar mavjud edi.

Mavjud qiyinchiliklarga qaramay, qishloq futbolchilari orasidan Ismoil Namozov aka-uka Baxtiyor va Ravshan Bazarovlar, Klim Gerfanov, Abdulhakim Xalikov, Marat Kabaev, Albert Saraev, Oleg Sushkov, Aleksandr Yarsev, Omon Turovov, Akmal Juraev, Komil Karimovlar yetuk sportchilar yetishib chiqdi.

Yuqori darajali futbolchini tarbiyalab chiqarishda bolalar va o'smirlar futbol maktablari muhim ishlarni amalga oshirib, Asad Rustamov, Ravshan Durmanov, Shuhrat Xujaqulov, Aleksandr Afanasev, Alisher Qambarov, Vladimir Andreev, Murod Xo'shbaqov, Shuhrat Xoliyarov, Igor Puskov, Albert Xolmulin, Rennat Fayruzov, Yerjan Yeralievlar kabi sportchilarni yetuk jamoamiz "Surxon" safiga qo'shdilar. Bunday mahoratli futbolchilarni yetkazib berishda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan trener Mosheev A.B., Yermolaev V.M, Namozov K., Ataxanov A. kabi trenerlarning xizmatlari kattadir. Trener kadrlarni tayyorlashda M.T.Oybek nomli davlat pedagogika oliygohini bitirib chiqqan mutaxassislar: Adham Ataxanov, Erkin Bakiev, A.Sarkisyan, Renat Shayruzov, Klim Gerfanov, Botir Kashkinbaev, Talmurad Xolbaev, Ismoil Namozov kabi o'nlab trener pedagoglar viloyatimizda futbol o'yining keng tarqalishiga yetuk futbol ustalarini tarbiyalab yetkazishda munosib hissa qushib kelmoqdalar.

Viloyatimiz shahar va qishloqlarida futbol bilan shug'ullanuvchilar soni kundan-kunga ko'payib tuman va xo'jaliklarda tuzilgan futbol jamoali, ya'ni "Texnik" (Sherobod), "Melnik" (Sho'rchi), "Surxon" ("Surxon davlat xo'jaligi), "To'palang" (Uzun) jamoalari respublika birinchiliklarida qatnashib o'zlarining ishtirokchiliklarini cheksiz hurmatiga sazovar bo'ldilar.

...Viloyatimizda yashovchi katta-kichik futbol o'yimini chin dildan sevishadi, yetuk trenerlar, pedagoglar va tashkilotchilar, shuningdek, sportchilar mashg'ulot o'tkazishlari uchun shart-sharoitlar yetarli. Bas, shunday ekan, Surxon vohasi futbolchilarining kelajagi porloq.

Bizda ommaviy va katta futbol rivojlanishi uchun shubhalanmasak ham bo'ladi.

"Avtomobilchi" Termiz futbol jamoasining o'ynagan jamoalar tarkibi va natijalari.

**"Avtomobilchi" Termiz va "Volan" Budapesht shaxri
jamoalari o'rtasidagi futbol bo'yicha xalqaro uchrashuv 1977 yil**

№	AVTOMOBILChI (Termiz)	№	“VOLAN” BUDAPEShT
1	A.Afanasev	1	Benesh Laslo
2	B.Kashkinbaev	2	Retxi Yanosh
3	N.Saprikin	3	Shebek D’erd
4	B.Gurman	4	Ebedi Ferens
5	B.Petuxov	5	Markush Bibor
6	V.Jukovskiy	6	Xaydu Yijef
7	G.Xabaev	7	Gubek Yanosh
8	V.Gluxov	8	Urban Laslo
9	R.Fayruzov	9	Feldesh D’erd
10	F.Alyukov	10	Markush Ferens
11	V.Gumakov	11	Bartushev Yanush
12	V.Kudryavsev	12	Shtefon Laslo
13	A.Kochenev	13	Molnar D’erd

XISOB: 0:0

Futbol bo'yicha Surxondaryo viloyati chempionatining yakuniy jadvallari

1984 yil Surxondaryo viloyati chempionati yakuni

№	Jamoalar nomi	Kattalar		O'smirlar		Ochkola r jami	Umumi y o'ri
		Ochkola r	O'rin	Ochkola r	O'rin		
1	Avtomobilist. Termiz shaxri	32	I	42	IX	74	IV
2	Neftvanik. Qumgo'rg'on shaxar	26	IV	63	I	89	I
3	Mexnat. Jarqo'rg'on shaxar	30	III	52	IV	82	II
4	Kolxozchi. Angor	22	V	49	V	71	VI
5	Sroitel. Termiz shaxar	30	II	41	X	71	V
6	Kiroves. Sho'rchi	15	VII	54	III	69	VII
7	Irrigator. Jarqo'rg'on shaxar	12	IX	38	VI	50	XI
8	Binokor. Angor	21	VI	60	II	81	III
9	Paxtakor. Lenin yo'li r/n	6	XI	46	VI	52	X
10	Do'stlik. Sherobod	12	VIII	44	VII	56	VIII
11	Kolxozchi. Sho'rchi	12	X	443	VII	55	IX

BOSH XAKAM:

N.DORONIN

L.SIMANOVICH

Surxondaryo viloyati DFSOP birinchiligi 1987 yilgi musobaqalar yakuniy natijalar
JADVALI

№	Jamoa nomi	Razryad	Shaxar, rayon	O'yinlar soni	Yutuq	Mag'lubiyat	Durang	To'plar nisbati	O'rin
1	ATP		Denov shaxri	18	13	3	2	53-20	I
2	Jayxun, RMZ		Termiz shaxri	18	17	1	-	71-19	II
3	Paxtachi, Do'stlik k/zi		Termiz rayoni	18	11	7	1	50-36	III
4	Oktyabr k/z Oktyabr		Qumqo'rg'on	18	12	3	3	47-20	IV
5	Trud		Lenin yo'li rayoni	18	11	7	-	38-51	V
6	Budyoniy Oq oltin		Qumqo'rg'on	18	12	6	-	39-24	VI
7	s/z Sho'rehi		Sariosiyo	18	9	6	3	35-30	VII
8	Navbaxor, Oltinsoy		Oltinsoy	18	8	6	4	38-40	VIII
9	Surxon		Sho'rchi	18	8	10	-	40-25	IX
10	Oq oltin		Gagarin	18	8	7	3	52-35	X
11	K/z im.Pimazarov		Lenin yo'li rayoni	18	8	10	-	35-30	XI
12	Oq oltin, Jarqo'rg'on		Sariosiyo	18	6	9	3	38-37	XII
13	Tallimaron		Jarqo'rg'on	18	7	11	-	31-27	XIII

14	Paxtakor	Angor	18	5	12	1	23-40	XIV
15	Do'stlik Komsomolobod	Sho'rchi	18	5	11	2	20-28	XV
16	Kooperat or	Gagarin	18	5	12	1	19-35	XVI
17	Yoshlik	Denov	18	2	15	1	9-30	XVII
18	Lenin k/z Lenin	Sherobod	12	1	10	1	8-24	XVIII
19	Stodlik Komsomolobod	Gagarin	12	1	10	1	6-20	XIX
20	Sayrob Bovsun	Bovsun	11	-	11	-	3-18	XX

NATIJALAR JADVALI
Futbol bo'yicha viloyat chempionati yakuniy jadvali 1988 yil uchun

№	Jamoa nomi	1	2	3	4	5	6	7	8	9	To'plar nisbati	0	Ochko jami	O'rin	To'plar soni
1	Texnik. Sherobod shaxar	■	2	3:0 2	4:0 2	5:2 2	1:0 2	3:4 2	2	6:1 2	29:15	14	28	1	48-22
2	Surxon	0	■	2:1 2	3:0 2	1:2 20	5:3 2	0:1 2	3:2 2	3:2 2	27:11	12	22	11	45-21

3	Mexnat. Jarqo'rg'on	0:3	1:3	■	1:2	4:0	1:4	1:4	8:0	5:0	25-7	13	17	111	
4	Neftvanik. Qurqo'rg'on	0:1	0:3	2:1	■	6:1	3:0	4:4	2	2	17-21	6	17	IV	32-34
5	Kolxozchi. Angor	2:5	2:1	0:4	1:6	■	0:3	3:2	7:9	3:2	19-15	9	15	VI	37-47
6	Binokor. Angor	0:1	2:5	4:1	0:3	3:0	■	0:2	2	2	17-15	8	13	VII	
7	Oq oltin. Sherobod	4:3	1:0	1:2	4:4	2:3	2:0	■	3:0	2	14-25	4	16	V	31-37
8	Elbayon. Sho'rehi	0	2:2	0:5	0:5	0	2:7	2	■	2	12-33	2	6	VIII	23-41
9	Shodlik. Gagarin	2:6	2:3	0	0	0	2:3	0	0	0	9-29	4	4	IX	16-41

1989 yil futbol bo'yicha viloyat birinchi ligining natijalar jadvali

№	Jamoalar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	Y u	D	M	O	U
1	Oq oltin. Uzun	■	3-2	1-2	0-1	2-6	n/ya	0-2	5-2	n/ya	3-1	5-0	n/ya	n/ya	4	0	8	8	XI
2	Avtomobilist	2-5	■	0-3	3-0	1-1	1-1	3-2	6-1	3-3	1-1	5-2	1-0	4-2	6	3	2	16	V
3	Neftvanik	1-0	3-0	■	2-1	2-2	0-3	3-2	6-2	4-1	0-0	8-1	1-0	0-0	8	2	0	19	I
4	Mexnat	1-0	0-3	1-2	■	1-0	4-1	3-3	2	5-1	2-1	3-0	8-1	3-0	8	1	2	17	II

5	Kolxozchi. Angor	6-3	1-1	2-2	0-1	■	2-1	0-2	2-1	1-1	2-1	7-0	2-0	3-3	6	4	2	16	IV
6	Stroitel	$\frac{2}{2}$	3-0	1-1	1-4	1-2	■	5-2	$\frac{2}{2}$	3-1	4-3	2-1	4-1	3-2	8	0	2	17	III
7	Kiroves	2-0	2-3	2-3	3-3	2-0	2-5	■	5-0	2-3	4-3	9-1	0-2	3-1	6	1	5	13	VI
8	Oq oltin. Sherobod	2-5	1-0	2-6	n/y a	1-2	n/y a	0-6	■	2-2	1-4	1-1	0-3	0-2	0	2	10	2	XII
9	Irrigator	$\frac{2}{2}$	3-1	1-4	1-5	1-1	1-3	3-2	2-2	■	2-2	6-0	1-1	3	3	5	4	1	VI
10	Binokor	$\frac{1}{3}$	1-1	0-1	1-2	1-2	3-4	3-4	4-4	2-2	■	2-1	1-2	1	3	3	6	9	X
11	Paxtakor	$\frac{2}{2}$	0-1	0-1	1-3	0-2	1-4	2-0	3-0	1-1	2-1	■	2-2	2	0	1	11	1	XI
12	Do'stlik	$\frac{2}{2}$	0-1	0-1	1-8	0-2	1-4	1-9	0-6	7-2	4-1	3-1	■	2	4	2	6	1	IX
13	Kolxozchi	$\frac{2}{2}$	2-4	0-0	0-3	3-3	3-3	2-3	2-0	5-3	0-1	2-0	2-2	■	4	3	5	1	VI

N.DORONIN

BOSH XAKAM:

1990 yilgi Ye.M. Voronkov xotirasiga bag'ishlangan sovrin uchun futbol turniri

№	Jamoalar	1	2	3	4	5	6	O'rin	Final
1	Surxon. Termiz	■	3:1 2	5:0 2	6:0 2	11:0 2		8	1. Surxon- Binokor-4:1
2	Stroitel. Termiz	1:3 0	■	2:1 2	3:3 1	10:0 2	16- 7+9	5	2. Stroitel- Tupalang 3:0
3	Vodnik. Termiz	0:5 0	1:2 0	■	0:3 0	2:1 2	3- 11-8	2	3. Stroitel - Surxon 0:4
4	Avtomobilist. Termiz	0:6 0	3:3 1	3:0 0	■	4:0 2	10- 9+1	5	
5	Molodyojnyy	0:11 0	0:10 0	1:2 0	0:4 0	■	1- 27-26	0	

1	Oq oltin. Uzun	■	2:1 2	3:1 2	4:1 2		5- 3+2	6	I
2	Melnik. Sho'rchi	1:2 0	■	1:1 1	3:0 2		5- 3+2	3	II
3	Neftyanik. Qumqo'rg'on	1:3 0	1:1 1	■	4:3 2		6-7- 1	3	III
4	Kiroves. Sho'rchi	1:4 0	0:3 0	3:4 0	■		4- 11-7	0	IV

1	Mexnat. Jarqo'rg'on	$\frac{1:2}{0}$	$\frac{0:3}{0}$	$\frac{2:2}{1}$	$\frac{3:2}{2}$				III	
2	Surxon. s/z Surxon	$\frac{2:1}{2}$	$\frac{2:3}{0}$	$\frac{4:1}{2}$	$\frac{5:1}{2}$				II	
3	Binokor. Angor	$\frac{3:0}{2}$	$\frac{3:2}{2}$	$\frac{3:1}{2}$	$\frac{3:0}{2}$				I	
4	Texnik. Sherobod	$\frac{2:2}{1}$	$\frac{1:4}{0}$	$\frac{1:3}{0}$	$\frac{3:0}{2}$				IV	
5	Kolxozchi. Angor	$\frac{2:3}{2}$	$\frac{1:5}{0}$	$\frac{0:3}{0}$	$\frac{0:3}{0}$				V	

3.4. Termiz davlat universiteti “TerDU-Surxon»

ayollar futbol jamoasi faxrimiz va iftixorimiz

Termiz davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti, jismoniy tarbiya va sport o'yinlari kafedrasini mudiri Amonturdiyev Baxtiyor Qurbonovich “TerDU-Surxon” ayollar futbol jamoasi rahbari, taniqli sportchi, jismoniy madaniyat va sport sohasida yetuk ustoz. Mehnat staji 28 yil bo'lib, buyon mazkur “TerDU-Surxon” ayollar futbol jamoasi ga 2008 yildan ishlab kelmoqda. B.Amonturdiyev ayollar futboli bo'yicha respublika va Xalqaro miqyosidagi turli musobaqalarda ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan.

U ayollar futboli bo'yicha o'tkaziladigan respublika va xalqaro musobaqalarning tashkiliy ishlarida va sport tadbirlarini o'tkazishda faol ishtirok etib, respublikamiz uchun yuqori malakali sportchi-kadrlarni yetishtirib berishda jonbozlik ko'rsatib kelmoqda.

B.Amonturdiyev o'zining o'qituvchi va murabbiylik faoliyati davomida ko'pgina respublika va xalqaro musobaqalarning g'olibi va sovrindorlarini tayyorlagan bo'lib, uning shogirdlari O'zbekiston milliy terma jamoasi tarkibida xalqaro musobaqalarda Vatanimiz sharafiga munosib himoya qilmoqdalar.

Uning shogirdlari 2007 yil “Universiada-2007” musobaqasida futbol (o'g'il bolalar) jamoasi faxrli 2-o'rinni, 2005 yil “TerDU-Surxon” ayollar futbol jamoasini tashkil qilgan va 2005 yil O'zbekiston chempionatida faxrli 3-o'rinni egalladi, 2006 yil Pliyajny futbol (qum usti) musobaqasida faxrli 3-o'rinni egalladi, 2008 yil ayollar o'rtasida Futzal bo'yicha O'zbekiston chempionati musobaqasida faxrli 2-o'rinni egalladi. 2013 yil O'zbekiston chempionati I-liga musobaqalarida faxrli 3-o'rinni egalladi, 2014 yil O'zbekiston chempionati I liga musobaqalarida faxrli 2-o'rinni egalladi, 2015 yil O'zbekiston chempionati I-liga musobaqalarida faxrli 1-o'rinni egalladi. Shuningdek, 2015 yil O'zbekiston chempionati “Yashil maydon malikalari” musobaqasida faxrli 1-o'rinni egalladi. 2017 yil futbol bo'yicha Respublika “Kamolot kubogi” musobaqasida faxrli 1-o'rinni egalladi va 2017 yil Surxondaryo viloyati birinчилиги musobaqasida faxrli 3-o'rinni egallab jamoa shunday yutuqlarga erishgan.

B.Amonturdiyev fidoyiligi, tashabbuskorligi va zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan ado etishi bilan mamlakatimiz sporti rivojiga hamda Ayollar futbolini Surxondaryo viloyatida tashkil qilganva yanada rivojlantirishga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan o'qituvchi va murabbiy sifatida Respublika oliy ta'limi va Termiz davlat universiteti xodimlari va o'qituvchilari orasida hurmat va mehr qozonib kelmoqda.

“TerDU-SURXON” ayollar futbol jamoasi mardlik va jismoniy kamolot sari

Surxondaryo viloyatida birinchi bo'lib 2005 yil «TerDU-Surxon» ayollar futbol jamoasi Termiz davlat universiteti qoshida tashkil topgan. Jamoa bugungi kunga qadar ko'zga ko'rinarli yutuqlarni qo'lga kiritgan. Masalan, 2006 yil ayollar o'rtasida tashkil etilgan O'zbekiston kubogida faxrli 3 o'rinni qo'lga kiritib, bronza medali sovrindori bo'lgan, 2007 yilda esa ayollar o'rtasida futzal bo'yicha O'zbekiston birinчилигida faxrli 2-o'rinni egallab kumush medalni qo'lga kiritgan. 2008 yil jamoa Qum ustida futbol o'yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib 3-o'rinni egalladi va bronza

medalini qo'lga kiritdi. 2010 yilga kelib «TerDU-Surxon» ayollar futbol jamoasi moliyaviy inqirozga uchradi va jamoa tugatildi.

2013 yilga kelib Viloyat xokimligi va Termiz davlat unversiteti rahbariyati tomonidan jamoa qayta tuzildi va viloyat xokimiyati tomonidan 77 million so'm miqdordagi mablag' ajratildi va jamoa O'zbekiston birinchiligida muvaffaqiyatli ishtirok etdi. «TerDU-Surxon» ayollar futbol jamoasi tarkibida 2 ta murabbiy xamda 18 nafar qizlardan iborat bo'lib, ular viloyatimizning kollej, maktab xamda universitet talaba qizlaridan tashkil topgan.

2013 yili «TerDU-Surxon» ayollar futbol jamoasi bir yil mobaynida bir qator yutuqlarni qo'lga kiritdi, ular quyidagilar: «TerDU-Surxon» ayollar futbol jamoasi O'zbekiston kubogida qatnashdi. 2013 yil O'zbekiston birinchiligida 10 jamoa ichida faxrli 3-o'rinni egallab, bronza medallari bilan taqdirlanib oliy liga o'yinlariga yo'llanmani qo'lga kiritdi. 2014 yil O'zbekiston birinchiligida 8 jamoa ichida faxrli 2-o'rinni egallab, kumush medallari bilan taqdirlandi.

2015 yil O'zbekiston birinchiligida 9 jamoa ichida faxrli 1-o'rinni egallab, oltin medallari bilan taqdirlanib oliy ligaga yana yo'llanmani qo'lga kiritishdi. 2019 yildan jamoa Termiz davlat universitetidagi bazasida o'quv-mashg'ulotlar yig'inlarini doimiy ravishda olib bormoqda.

«TerDU-Surxon» ayollar futbol jamoasi O'zbekiston birinchiligida muvaffaqiyatli ishtirokidan so'ng oliy liga o'yinlari yo'llanmasini qo'lga kiritgan bo'lsa-da, moliyaviy muammolar sababli jamoa oliy liga o'yinlarida qatnasha olmadi.

2018 yil TerDU rektori tomonidan mablag' bilan to'liq ta'minlandi xamda jamoa 2018 yilda 4 turdan iborat bo'lgan O'zbekiston birinchi ligasida ishtirok etib, 3-faxrli 3-o'rinni egallab bronza medaliga sazovor bo'lishdi. Kelajakda jamoamiz yaxshi o'rinlarni ko'rsatadi, degan umiddamiz.



O'zbekiston chempionati 2018 yil, TerDU "Surxon" futbol jamoasi, Toshkent shahar, Qibray tumani, 3-o'rin



2018 yil Ayollar futboli bo'yicha O'zbekiston chempionatining ochilish marosimi



2013 yil O'zbekiston chempionati 3-o'rin



2016 yil Samarqand shaxrida ayollar futbol o'rtasida bo'lib o'tgan "Yashil maydon maliklari" musobaqasi, 1-o'rin

САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ ҲОКИМЛИГИ
ХОТИН-ҚИЗЛАР ҚҶМИТАСИ

2016 йил 2-6 август кунлари Самарқанд шаҳрида бўлиб ўтган футбол бўйича қизлар ўртасида
“Яшил майдон маликалари” республика спорт мусобақаларининг минтақавий bosқичи
штирокида

Н. Раббимова

Вилоят хотин-қизлар қўмитасининг

ФАХРИЙ ЁРЛИГИ

бизга тақдирланади.



Вилоят ҳокими ўринбосари,
хотин-қизлар қўмитаси раиси

Н. Раббимова





2015 yildagi Ayollar futboli bo'yicha O'zbekiston chempionatidan o'yin lavxalari

FIFA®



АССОЦИАЦИЯ ЖЕНСКОГО ФУТБОЛА,
ЖЕНСКОГО МИНИ-ФУТБОЛА (ФУТЗАЛ)
И ПЛЯЖНОГО ФУТБОЛА УЗБЕКИСТАНА

ДИПЛОМ

I СТЕПЕНИ
НАГРАЖДАЕТСЯ

Амонтурдиев Бахтиёр Курбанович
главный тренер

ФК "ТерДУ СУРХАН" город Термез
ПОБЕДИТЕЛЬ VI ПЕРВЕНСТВА УЗБЕКИСТАНА

ПО ФУТБОЛУ 2016 года

14.05.-17.11.2016 г. Таш. область, п. Кибрай С/К «Кибрай»

Султанов А.С.
Председатель Ассоциации
женского футбола Узбекистана



4-BOB. FUTBOLDA HAKAMLIK QOIDALARI

4.1. Hakamlik

Hakam vakolati. Har qanday match hamma vakolatga ega bulgan hakam tomonidan nazorat qilinadi va o'yin qoidasiga rioya qilinishini ta'minlaydi.

Hakamning huquqi va majburiyatlari. O'yin qoidasiga rioya qilinishini ta'minlaydi;

- matchning borishini o'z yordamchilari bilan nazorat qiladi;
- foydalanilgan har qanday to'pni 2-qoida talablariga mos kelishini ta'minlaydi;
- o'yinchilar kiyimi 4-qoida talablariga mos kelishini ta'minlaydi;
- o'yin xronometrajini va matchni yozib boradi;
- u o'z ixtiyoriga ko'ra o'yinni-to'xtatishi, vaqtinchalik to'xtatishi yoki har qanday qoida buzilishida o'yinni umuman to'xtatib qo'yishi mumkin;

- to'xtatishi, vaqtinchalik to'xtatishi yoki chetdan bo'lgan har qanday aralashuv tufayli matchni umumiy to'xtatib qo'yishi mumkin;

- agar uning fikricha, o'yinni jiddiy jarohat olgan va o'yinchini maydondan olib chiqilishini ta'minlashi kerak bo'lsa matchni to'xtatadi;

- agar uning fikricha, o'yinchi unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan jaroxat olgan bo'lsa, to'p o'yindan chikmaguncha o'yinni davom ettirishiga ruxsat berishi mumkin;

- o'yinchidan qon oqayotgan bo'lsa, uning maydondan chiqishini ta'minlaydi. Hakam qon oqishining to'xtaganiga ishonch xosil qilib, signal bergandan so'ng o'yinchi maydonga qaytishi mumkin;

- qachonki o'yinchi birdaniga bir nechta qoida buzilishiga yo'l qo'ysa, uni muhimroq (og'irroq) bo'lgan qoida buzilishi uchun jazolaydi;

- ogohlantirishi yoki chiqarib yuborish bilan jazolanadigan qoida buzilishlariga yo'l qo'yg'an o'yinchilarga nisbatan intizom choralarini qabul qiladi. U bunday choralarni tez qabul qilishga majbur emas, lekin to'p o'yindan chiqqan zahotiyiq qabul qilishi kerak;

- o'zlarini tarbiyali, madaniyatli tutmagan jamoaning rasmiy kishilariga nisbatan chora qabul qiladi va o'z ixtiyoriga ko'ra maydondan (texnik zonadan) chiqarib yuborishi mumkin;

- hakam o'zi ko'rmay qolgan xolatlar bo'yicha o'z yordamchilari tavsiyasiga asoslanib harakat qiladi;

- begona shaxslar maydonda bo'lmashliklarini ta'minlaydi;

- match vaqtinchalik to'xtatilgandan keyin uni yangilaydi;

- match davomida o'yinchilarga yoki jamoaning rasmiy shaxslariga nisbatan qo'llanilgan intizom choralari va xar xil matchdan oldin, match davomida yoki matchdan so'ng yuz bergan xolatlar bo'yicha tegishli tashkilotga bildirishnoma beradi.

Hakam qarori. O'yinga bog'liq voqealar bo'yicha hakam qarori qat'iy hisoblanadi. Hakam agar u qarorining xato ekanligini yoki buni yordamchilari tavsiyasi bilan tushunib yetsa o'zgartirishi mumkin, lekin shu shart bilanki u hali o'yinni yangilamagan bo'lishi kerak.

4.2. Xalqaro yig'in qarori

Hakam (yoki sharoitga qarab yordamchi yoki zahiradagi hakam):

- har qanday o'yinchi rasmiy shaxs yoki tomoshabin tomonidan olingan jarohat uchun;
- har qanday mulkka yetkazilgan zarar uchun;
- matchni tashkil qilish, o'tkazish va boshqarishda zarur bo'lgan yoki o'yin qoidasi talablariga mos qabul qilingan qarorlar oqibatida yuzaga kelgan yoki yuz bergan har qanday klub, kompaniya, uyushma yoki tashkilotga yetkazilgan har qanday zarar uchun fuqorolik javobgarligiga tortilmaydi.

Bularga kirishi mumkin:

- maydon holatiga yoki ob-havo sharoitiga ko'ra match o'tqazishga ijozat berish-bermaslik;
- biron-bir sababga ko'ra matchni to'xtatish to'g'risidagi qaror;
- match davomida foydalaniladigan uskuna yoki jihozlar darvoza ustuni, to'sini, burchak bayroqlari va to'pni qo'shgan holda holati to'g'risidagi qarori;
- tomoshabinlar aralashuvi sababli yoki tomoshabinlar uchun ajratilgan zonada yuz bergan muammolar uchun matchni to'xtatish yoki to'xtatmaslik to'g'risidagi qarori;
- jarohat olgan o'yinchiga tibbiy yordam ko'rsatilishi uchun maydondan chiqishiga ruxsat berish uchun o'yinni to'xtatish yoki to'xtatmaslik to'g'risidagi qarori;
- jarohat olgan o'yinchidan unga tibbiy yordam ko'rsatish uchun maydondan chiqishini so'rash yoki talab qilishi to'g'risidagi qarori;
- o'yinchiga ayrim kiyim yoki epikirovka predmetlarini taqib yurishga ruxsat berish yoki ruxsat bermaslik to'g'risidagi qarori;
- har qanday shaxslarga (jamoaning yoki o'yingoh rasmiy kishilari, xavfsizlik xizmati vakillari, suratchi yoki boshqa ommaviy axborot vakillarini qo'shgan holda) to'g'ridan-to'g'ri maydon yaqinida bo'lishlariga ruxsat berish yoki ruxsat bermaslik (uning majburiyatlari doirasida bo'lsa) to'g'risidagi qarori;
- o'yin qoidasiga mos keluvchi yoki FIFA reglamenti yoxud qoida shartlariga ko'ra uning vazifasiga kiruvchi boshqa har qanday qaror.

Zahiradagi hakam tayinlanadigan musobaqa yoki turnirlarda, uning roli va majburiyati xalqaro yig'in tomonidan tasdiqlangan ko'rsatmaga mos kelishi kerak.

4.3. Hakam yordamchilari

Majburiyati. Ikki nafar hakam yordamchisi tayinlanadi va ularning vazifasiga (hakam qaroriga bog'liq):

- qachonki to'p maydon chizig'idan tashqariga to'liq chiqsa;
- qaysi jamoa burchak to'pi, darvozadan zarba yoki to'p tashlash huquqiga ega bo'lganda;
- qachonki o'yinchi o'yindan tashqari holatda bo'lganligi uchun jazolanganda;
- qachonki o'yinchi almashtirish to'g'risida iltimos bo'lsa;
- hakam ko'rish maydonidan tashqarisida yuz bergan intizomsiz xulq yoki boshqa har qanday holatlar bo'yicha;

- qachonki qoida buzilishi sodir etilganda shu joyga bosh hakamdan ko'ra hakam yordamchilari yaqin bo'lgan holatlarda (qisman jarima maydonidan yuz bergan qoida buzilishlari ham kiradi);

- shunday hollarda ya'ni qachonki 11 m li jarima to'pi bajarilayotganda darvozabon to'pga zarba berilishidan oldin joyidan oldinga siljisa, to'p esa chiziqni kesib o'tsa signal berish kiradi.

Yordam. Yordamchilar hakamga matchni o'yin qoidasiga mos o'tkazilishiga yordam beradilar. Yordamchilar 9,15 m masofasiga rioya qilinishiga yordam berish uchun maydon doirasiga kirish mumkin.

Hakam o'z yordamchisini asoslanmagan aralashuv yoki qo'pol muomala holatlarida vazifasidan ozod qiladi va tegishli tashkilotga bildirishnoma beradi.

4.4. Match davomiyligi

O'yin vaqti. O'yin 45 daqiqadan 2 taym davom etadi (agar hakam va ikki jamoa vakillari boshqa variantni kelishmagan bo'lsa). Har qanday o'yin vaqtini o'zgartirish to'g'risidagi kelishuvga (masalan, yorug'likning yetishmasligi sababli har qaysi taymning 40 daqiqagacha qisqartirilishi) o'yin boshlangunga qadar erishilgan bo'lishi kerak va bu holat musobaqa talablariga javob berishi lozim.

Taymlar oralig'idagi tanaffus. O'yinchilar 2 taym oralig'ida tanaffus qilishliriga haqlari bor. Taym oralig'idagi tanaffus 15 daqiqadan oshmasligi kerak. Musobaqa tartibida taymlar oralig'idagi tanaffus vaqti ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Taymlar orasidagi tanaffusning davomiyligi faqat hakamning roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin.

Qo'shib berilgan vaqt. Quyidagi holatlarga ketgan vaqt uchun ikki taymning har qaysisiga qo'shib beriladi:

- o'yinchilarni almashtirishga;
- o'yinchining jarohati jiddiyligini aniqlashga;
- jarohatlangan o'yinchilarga tibbiy yordam ko'rsatish uchun ularni maydon tashqarisiga olib chiqishga;
- qasddan o'yin vaqti cho'zilsa;
- boshqa har qanday holatlarda qo'shilgan vaqtning davomiyligini faqat hakam aniqlaydi.

11 metrlik to'p. Har qaysi ikki taymning asosiy vaqtning oxirgi daqiqasida yoki qo'shib berilgan vaqtning oxirgi daqiqasida belgilangan 11 metrlik jarima to'pi uchun aloxida vaqt ajratiladi.

Oxirigacha o'ynalmagan match. Agar musobaqa nizomida boshqacha xolatlar bo'lmasa oxirigacha o'ynalmagan match qayta o'ynaladi.

4.5. O'yin boshlanishi va yangilanishi

Dastlabki shartlar. Dastlabki boshlanishidan oldin qur'a tashlash o'tkaziladi va jamoalardan biri darvozani tanlash huquqini oladi.

Qarshi jamoa matchda boshlang'ich zarbani bajaradi.

Qur'a tashlash tufayli darvozani tanlagan jamoa, ikkinchi taymda boshlang'ich zarbani bajaradi.

Matchni ikkinchi taymida jamoalar darvoza almashadilar.

Boshlang'ich zarba. Boshlang'ich zarba bu o'yinni boshlash yoki o'yinni yangilash uchun qo'llaniladigan usuldir.

1. Match boshida.
2. Urilgan goldan so'ng.
3. Ikkinchi taym boshida amalga oshiriladi.

Boshlang'ich zarbani bajarish holatlari.

1. Hamma o'yinchilar o'z maydonida bo'lishlari kerak.
2. Boshlang'ich zarbani bajarish huquqini qo'lga kirita olmagan jamoa o'yinchilari to'p o'yinga kiritilmaguncha to'pdan 9,15 m masofa uzoqlikda turishlari kerak.
3. To'p harakatsiz holatda maydon markazida turadi.
4. Hakam signal beradi.
5. To'pga zarba berilib, to'p oldinga harakatlangandan so'ng to'p o'yinda hisoblanadi.

6. Boshlang'ich zarbani bajargan o'yinchi to'p boshqa o'yinchiga tegmaguncha ikkinchi marotaba tegishga haqqi yo'q.

Jamoalardan biri gol urgandan so'ng boshlang'ich zarba boshqa jamoa o'yinchisi tomonidan bajariladi.

Qoida buzilishi va jazo. Agar boshlang'ich zarbani bajargan o'yinchi to'pga boshqa bir o'yinchi tegmasdan oldin ikkinchi marotaba tegsa:

1. Qoida buzilgan joydan raqib jamoa o'yinchisiga erkin to'p tepish huquqi beriladi.

Har qanday boshlang'ich zarba bajarish tartibi buzilganda:

- boshlang'ich zarba qaytariladi.

Bahsli to'p. "Bahsli to'p" – bu o'yinda bo'lgan vaqtda o'yin qoidasida ko'zda tutilmagan holat bo'yicha vaqtinchalik to'xtatilgandan so'ng o'yinni yangilash usulidir.

Bahsli to'pni bajarish holati. Hakam o'yinni to'xtatganda to'p qacarda bo'lsa o'sha joydan to'pni tashlab beriladi. To'p yerga tegishi bilan o'yin davom ettiriladi.

Qoida buzilishi va jazo. Bahsli to'p qayta o'ynaladi:

- agar o'yinchi to'p yerga tegmasidan oldin tegsa;
- agar to'p yerga tekkandan so'ng maydon tashqarisiga chiqib ketsa va bunda hech qaysi o'yinchi to'pga tegmagan bo'lsa.

Muhim holatlar. Himoyalalanuvchi jamoa foydasiga uning darvoza maydoni chegarasida erkin yoki jarima to'pi belgilansa darvoza maydonining har qanday nuqtasidan bajariladi.

Hujum qiluvchi jamoa foydasiga belgilangan raqib jamoa darvoza maydoni chegarasidagi erkin to'p darvoza maydoni chizig'idan qoida buzilgan joyga yaqin nuqtada bajariladi.

Darvoza maydoni ichida vaqtinchalik to'xtatishdan so'ng o'yinni yangilash uchun qo'llaniladigan "bahsli to'p", darvoza chizig'iga parallel holatda darvoza maydoni chizig'ida o'yin to'xtatilgan vaqtda to'p qacarda bo'lgan bo'lsa, shu joy yaqinidagi nuqtadan o'ynaladi.

4.6. Futbol bo'yicha zamonaviy texnik so'z va iboralar

№	So'zlar	inglizchasi	Ma'nosi
1.	Autsayder	Outsider	Musobaqa jadvalida past natijalarni qayd etgan jamoalar ro'yxati
2.	Aut	Out	O'yin davomida to'pni maydonning yon chizig'idan tashqariga chiqish holati
3.	Avtogol	Autogoal	O'yin davomida raqib darvozasini ishg'ol etish davomida himoyalananayotgan jamoa futbolchilarini o'z darvozasiga gol urish holati
4.	Hakam	Referee	Musobaqa sharoitida futbolchilar tomonidan bajariladigan harakatlarni qonun qoida asosida boshqarib turuvchi shaxs
5.	Blisturnir	Blitz tournament	Musobaqalarni qisqa vaqt davomida o'tkazish
6.	Muxlis	Fan	O'yin davomida jamoaga ishqibozlik qiluvchi shaxs
7.	To'purar	Goal scorer	Musobaqada davomida eng ko'p darvozaga zarba berib, ishg'ol etgan futbolchilar
8.	Shtanga	Rod, barbell	Darvozaning to'sinlari ustiga yotqazilgan ustun (2.44m)
9.	Darvozabon maydonchasi	Goalkeeper's field	O'yin davomida darvozabonga tegish mumkin bo'lmagan maydon qismi
10.	Jarima maydonchasi	Penalty area	O'yin davomida darvozabonning qo'l bilan o'ynashga ruxsat etilgan ap 11 m jarima to'plarni belgilangan xudud
11.	Gol	Goal	O'yin davomida darovzani ishg'ol etilishi
12.	O'yindan tashqari holat	Offside (out of the game)	To'p uzatilish vaqtida qarshi jamoa o'yinchisi to'pga nisbatan hamda oldida qarshi jamoaning ikkita o'yinchisi bo'lmagan holt
13.	Darvozabon	Goalkeeper	O'yin davomida o'z darvozasini himoya etuvchi o'yinchi
14.	Getra	Gaiter	Futbolchilarning maxsus oyog'iga kiyiladigan paypog'i
15.	Dribling	Dribbling	O'yin dvomida futbolchining 2-3 ta raqibni aldab o'tish harakatlari
16.	Diskvalifika-siya	Disqualification	Musobaqada jamoani yoki o'yinchini ma'lum muddatga chetlashtirish
17.	Dispatcher	Dispatcher	O'yin davomida jamoadoshlarini to'p bilan ta'minlovchi asosiy o'yinchi

18.	Qur'a tashlash	Toss, sortation	Musobaqa sharoitida jamoalarni bir birlari bilan o'yinlarini aniqlovchi tizim
19.	Talabnoma (zayavka)	Application, request	Jamoalarning musobaqada ishtirok etish uchun beriladigan futbolchilar ro'yxati
20.	Penalti	Penalty	Jarima maydoni ichida qoidani buzilganida, 11 m jarima to'pini amalga oshiriladigan holat
21.	Pozitsion hujum	Position attack	Hujum yoki javob hujumini uyushtirishda o'yinchilarni juda ko'p uzatishlar davomida amalga oshirish, hujumni uzoq tashkillashtirish
22.	Qarshi hujum	Counterattack	Raqibdan to'pni olib qo'yilganidan keyin bir-ikki to'p uzatishda raqib darvozasiga havf solish, hujumni tez yakunlash harakatlari
23.	Bahsli to'p	Controversial ball	«O'yin qoidalari»da ko'rsatilmagan hollar qoida buzilsa va uchrashuv vaqtinchalik to'xtatilsa, uchrashuvni «baxsli to'p» orqali davom ettirish
24.	Erkin to'p	Free ball (kick)	To'pni o'yinga kiritishning bir usul xisoblanib o'yinning qonun qoidasida keltirilmagan qoida buzilishida foydalaniladi.
25.	Standart holatlar	Standard situations	Futbolda standart vaziyatlarga quyidagilar kiradi: to'pni uyin markazidan boshlash; yon chiziqdan tupni tashlash burchak to'plari; jarima va erkin to'plar; 11 metrlik jarima to'plari kiradi
26.	Nazoratchi hakam	The supervising referee	Uchrashuv yoki musobaqani yuqori saviyada qonun qoida asosida o'tishini to'g'ridan-to'g'ri javobgan shaxs
27.	Texnik hudud	Technical area	Murabbiy va zaxiradagi futbolchilar joylashgan joy
28.	Butsi	Boots	O'yin davomida futbolchilar o'yin olib borishda kiyiladigan maxsus oyoq kiyimi
29.	Epikirovka	Outfit	O'yin davomida futbolchilarning maxsus ustki kiyimi (Futbolka yoki kuylak, short (agar shortning ichida ichki kiyim bo'lsa, bu xam shortning rangida bo'lishi zarur), Getralar, Himoya vositalari (Shitki), Oyoq kiyim)
30.	Eks chempion	Ex-champion	Oldingi musobaqada chempionalik nashidasini surgan jamoa
31.	Sariq	Yellow card	Agar o'yinchi quyidagi 7 qoida buzilish

	kartochka		holatlarining birini sodir etsa, xakam tomonidan sariq kartochka ko'rsatish orqali ogoxlantiriladi: 1. Sport qoidalariga xilof ravishda harakat qilsa; 2. So'zlari yoki harakatlari orqali hakamning qaroriga norozilik bildirsa; 3. O'yin Qoidalarini doimiy ravishda buzsa; 4. Sun'iy ravishda o'yinni davom etishiga halaqit qilsa; 5. Burchak, jarima to'pi yoki erkin zarba amalga oshirilayotgan paytda masofaviy joylashishni buzsa; 6. Hakamning ruxsatisiz maydonga chiqsa yoki maydonga qaytsa; 7. Hakamni ruxsatisiz ongli ravishda maydonni tark etsa
32.	Qizil kartochka	Red card	Hakam tomonidan qizil kartochka ko'rsatish orqali ogoxlantiriladi: 1. O'ta qo'pol va xavfli harakatni amalga oshirsa; 2. O'zini juda betartib xolda tutsa; 3. Raqib o'yinchisi yoxud boshqa kimsaga nisbatan tupursa; 4. To'pni atayin qo'li bilan ushlab qolish orqali raqib jamoa o'yinchilarining to'pni darvozaga kiritishiga xalaqit qilsa (darvozabon o'z jarima maydonchasi ichida to'pni qo'li bilan o'ynashi bundan mustasno); 5. Erkin zarba, jarima to'pi yoki 11-metrlik jarima to'pi belgilash bilan jazolanuvchi qoida buzilishi holatini sodir etgan holda zarba berish holatiga chiqayotgan raqib o'yinchisini to'xtatib qolsa; 6. Xaqoratli, odobsiz so'z va iboralarni ishlatsa; 7. Bir o'yinda ikki marta sariq kartochka bilan ogoxlantirilsa.
33.	Yon hakam	Linesman	Bo'lajak uchrashuvni odilona o'tishini taminlashda bosh xakam yordamchisi xisoblanib, o'zining yarim maydonidagi

			qonun-qoidalar buzilishini o'z bayrog'i bilan ishora qilish orqali bosh xakamga ko'rsatadi.
34.	Mug'ombirlik (simulyatsiya)	Simulation	O'yin davomida hakamni chalg'itish orqali o'yin faoliyatini ta'sir etish
35.	Derbi o'yinlar	Derby matches	Bir mintaqada yoki shaharda joylashgan jamoalarning o'zaro o'yin olib borishi

5-BOB. FUTBOL O'YINI TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

5.1. Futbol o'yin texnikasi

Qo'yilgan maqsadga erishmoq uchun o'yinda xilma-xil tarzda uyg'unlashtirib qo'llaniladigan maxsus usullar cho'plami futbol texnikasini tashkil etadi.

Texnik usullar – bu futbol o'yinini vujudga keltirish vositasi demak. Yuksak sport natijalariga erishish ko'p jihatdan futbolchining ana shu xilma-xil vositalarni qanchalik to'liq bilishiga, raqib jamoa o'yinchilari qarshilik ko'rsatayotgan, ko'pincha esa, charchoq orta borayotgan sharoitda o'yin faoliyatidagi turli holatlarda ularni qanchalik mohirlik bilan, samarali qo'llay bilishga bog'liq. Futbol texnikasini yaxshi bilish futbolchining har tomonlama tayyorgarlik ko'rishi va mutanosib kamol topishi jarayonining ajralmas qismidir.

O'yin taraqqiyotining yuz yildan ortiq tarixi mobaynida futbol texnikasida muayyai o'zgarishlar bo'ldi. Bu evolyusiyaning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: boshning chakka qismi va orqasi bilan zarba berish, to'pni boldir bilan to'xtatish singari nomaqbul usul va usullarni qo'llash ancha kamayib ketdi; oyoq yuzi bilan zarba berish, to'pni son va ko'krakda to'xtatish, to'pni qo'l bilan tashlash (darvozabon texnikasi) kabilardan foydalanish koeffitsienti oshdi, aldash harakatlari (fintlar) ko'paydi.

Hozirgi futboldagi texnik usullar o'yin harakatlari tezligi va aniqligini oshirish uchun kuchdan yetarlicha tejab foydalanish imkonini beradigan, biomekanika nuqtai nazaridan maqbul harakatlar tizimi bilan xarakterlanadi. Tezlik va ishonchlik, soddalik va samaradorlik – futbol texnikasini qo'llashga qo'yiladigan hozirgi kundagi talab ana shulardan iborat.

5.2. Futbol texnikasining tasnifi

Futbol texnikasining tasnifi texnik usullarni umumiy (yoki o'xshash) o'ziga xos belgilariga qarab guruhlariga bo'lishdan iborat.

O'yin faoliyati ifodalanishiga qarab futbol texnikasi ikki yirik bo'limga ajratiladi: maydon o'yinchisi texnikasi va darvozabon texnikasi. Har qaysi bo'lim esa harakatlanish texnikasi va to'pni boshqarish texnikasi bo'limchalariga taqsimlanadi. Kichik bo'limlar turli usullarda ijro etiladigan muayyan texnik usullardan: harakatlanish texnikasi usullaridan iborat. Ulardan maydon o'yinchilari va darvozabon foydalanadi. Ammo ayrim usul va usullar o'zining muayyan turlariga ega. Usul va turlarda harakatning asosiy mexanizmi umumiy bo'lib, detallardagina farq bo'ladi. Har xil usul va turlarni ijro etish shartlari futbol texnikasini yanada rang-barang qiladi.

O'rganilayotgan materialni tizimlashtirish usul va uning turlarini yaxshiroq tushunishga, ularni to'g'ri tahlil qilishga, olingan bilimlarni takomillashtirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilishga yordam beradi.

Futbol texnikasining ifodalanishi maydon o'yinchisi va darvozabon uchun umumiy kichik bo'lim bo'lgan harakatlanish texnikasidan boshlanadi.

Harakatlanish texnikasi

Harakatlanish texnikasi quyidagi usullar guruhini o'z ichiga oladi: yugurish, sakrash, to'xtash, burilish.

O'yin vaqtida harakatlanish texnikasi usullaridan xilma-xil tarzda qo'shib foydalaniladi. Masalan, futbol 5,1-5,5 qadam bo'ladi. Bu esa havoda uchish fazasi qisqaroq bo'lgani sababli tez to'xtashga yoki tez burilib olishga yordam beradi.

Tisarilib yugurishdan asosan to'pni olib qo'yishda va to'pni olishda qatmashayotgan himoyadagi o'yinchilar foydalanadilar. Yugurishning bu turi ham siklik (qo'shaloq qadamli) bo'ladi. Qisqa-qisqa, lekin tez-tez qadam tashlash, havoda uchish fazasining qariyb yo'qligi unga xos xususiyatdir. Buning sababi siltanish oyoq'i orqaga uzatilganda, sonning yozilishi cheklanganligidadir.

O'yin sharoiti ko'pincha maksimal tezlikda tisarilib yugurishni talab qilib koladi. Bunda tezlik qadam chastotasini oshirish hisobiga orttirilib, bu ko'proq oyoqning orqaga faol harakat qilishiga bog'liq.

Tisarilib yugurayotganda, o'yinchi ba'zan muvozanatni yo'qotib yiqilib tushadi. Tayanch oyoq vertikal turgan paytda gavdaning og'irlik markaz o'qi tayanch yuzasining tepasida turishi o'yinchi holatining turg'un bo'lishi shartlaridan biridir.

Chalishtirma kalam tashlab yugurishdan harakat yo'nalishini o'zgartirish uchun, turgan joydan o'ngga yoki chapga siltanib yugurish paytida, burilib olgandan keyin foydalaniladi. U harakatlanishning spesifik vositasi bo'lib, asosan boshqa yugurish turlari bilan birga qo'shib qo'llaniladi.

Chalishtirma qadam tashlab yugurish yon tomonga ijro etiladigan yugurish qadamlari bilan ifodalanadi. Qadam tashlash siklining birida (qo'shaloq qadam) siltanuvchi oyoq tayanch oyoqning oldiga chalishtirib o'tkaziladi. Yugurish paytida havoda uchish fazasi juda qisqa bo'ladi.

Juftlama qadam tashlab yugurishdan taktik jihatdan zarur holatga o'tishda (masalan, o'yinchi oldini to'sib olishda) foydalaniladi. U dastlab harakatlanish fazasi sifatida qo'llaniladi. Keyinroq o'yindagi vaziyatga qarab, harakatlanish texnikasining turli usullari sifatida ijro etiladi.

Juftlama qadam tashlab yugurish oyoqlarni sal bukib bajariladi. Birinchi qadamni harakat yo'nalishga yaqin oyoqdan boshlab, yon tomonga tashlanadi. Ikkinchi qadamda oyoqlar juftlanadi. Depsinish va siltanish harakatlarida zo'r berish yuqori tomonga emas, balki yon tomonga yo'naltiriladi.

Sakrashlar. To'xtash va burilish usullarining ba'zilarini ijro etishda sakrashdan foydalaniladi. Sakrash zarba berishning ayrim usullari, to'pni oyoqda, ko'krakda, kalla bilan to'xtatib qolish va ba'zi fintlar texnikasining qismiga kiradi. O'yindan oldin, yon tomonlarga, yuqoriga hamda shularga yaqin yo'nalishlarda sakraladi. O'yindagi vaziyat ko'pincha maksimal baland yoki maksimal uzun sakrashni talab qilmaydi. Bunda sakrashning samaradorligi futbolchining koordinatsion qobiliyati bilan belgilanib, futbolchi turli dastlabki holatlardan fazo, vaqt va kuch xarakteristikalari optimal bo'lgan harakatlar qilishi kerak bo'ladi.

Barcha turdagi sakrashlarda depsinish, havoda uchish va yerga tushish fazalari bo'ladi.

Sakrashning ikki xil usuli bor: bir oyoqda depsinib sakrash va ikki oyokda depsinib

sakrash.

Bir oyoqda depsinib sakrash oldinga, yon tomonlarga, yuqoriga bajariladi. Bunday sakrashda faol depsinib, ikkinchi oyoqni silkitib, gavda og'irlik markazining o'qi sakrash tomonga o'tkaziladi. Sakrashning traektoriyasi va kuchi o'yindagi vaziyatga bog'liq. Bir oyoqda yoki ikki oyoqda yerga tushiladi. Qisqa masofali, qattiq amortizatsiya keyingi harakatlarga tezroq va samaraliroq o'tish imkonini beradi. Og'irlik markazi o'qining proeksiyasi tayanch yuzasining chegarasida yoki undan tashqarida bo'lishi ham shunga yordam beradi.

Sakrab to'pga kalla urayotganda, ko'pincha maksimal baland ko'tarilish kerak bo'ladi. Bunda yugurib kelib depsinadigan oyoqni taqqa to'xtaydigan qilib (tayanchga nisbatan burchak hosil qilib) qo'yish yordam beradi. Sal cho'nqaygandan keyin yuqoriga yoki yuqorilab, oldinga tomon faol depsiish kerak bo'ladi, bunda qo'llarni ko'krak baravar silkitib ko'tarish depsinishning samarasini oshiradi.

Ikki oyoqda depsinib sakrash. Bunday usul bilan oldinga, oldinlab yon tomonga va oraliq yo'nalishlarda sakraladi.

Turgan joydan sakraganda o'yinchi depsinish oldidan tezda salgina cho'nqayadi. Oyoqlarni faol to'g'rilash bilan birga gavda og'irlik markazining o'q sakrash tomoniga o'tkaziladi va qo'llar silkitiladi. Yugurib kelib sakrayotganda so'nggi qadamda bir oyoqni taqqa to'xtaydigan qilib qo'yiladi. Cho'nqayish paytida ikkinchi oyoq birinchisi bilan tezgina juftlanadi. Depsinishda havoda uchish va yerga tushish fazalari turgan joydan sakragandagi kabi bo'ladi.

To'xtashlar. Harakatlanish texnikasida to'xtashga harakat yo'nalishini o'zgartirishning samarali vositasi deb qaraladi. To'satdan to'xtab qolganda, raqiblarning qayerda, qanday joylashishiga qarab turib to'p bilan ham, to'psiz ham o'sha ketayotgan tomonning o'ziga yoki qarshi tomonga otilib ketiladi, o'ngga yoki chapga qochib qolinadi.

To'xtashda ikki xil usul qo'llaniladi: sakrab to'xtash va tashlanib to'xtash.

Sakrab to'xtash uchun yuqoriga qisqaroq sakrab, siltangan oyoqda yerga tushiladi – bunda turg'unlik bo'lsin uchun shu oyoq sal egiladi. Ammo, ko'pincha, yerga ikki oyoqlab tushiladi.

Tashlanib to'xtash so'nggi yugurish qadami hisobiga bajariladi. Bunda siltangan oyoqni oldinga uzatib, tovonga tayaniladi-da, keyin oyoq rostdana yerga qo'yiladi. Tashlanib to'xtash oyoqlarni anchagina bukib, ikki oyoqqa tayanib qolish bilan amalga oshiriladi.

Barcha turdagi to'xtashlardan keyin, odatda, turli yo'nalishlarda harakat davom ettiriladi. Shuning uchun to'xtashdagi so'nggi holat keyingi harakatning start holati bo'lishi kerak.

Burilishlar. Burilish yordamida futbolchilar tezlikni minimal kamaytirib, yugurish yo'nalishini o'zgartiradilar. Odatda, turgan joyda burilgandan keyin start harakatlari boshlanadi. Burilish, shuningdek, zarba berish, to'pni to'xtatish, to'pni olib borish va fintirlanish ayrim usullarini bajarish texnikasi tarkibiga ham kiradi.

Burilishning quyidagi usullaridan foydalaniladi: hatlab o'tib burilish, sakrab burilish, tayanch oyoqda burilish. O'yin sharoitiga qarab yon tomonlarga va orqaga burilish mumkin. Burilish turgan joyda ham, harakat paytida ham ijro etilaveradi.

Xatlab o'tib burilganda, qisqa-qisqa 2-3 qadam tashlash hisobiga kerakli yo'nalishga qarab olinadi.

Harakat yo'nalishini to'satdan va tez o'zgartirishda sakrab burilish samaraliroqdir. Bu ish burilish tomonga faol depsinib bajariladi. Silkinadigan oyoqning kafti ham shu tomonga aylantiriladi. Sakrash unchalik baland bo'lmasa ham, to'la-to'kis bajariladi. Tayanch oyokda burilishning ikki turi bor. Birinchisini bajarishda burilish yo'nalishidan uzoqdagi oyoqqa tayaniladi. Bunda futbolchi gavda og'irlik markazi o'qining proeksiyasini tayanch sath chegarasidan chiqarib, tayanch oyoq uchida burilish tomonga aylanadi. Ikkinchisida harakat yo'nalishiga yaqin oyoqqa tayaniladi, gavda og'irlik markazining o'qi burilish tomonga ko'chadi. O'tkaziladigan oyoqni ham shu yo'nalishda tayanch oyoqning old tomoniga chalishtirib ko'yiladi. Burilish sal bukilgan tayanch oyoq uchida bajariladi.

5.3. Harakat malakalari qo'zg'aluvchanligini rivojlantirish uchun taxminiy mashqlar

1. To'p bilan 30 metrga yugurish (birinchi galda tezlik-5 sek., ikkinchi galda 5,5 sek., uchinchi galda 4,5 sek.).

2. To'p bilan 30 m. ga yugurish (birinchi galda qadamning uzunligi 1,5 m., ikkinchi galda-2 m., uchinchi galda-1m).

3. To'p bilan 30 m ga yugurish (birinchi galda qadamning me'yori-30 qadam, ikkinchi galda-32 qadam, uchinchi galda-25 qadam).

4. To'pni to'rga tepish (bir minutda 20 marta, 1 minutda -15 marta, 1 minutda-25 marta).

5. To'pni 40, 25, 30 metrga tepish.

6. Maksimal balandlikka sakrab bo'lgandan keyin shundan ikki marta past balandlikdan o'tish.

7. 30 sm. balandlikka 10 marta xatolarni hisoblab sakrash.

8. Birdaniga uzoqlikka va aniqlikka tepish.

Tormozlanishning bemahal ro'y berishiga qarshi kurash olib borish uchun boshka mashqlarga o'tiladi, shuningdek yukni ozaytirish va tanaffuslardan foydalaniladi.

Futbolchilar yuz bergan harakat vazifalariga bog'liq holda harakatlarni bajarish forma va xarakterini variantlashtirishni bilishi, bir harakatdan ikkinchi harakatga o'tishni bilishi, nosikl harakatlarni o'yinning boshidan oxiriga qadar yaxlit his etish qobiliyatini rivojlantirishida gap ko'p. Bunga turli priyomlarning, dastlabki va oxirgi holatlarini birlashtirib variantlashtirish yo'li bilan erishiladi. To'siqlar shaklidagi maxsus jihozlardan foydalaniladi.

Shakllangan malakalar ko'pincha turli holatlar (toliqish, harakat vazifalarini muttasil va haddan tashqari qiyinlashtirish, vaziyatni keskin o'zgartirish va boshqalar sababli) ba'zan salga buzilib ketishi mumkin. Ko'nikish qobiliyatining xususiyatlari tezda hosil bo'lmasligini, balki, asta-sekinlik bilan vujudga kelishini unutmaslik kerak.

Yangi ritmlarni egallash metodlari. Ritm-malakani shakllantirish jarayonini yaxshilashning shartidir. Muskul qisqarishining dinamikasi va ritmini boshqarish harakat malakalarini boshqarish vazifalaridan biridir. Futbolchi harakat sur'atini boshqarishi va baholay bilishi kerak. Bunda barqaror reaksiyaga erishish imkonini


yaratuvchi o'z-o'ziga baho berish, o'z-o'zini nazorat qilish katta rol o'ynaydi.

Bir sur'atdan ikkinchisiga o'tib mashq bajarish-ritmni egallashning vositasidir. Bunga muayyan oraliqda (30 m) berilgan tezlikda (5, 6, 7 sek. boshq.) to'pni olib yurish mashqi kiradi. Bir mashqdan ikkinchi mashqda o'tish navbatlashtiriladi. Shunga o'xshash mashqlar qiyin sharoitlarda ham sur'atni bir xil saqlash ko'nikmasini hosil qilishga ko'maklashadi, bu esa raqib bilan kurash olib borishda doimo juda muhimdir.

Analizatorlarni mukammallashtirish metodlari. Futbolchining harakat faoliyati samaradorligini oshirish uchun turli analizatorlardan foydalanishni bilmoq darkor. Bu birinchi navbatda ko'rish va eshitish sezgilariga tegishlidir. Ularni baholashni bilish kerak. Bunday bilish maxsus mashqlarni bajarayotganda (masalan, harakat vazifalarini "qaramasdan" bajarish uchun qarab nazorat qilishni bartaraf qilish) kerak bo'ladi.

Ish sur'atini harakatga ketgan vaqtga oid ma'lumot bilan qiyoslash ham, shu bilan bir paytda haqiqiy vaqtning sub'ektiv his-tuyg'ular bilan qiyoslanishi ham o'sha maqsad uchun xizmat qiladi. Mashq sifatida to'p bilan huqqabozlik qilishdan foydalanish mumkin.

Futbol texnikasi haqidagi boshqa tushunchalar to'p yo'nalishi va uchish tezligiga tegishlidir. Fizika darslarida siz, albatta, "markaz" so'zining ma'nosini bilib olgansiz. Shunday ekan, agar to'p markaziga tepilsa, u kuch tushgan yo'nalishda oldinga qarab to'g'ri-aylanmay harakatda bo'ladi.



Agar zarb berayotgan oyoq uchlari to'p o'rtasiga tegmasa, u tekislikdan o'ngga yoki chapga burilib ketadi.



Bu ko'pincha noto'g'ri texnika oqibatida ro'y beradi. Lekin ba'zi futbol ustalari taktik nuqtai nazardan to'pni ataylab darvozaga "burama qilib" yoki raqib orqasida turgan sherigiga yetkazib berish uchun to'pni "burab" tepadi. Bu uzoq muddat va tinimsiz mashq talab qiladigan juda murakkab uslubdir.

Ba'zan to'p darvoza to'sini tepasidan o'tib ketadi. Bunga ko'pincha o'yinchilarning tayanch oyoqlarini to'pdan haddan tashqari uzoq (orqaga) qo'yganligi sabab bo'lib, bunda pastdan yuqoriga qarab zarb beriladi.

Endi siz bizning tushuntirishlarimizni o'qiganingizdan so'ng bir necha mashq bajarib ko'ring. Bunda to'pning fizika qonunlariga binoan harakat qilishiga e'tibor bering.

Ikki tupni bir-biridan 5-7 metr uzoqlikda yerga qo'ying.




Bir to'pni ikkinchisiga qarab oyoq uchida astagina teping va ikkinchi to'p birinchi to'pning zarbidan darvozaga kiritilishi uchun (oyoq uchiga bo'r surtib qo'ying) birinchi to'pning qaysi nuqtasiga zarb berilishi kerakligini kuzating. Har bir oyoqda 20 martadan tepganingizda nishonga necha marta tekkizganingizni sanang.

Yerda yotgan to'pning markaziga emas, balki markazidan chap va o'ng tomoniga oyoq uchida 10 martadan teping. To'p qaysi tomonga qarab harakat qilishini kuzating va to'p nishonga tegishi uchun uning qayeriga tepish kerakligini esda tuting.



Gardish osing yoki devorga 5-7 metr masofada 1 metrli doyra chizing. Yugurib kelayotib tayanch oyog'ingizni qo'yish uchun yerda chiziq torting. Bu chiziq oldiga (35-40 sm) to'pni qo'ying. To'p ostiga, ya'ni to'pning og'irlik markazidan pastiga teping va 20 zarbdan nechtasini nishonga tekkizganligingizni hisoblang.




Xuddi maktabda alifbedan o'qish va yozishni o'rgangandek futbol "alifbe" sini o'zlashtirishda ham "alif" dan, ya'ni faqat uchta texnik priyom va ularning qo'shilmasini bajarishni o'rganib olish kerak:

- oyoq yuzining ichki va tashqi qismlarida to'p surish;



- yugurib kelib oyoq yuzining o'rtasi bilan to'pni tepish;



qarshi tomondan dumalab kelayotgan to'pni oyoq yuzining ichki tomoni bilan to'xtatish.



Bolalar! Siz balki futbolchilarga xos xususiyat- "tupni his etish" haqida eshitgandirsiz? To'pning fizik xususiyatlarini mushaklar orqali sezish qobiliyatini-chi?

Bu juda muhim xislat. Biz ham ishni xuddi ana shu "to'pni his etish" qobiliyatini o'rganishning texnik priyomlarini o'zlashtirishdan boshlaymiz.

Mashhur Pele huddi shu qobiliyatni to'p o'ynatishda foydalanib takomillashtirishga ko'p e'tibor bergan edi.

"Jonglyorlik qilish,- deb yozgan edi u, -yakka o'zi mashq qilishda ideal mashg'ulotdir. Uning mohiyati shundaki, o'yinni to'pni erkin o'ynatib, uni his qilishga odatlanadi. Endi behosdan otilib kelgan to'p yoki yo'lini "qisqartirib", to'pning havodagi og'ishi uni dog'da qoldira olmaydi. Futbolchi jonglyorlik qilish vaqtida fikrini bir joyga to'plab olishga, butun e'tiborini to'pga qaratishga o'rganadi. U to'pni o'ylangan yo'nalishdagi kerakli masofaga yetkazib berish uchun zarur zarb berish malakasiga ega bo'ladi. Nihoyat u yana o'z muvozanatini saqlash uchun qo'llaridan foydalanishga o'rganadiki, bu ham futbolda muhim ahamiyatga egadir, chunki to'p olib yurishda oyoqlar ba'zan shunday harakat qilib qoladiki, bundan o'yinchi muvozanatini yo'qotib qo'yishi mumkin".

Lekin jonglyorlik qilishdan oldin to'pni yerdan havoga ko'tarib olishni o'rganish kerak. Buning uchun o'yinchi to'pni o'z oldiga taxminan 30 sm masofaga o'rnatib, oyoq yuzini to'pga qo'yib, oyoqni orqaga tortib, to'pni o'ziga tomon dumalatib olishi kerak. To'p harakatga kelishi bilanoq, darhol oyoqni tortib olib, harakatlanayotgan to'p oldida oyoq uchini yerga tirang. To'p oyoq yuziga yumalab chiqishi bilanoq oyoq barmoqlarini yuqoriga ko'taring va oyog'ingiz bilan oldinga qarab yengil harakat qiling.



Shuni esda tutish muhimki, jonglyorlik qilishda doimo to'pni ostidan urish asosiy maqsad bo'lmasligi kerak. Zarb berishning turli usullari, zarb kuchi va to'p traektoriyasini o'zgartirish, e'tiborni boshqa ob'ektlarga ham qaratish, to'pni harakatda, o'tirgan holatda, gimnastika skameykasida turgan holda jonglyorlik qilish va boshqa qobiliyatlarni ishlatish muhimdir.

Lekin, eng avvalo, to'pni oyoqlarda o'ynatishga oyoq yuzida, oyoqning ichki, tashqi tomonlarida, tizza bilan tepib o'ynatishni o'rganish kerak. To'pni pastdan markazga zarb berib ko'tarib olish kerak. Buning uchun oyoqni boldirdan yengilgina bukkanda holda har gal to'p tepayotganda boldirga nisbatan oyoq uchini ko'tarish kerak. Mashq paytida "zarb berayotgan oyoq" yerga tegmasligi, to'p esa tizza bo'yi balandlikka ko'tarilishi kerak.



Shundan keyin to'pni oyoqlar orasiga olib jonglyorlik qilishga kirishish mumkin.



Oyokni shunday ko'tarish kerakki, bunda tizza bo'g'ini sal bo'sh qo'yilgan, son esa gorizontal xolatda bo'lishi lozim. Tanani sal orqaga tashlash kerak. Bunday harakatlar odat tusiga kirib qolganda, to'pni goh bir, goh ikkinchi oyoq tizzasi va soni bilan teparoq (engakdan oshirmay) urib o'ynatish, keyin oyoq yuzasi bilan to'pni xuddi shunday o'ynatib turish kerak. Tik turib yoki tayanch oyoqda to'p zarbiga monand sakrab-sakrab jonglyorlik qilish juda foydali mashqdır.



Bolalar! Jonglyorlik qilishga dastlabki urinishlarni sizlarga osonroq bo'lgan oyokqa qilishdan boshlang, qachonki o'zingizga ma'lum darajada ishonch xosil qilganingizdan keyin "sustroq" va "kuchliroq" oyoqlaringizni almashtirib, keyin esa fakat "sustroq" oyog'ingizda jonglyorlik qilishga kirishing.

Bu mashqdan maqsad -ikki oyoqda ham "o'ynashga" o'rganishdir. Texnik priyomlarni bajarayotgan futbolchi faqat bir oyoqdan foydalanadigan bo'lsa, uni faqat yarim imkoniyatli o'yinchi, deb hisoblash mumkin. Bunday o'yinchining o'yin paytida to'pni o'ziga "qulay" bo'lgan oyog'iga "moslashtirib" olishi uchun vaqt ketadi va o'yindagi qulay vaziyat boy berib qo'yiladi-da, qo'shimcha harakatlar qilishiga to'g'ri keladi.

Endi boshda to'p o'ynatishni o'rganish payti keldi.



Avval qo'lda to'pni vertikal xolatda oldingizdan 30 sm masofada 50-60 sm balandlikka otish kerak. Boshni orqaga tashlash lozim. To'pga peshona o'rtasi bilan zarb berish kerak, bunda qo'llar yordamida muvozanat saqlagan xolda oyoqlarda prujinasimon sakrab-sakrab turiladi. Agar dastlabki paytlarda to'p tepaga aniq chiqmasa va to'pga yetib borish uchun o'z xolatingizni tez-tez o'zgartirib turishga to'g'ri kelsa, sira tashvishlanmang. Hechqisi yo'q. Tezda o'rganib ketasiz.

Agar siz to'p bilan jonglyorlik qilish uchun kuniga 10-15 daqiqa mashq qila olsangiz, tez orada hamma texnik priyomlarni egallab, to'pni ustalik bilan olib yurishga o'zingizda ishonch seza boshlaysiz. Jonglyorlik qilavering! Buning uchun faqat uncha katta bo'lmagan maydoncha, kichkina rezina yoki tennis to'pi (agar haqiqiy to'p bo'lmasa) va uni iloji boricha havoda yerga tushirmay "ushlab turishga" bo'lgan hohish bo'lsa kifoya.

To'pni tepishni, to'xtatib qolishni va uni "sof san'at" uchungina o'ynatmay, balki sheriklar bilan birga turli o'yin vaziyatlarida raqibga qarshi harakat qilishni o'rganib olish kerak.

Futbol texnikasini o'zlashtirib olishdagi qiyinchiliklar shu bilan izohlanadiki, bunda

to'pni oyoq va bosh bilan o'ynatish zarurati, buning ustiga raqib bilan qattiq olishish (garchi kundalik hayotda bu inson harakatlariga zid bo'lsa-da) zarurati tug'iladi.

Mutaxassislar o'yin davomida futbolchi to'p bilan 50 martadan 100 martagacha (65-200) uchrashishini hisoblab chiqqanlar. Ammo bunday qisqa vaqt davomida (o'rtacha 2-2,5 daqiqa) to'pga ega bo'lish bilan o'yin vaziyatidagi texnik priyomlarni bajarishning hajmi, turli-tumanligi, samaraliligi, tezkorligi, mavhumligi hakida o'zingiz o'ylab ko'rishingiz mumkin.

Maydon o'yinchisining to'p egallash texnikasiga quyidagi guruhdagi priyomlar kiradi: oyoqda beriladigan zarbalar (6 usul), boshda beriladigan zarbalar (2 usul), to'pni oyoqda to'xtatish (6 usul), gavda bilan to'xtatish (2 usul), oyoqda to'p surish (5 usul) va boshda to'p surish (1 usul), oyoq bilan qilinadigan fintlar (5-6 usul), gavda bilan qilinadigan fintlar (2-4 usul), boshda qilinadigan fintlar (2-3 usul), oyoqlarda va yelka bilan turtib to'pni tortib olish (2 usul), to'pni o'yinga kiritish.

Tup o'ynatishni eng oddiy malakalardan o'rganishdan boshlash kerak. Bular-to'pni o'ynatib olib yurish, to'p tepish va tupni oyoqda to'xtatib qolish. So'zsiz, to'pga ega bo'lish priyomlari texnikasini nazariy jihatdan o'rganib olish bilangina texnik mahoratni egallab olish mumkin emas.

To'pni olib yurish-bu to'pni harakat vaqtida nazorat qilish malakasidir. Bu priyom yugurish, to'pni raqib qarshiligida muvozanat saqlagan xolda turli usullar bilan tepa bilishni o'z ichiga oladi. Yaxshi o'yinchilarda yana maydonni ko'ra bilish va bir vaqtning o'zida to'pni nazorat qila bilish malakalari xam qo'shilgan bo'ladi.

To'p surishni ikkita asosiy usulga ajratiladi: oyoq panjalari gumbazining ichki va tashqi qismida ulardan to'g'ri chiziq bo'ylab, yoysimon hamda yo'nalishni o'zgartirib harakat qilinayotganda foydalaniladi. Maydonda keng harakat qilish imkoni bo'lganda to'p o'yinchidan 60-100 sm oldinda bo'lishi kerak. Raqib tig'iz ta'qib qilayotgan paytda to'pni bundan uzoqlikda tutish xavfli, shuning uchun u o'yinchidan 10-15 sm dan ortiq masofada bo'lmasligi kerak va unga oyoqning to'piqdan sal oldingi qismi bilan zarb berilib borishi kerak. Gavda, bosh va yelkalar oldinga engashtirilgan, oyoqlar tizzadan bir oz bukilgan bo'lishi lozim.

To'p surishga o'rganishning dastlabki bosqichida to'g'ri chiziq bo'ylab sekin yugurish va to'p tepishning ma'lum me'yorini o'zlashtirib olmaguncha harakat qilaverish kerak. Bu harakat qancha yaxshi bo'layotgan bo'lsa, shuncha tezroq yugurish kerak. Shundan keyin yugurish tezligini darhol o'zgartirib to'p tepishga moslanishga o'rganish uchun tezlikni o'zgartirib, to'p surishni o'zlashtirib olishga o'tiladi.

Trenirovkaning keyingi bosqichi-raqib ta'qibi ostida to'p dumalatishdir. Yana sizning e'tiboringizni bu priyom texnikasiga jalb qilamiz. To'p oldinga qarab to'p markazining gorizontaal chizig'i yoki uning sal pastrog'iga tegib harakat qiladi.



Yugurish jarayonida "etakchi" oyokq yuzasi to'pga tegishdan oldin pod'yom (oyoq

panjalari gumbazi) ning ichki qismi yoki tashqi qismi sal tashqariga aylanib chiqadi.



Oyoqni to'pga ishonch va zarur kuch bilan tekkizish kerak. Bunda gavda oldinga sal egilgan bo'ladi. To'pga doimo qarayverish kerak emas, chunki bu holatda siz boshqa o'yinchilar nima qilayotganligini ko'rolmay qolasiz. Shuningdek, to'pni doimo boshni ko'tarib, butun maydonga qarayverib surish ham mumkin emas. Har qachongidek, bu gal ham mo'tadillik zarur; o'z oldingizdagi maydonga qarash kerak.

Endi to'p o'ynatish bilan bog'liq bo'lgan quyidagi mashqlarni bajarib ko'ring:

- to'pni doira bo'ylab, sekin-asta avval oyoq yuzining bir tomoni bilan, keyin esa ikkinchi tomoni bilan yumalatish, bunda to'p tepilayotgan oyoqning holati to'g'riligiga e'tibor berish kerak;

- yerda "sakkiz" raqamini chizing. Avval o'ng oyoq yuzining chap tomoni bilan soat strelkasi yo'nalishida, keyin oyoq yuzining o'ng tomoni bilan soat strelkasiga teskari yo'nalishda to'pni dumalating;

- oldingi mashqlarni endi chap oyoqda bajaring. Butun gavdani tug'ri tutish va to'pni ko'zdan qochirmaslikka e'tiborni qaratish kerak;

- "kuchli" oyog'ingiz (masalan, o'ng oyog'ingiz) bilan oyoq yuzining chap tomoni bilan to'pni tepa borib sekin sur'atda (qadam tashlab) to'siqlar oralab-to'p bilan chapga, keyin "sust" (chap) oyoq bilan o'ngga tashlab to'pni dumalating;

- endi oldingi mashqlarni "kuchli" o'ng oyog'ingiz yuzining chap tomoni bilan to'pni tepa borib o'ngga, keyin "sust" (chap) oyog'ingiz bilan chapga tashlab dumalating. Bu mashqlarning hammasini sekin yugurib bajarish kerak. Agar to'p oyoqdan "qochmay" qo'ysa, sur'atni bir oz oshiring.

Endi keyingi normativni bajaring.


Maydonchaga bir-biridan 2 metr masofada 10 ta bayroqcha o'rnatib. Start va finishni birinchi bayroqchadan 2 metr oraliqda bir xil chiziq bilan belgilang. Shunday qilib, to'p bilan vaqtga qarab, oldin u tomonga, keyin bu tomonga bayroqchalarni aylanib o'ting. 22 sekund natija-"a'lo", 24 sekund-"yaxshi", 27 sekund-"qoniqarli".

Siz to'p surishni qanchalik yaxshi o'rganib olgan bo'lsangiz ham, bu priyomdan haddan tashqari ko'p va uzoq muddat davomida o'yinda foydalanib bo'lmaydi. Chunki raqibingiz sizning yo'lingizni to'sib, o'ynatmay qo'yishi mumkin. Bundan tashqari, o'yindagi sheriklaringiz sizga to'p tegishi bilan nima qilishlarini bilolmay harakatsiz turib qolishlari mumkin.

Yana bir narsa. Siz to'pni raqibdan to'sib surish uchun o'z gavdangizdan foydalanishni o'rganishingiz kerak. Masalan, agar raqib sizga chap tarafdan hujum qilayotgan bo'lsa, u holda siz to'pni to'p bilan raqib o'rtasida bo'lish uchun o'ng oyoq bilan (raqibdan uzoqroq) surasiz.

Zarb-o'yindagi eng asosiy harakat bo'lib, bunda doimo darvozani nishonga olish yoki to'pni sherigingizga oshirish bilan ikki maqsad ko'zda tutiladi.

Futbol qiroli Pele bu hakda nimalarni tavsiya qiladi: “Bu maqsadga erishish uchun oyoq pod’yomi o’rtasi bilan to’p markaziga zarb berish kerak. Tayanch oyoq pozitsiyasi mohiyatan muhim ahamiyatga ega-u to’p bilan bir tekislikda, masalan, undan 15 sm chetqoqda bo’lishi kerak, bunda oyoq panjalari to’pning ko’zda tutiladigan uchish tarafiga qaratiladi. Tayanch oyoq tizzasi yengil egilgan va to’p bilan bir tekislikda, tovon osilib turishi uchun oldinga turtib ko’rish kerak. Zarb berilayotgan paytda gavda to’p ustida shunday bukilishi kerakki, bunda bosh hatto undan oldinda, to’pni tepayotgan oyoq tizzasi esa bevosita undan baland bo’lishi lozim. Tepadigan oyoq tizzasi iloji boricha zarbdan oldin orqaga egilishi, keyin to’p tekkandan so’ng darhol to’g’rilanishi juda muhimdir.



Harakatlar mutanosib, to’g’ri bajarilishi uchun tayanch oyoqni to’p bilan bir tekis qo’yish va 4-5 qadam naridan yugurib kelish kerak. Siz bu harakat zanjirida beshta muhim momentni ilg’ab olasiz:

- yugurib kelayotganda uzaytirilgan so’nggi qadam;
- boldir va tos oralig’ida eng o’tkir burchak yaratish, shuningdek tayanch oyoqni 15 sm yondan va to’p tekisligida to’g’ri tutish;
- oyoq to’pga tekkan vaqtda tizza bo’g’imida deyarli to’g’rilanishi va tizza go’yo to’p ustida osilib qolgandek bo’lishi lozim;
- zarb berish vaqtida oyoq (tos + boldir + tovon) “bikr richag” ga aylanadi;
- zarb berilgandan keyin tepayotgan oyoq oldinga uzatilib ketadi.

Endi bolalar, olgan nazariy bilimlaringizni quyidagi futbol o’yiniga yaqin mashqlarda tekshirib ko’ring:

- tez yugurib kelib to’psiz yasama zarb. Yerda 4 ta chiziqli shunday chizingki, ularning dastlabki uchasi bir-biridan 70-80 mm masofada, so’nggi-to’rtinchisi esa 1,3-1,5 m bo’lsin.



- chiziqlarni bosgan holda tezlashtirilgan zarb yugurishini bajaring;
- chiziqlar bo’ylab o’sha zarb yugurishini endi to’p tepib bajaring;
- to’pni darvoza to’siniga yerdan 5-10 sm balandlikda chizimchaga osib qo’ying, qimirlamay osilib turgan to’pga oyoq yuzasini (kaftini) ko’tarib turib zarb bering. Agar to’p to’g’riga qarab uchmasa, o’ylab ko’ring, nima noo’rin qilindi?

- pod’yom o’rtasi bilan og’irroq to’pni (basketbol yoki tiqma to’plar) teping. Bu sizning zarb berish vaqtingizda mushaklaringizga yuqori darajada kuch berish

zaruratini tug'diradi;

- joyingizda turib yoki ikki qadamdan tez yugurib kelib bo'sh dam berilgan to'pni (oyoq panjalari gumbazining to'pga uzoqroq tegib turishi uchun) oyoqlarni almashtirgan holda har biriga alohida turtki berib teping.

O'rtog'ingizni darvozaga qo'ying. Siz unga darvozadan 16,5 metr oraliqda turgan to'pni yugurib kelib tepib, 30 zarbdan nechtasini gol qila olasiz?

- quyidagi normativlarni bajaring: qimirlamay turgan to'pni 16,5 metr (jarima maydoni chizig'i) masofadan zarb bilan yugurib kelib pod'yom o'trtasi bilan tepish. To'p qattiq tepilishi va darvozaga havodan kirib ketishi kerak. Har bir oyoqda besh martadan uring.

O'zingiz o'zingizga baho qo'yishingiz mumkin: darvozaga 8 ta to'pni to'g'ri yo'llasangiz-"a'lo", 6 ta yo'llasangiz-"yaxshi", 4 ta yo'llasangiz-"qoniqarli".

Xo'sh, ko'nglingiz to'ldimi? Unga emas-a? Hechkisi yo'q! Endi hammasi mashq qilishga bog'liq! Bunday kuchli zarbalarning har ikki oyoqda ham bir xilda yaxshi bajarilishi juda muhim. Shunga intiling!

Mana sizga o'yinda sheriklaringiz to'p yetkazib berdilar, siz esa har gal uni to'xtatib qola olmay oldirib qo'yasiz. Siz tushunasizki, to'pni egallab olish juda muhim. Mana shu o'rinda uni to'xtatib olish malakasi yoki to'pni qabul qilib olganda asosiy talab-u bilan erkin munosabatda bo'lish o'quvini namoyish qilish kerak bo'ladi.

To'pni to'xtatib qolish zamirida oyoqni, gavgani to'pga tegish paytida orqaga tashlash harakati yotadiki, buning natijasida (amortizatsiya prinsipi tufayli) to'pning uchish tezligi so'nadi. Amortizatsiyadan faqat to'pni to'la to'xtatib qolish uchun emas, balki to'p harakatini sekinlatishda foydalaniladi. Misol uchun, doimiy harakatdagi raqib himoyachisi ta'qib qilib turganida hujumchi o'inda to'pni to'la to'xtatib olish imkoniga ega bo'lmaydi.

Hujumchilarga ko'pincha boshqa texnik elementlarni bir priyom bilan bog'lab qo'shib, bir paytning o'zida to'pni to'xtatib va unga boshqa yo'nalish berib, lekin o'z nazoratidan chiqarib yubormasdan yengilgina tepishga to'g'ri keladi. Binobarin, siz mahoratning yuksak darajasiga xali erishganingiz yo'q, shuning uchun siz avvalo bir joyda turib va to'pning sizga yaqinlashishini kutib, soddaroq sharoitda uni to'xtatib qolishning asosiy komponentlarini egallab olishingiz kerak.

Oyoq yuzasining ichki tomoni bilan qarshi tomondan dumalab yoki uchib kelayotgan to'pni to'xtatish texnikasini ko'rib chiqamiz: tayanch oyoqning tizza va boldir suyagi bir oz bukilgan, oyoq uchi yaqinlashayotgan to'p tomonga qaratilgan, gavganing butun og'irligi tayanch oyoqqa tushgan bo'ladi.



Qo'llar muvozanat saqlab turadi. Nigohlar to'pga qadalgan. Boshqa (to'pni qabul

qiluvchi) oyoq ham tizzadan bukilib, yerdan ko'tarilgan bo'lib, boldiri yerga nisbatan 45-50° burchak xosil bo'ladigan qilib tayanch oyoq chizig'idan oldinga uzatilgan bo'ladi.

Bo'g'imlar to'la bo'shashtirilgan. Qaddingiz tik yoki sal oldinga egilgan. Oyoq bilan to'pga tegish paytida gavadani tezda orqaga yoki pastga xuddi bushashtirilgan oyoq kafti bilan ma'lum masofaga to'pni "kuzatib" qo'yayotgandek suriladi, shuningdek bunda gavda xam orqaga tashlanadi. To'p to'xtamaguncha uni ko'zdan qochirmaslik kerak. Shundan so'ng gavda og'irligini boshqa oyoqqa tashlanadi. Endi xamma bu nazariy shartlarni esda saqlash va keyingi mashqlarni bajarish kerak:

- joyda tik turib, to'psiz, tizza va oyoqning boldir bo'g'inlari bo'shashtirilgan xolda amortizatsiya xarakatlari qilish. Muvozanat saqlayotgan qo'llar va tananing orqaga qilayotgan xarakatiga alohida e'tibor bering;

- arqoncha bilan to'pni bog'lab, uni yerdan sal ko'taring, to'pni avval sekingina zarb bilan oldinga teping, keyin esa uning qaytishini poylab, uni oyoq yuzasi bilan asta to'xtating. Oyoq kafti yerdan 5-8 sm balandroq ko'tarilishi va to'p uning gorizontaal markazi bilan tepilishi kerak;

- tizzadan bukilgan tayanch oyoq bilan va to'pni to'xtatib qolishga tayyor turgan "qabul qiluvchi" oyoqda sekin-sekin sakrab, 20-30 metr masofani o'ting;

- oyoq kaftining ichki tomoni bilan to'pni devorga qarab teping (100 marta) va uni xuddi shu usul bilan to'xtating. Bunda xar ikkala oyokq bilan galma-gal to'p tepishni unutmang;

- gavgangizni to'g'ri tutib, dastlabki to'g'ri holatda turing va tiqma to'p yoki bo'sh dam berilgan to'pni tepadan tushib, sizga yaqinlashishini kuting. Uning oyoq yuziga tegadigan paytida oyoq kaftining to'p bilan aloqasini xis qilgan xolda oyoqni pastga tushiring;

- sherigingizning 10 metr masofadan yerlatib uzatgan to'pini oyoqda tegib otilib ketmasligi uchun yengilgina oyoqda ilib oling (old tomondan qabul qilib-orqaga tashlang-yengilgina oldinga itaring);

- normativni bajaring: yerga tomonlari 1,5x1,5 metrli kvadrat chizing va uning orqa chizig'i oldiga turib dumalab kelayotgan yoki uncha baland bo'lmagan (10-20 sm) balandlikda uchib kelayotgan to'pni oyoq kaftlaringizning ichki tomoni bilan to'xtatishga tayyorlaning. Sherigingiz 5-6 metr masofadan turib yarim kuch (3) 4 kuch bilan to'pni pastlatib uzatadi (5 marta). To'pni birinchi tegishdayoq kvadratdan chiqib ketmasdan to'xtatib qoling (5 marta- "a'lo", 4 marta-"yaxshi", 3 marta-"qoniqarli").

Har bir uslubni alohida mashq qilish mumkin. Ammo bu texnik elementlarni mantiqiy aloqada qushib olib borgan ma'qul. Masalan, oyoq kaftingiz pod'yomi bilan joyda turgan to'pni devorga teping va shu xaxotiyoy uni to'xtatib qoling va xokazo.

Mashg'ulotlarni qanday qilib yaxshi tashkil qilish va ularni o'tkazish quyidagilarga rioya qiling.

Siz o'zingiz ham o'yinchi, ham trenersiz! To'g'rimi? Shuning uchun doim quyidagilarni yodda tuting:

1) fakat cog'lom bo'lsangizgina mashq qilishingiz mumkin. Agar shamollab qolgan bo'lsangizu, mashq qilishga qaror qilsangiz, u holda bunday mashqdan foyda bulmaydi, salomatlikka esa ancha putur yetkazib qo'yasiz. Mashq qilish-bu katta

yuklama, kasallikdan toliqqan organizmni holdan toydirib qo'yish mumkin emas;

2) muntazam mashq qilmaydigan futbolchi mashq qilishdan maqsad nima ekanini tushunmasa kerak. Deylik, buning nima uchun sizga kerakligini bilasiz? Shunda siz texnika bo'yicha individual mashqlar uchun 45 minutni albatta topasiz. Uni ertalab, kunduzi, kechqurun o'tkazish mumkin. Lekin ovqatdan so'ng darhol mashq qilmang;

3) navbatdagi mashqni qaerda bo'lishi, nima bilan shug'ullanish, u yoki bu mashq uchun qancha vaqt ketishi va uni individual tarzdam yoki sherik bilan o'tkazish ma'qulligi haqida oldindan o'ylab qo'ying. Agar mashqni sherik bilan o'tkazish kerak bo'lsa, bu haqda uni ogohlantirib qo'yishni unutmang;

4) har bir mashqni oyoq-qo'llar chigilini yozishdan boshlang. Sizning organizmingiz, ayniqsa mushaklaringiz, bo'g'imlaringiz "qizishi" uchun va shaxt bilan qilinadigan harakatlar, aylanish, burilishlar va boshqalarga tayyor bo'lishingiz uchun bu zarur. Razminkani sekin yugurish va yengil-yengil sakrashdan (1,5-2 minutgacha) va bir necha gimnastika mashqlarini (1 va 2 kompleksi) bajarishdan boshlang;

5) har bir mashq jarayonida faqat bitta-ikkita mashqdan foydalaning. Lekin ularni katta ishtiyoq bilan bajarish kerak. Hamon siz o'zingiz trenermisiz, demak o'zingizga talabchan bo'ling va mashq jarayonida o'z harakatlaringizni to'g'ri baholang. Bugun nimani uddalay olmaganligingizni o'ylab ko'ring;

6) kitobchaga qarab qanday qilib mustaqil ravishda futbol texnikasini o'rganish mumkin?

Avvalo, uslub texnikasi haqida o'qing va tegishli rasmlarni diqqat bilan qarab chiqing, shundan so'ng bu harakatlarni o'z so'zlaringiz bilan ifodalashga urinib ko'ring va ularni bajaring, ularni rasm va tekst bilan solishtiring.

Uslubning og'zaki va amaliy ta'sirini oyna oldida turib yana bir bor takrorlang, shundan so'ng uning bajarilishining ketma-ketligiga e'tibor bering. O'z harakatlaringizni kuzatib turishni o'rtog'ingizdan iltimos qiling va uning ko'rsatgan kamchilik, tanbehlariga jiddiy munosabatda bo'ling. Bu dastlabki, ammo zaruriy ish. Shundan so'ng mashqni boshlang. Siz albatta harakat go'zalligini kis kilasiz, zarur tajribaga ega bo'lib borayotganingizga ishonch hosil qilasiz.

Keyingi bosqich to'pni his qilish, to'p o'ynatish, zarb berish, turli o'yin vaziyatlarida murakkabroq mashqlar yordamida to'xtatib qolishlarni takomillashtirishdir. Bular sizdan katta ishtiyoq va mexnatsevarlikdan tashqari yana sherik bilan o'zaro muloqotda bo'lish, harakat va chidamlilikda kelishuvchilikni xam talab qiladi.

Texnik maxorat cho'qqilari sari oq yo'l.

5.4. "To'pni his qilishni" mashq qilish

O'yinchi boshida (oyoqlarida) to'p bilan jonglyorlik qiladi.

Payt poylab u to'pni yuqoriga tepadi, yotgan joyida (umbaloq oshib) to'p tepadi, sakrab turadi, to'pni oyoq yuzasida to'xtatadi va jonglyorlik qilishda davom etadi.



O'yinchi oldinga harakat qilib to'p bilan oyoqda (boshda) jonglyorlik qiladi, shundan so'ng to'pni darvozaga (devorga) bosh bilan (oyoq bilan urib yo'naltiradi).



O'yinchi oldinga harakat qilib boshi bilan jonglyorlik qiladi. Payt poylab u to'pni boshi bilan uradi, pastga tushayotgan to'pni yerga tushirmay darvozaga yo'llash uchun yana boshi bilan to'xtatadi.



O'yinchi oldinga harakat qila borib (sekin, tez) to'p bilan ma'lum izchillikda jonglyorlik qiladi: oyoq bilan boshga, boshdan oyoqqa yoki faqat jonglyorlik qilib, vaqti-vaqti bilan oldinga-yuqoriga uradi, sapchiydi, to'pni havodan oyog'iga qabul qilib oladi va jonglyorlik qilishda davom etadi.




O'yinchi o'tirgan holatida har ikki oyog'ida navbatma-navbat jonglyorlik qiladi.

O'yinchi oyoqlari orasida to'pni qisib qoladi, sakraydi va tizzalarini yuqoriga ko'tarib tovonlar harakati bilan to'pni oldinga tashlaydi.

To'pning yerga tegishiga yo'l qo'ymay, ma'lum payt jonglyorlik qilib turib, o'yinchi to'pni oyog'iga qabul qilib oladi, keyin bosh bilan urishga tayyorlab tepaga tashlaydi.

O'tirgan holatdagi o'yinchi ikki qo'llab to'pni yerga uradi, tezda sakrab turadi, to'pni boshiga qabul qilib oladi, boshida to'pni o'ynatadi, keyin uni yerga tushirmasdan zarb uchun oyoqlarga tashlaydi.



O'yinchi to'pni tovonlari bilan qisib oladi, sakraydi va orqaga egilib to'pni darhol ustidan oshirib oldinga tashlaydi. To'pning yerga tushishiga yo'l qo'ymay, o'yinchi turgan joyida yoki harakatda jonglyorlik qiladi.




O'yinchi oyoqlari yuzasining tashqi va ichki tomonlari bilan bir oyoqda ketma-ket yoki goh u, goh bu oyoqda jonglyorlik qiladi.




O'yinchi oyoq zarbi bilan to'pni ustidan oshirib tashlaydi, 180° ga aylanib, to'pning yerga tushishiga yo'l qo'ymay, harakatda to'p bilan jonglyorlik qiladi. Keyin payt poylab u yana to'pni ustidan oshiradi va jonglyorlik qilishda davom etadi.



Chalqancha yotgan holatda yoki o'tirib o'yinchi to'pni oldinga-tepaga tashlaydi, tezda sakrab turadi va uning yerga tushishiga yo'l qo'ymay, oyog'iga (boshiga) qabul qilib olib u bilan jonglyorlik qiladi.



A o'yinchi oyog'iga qabul qilib oladigan B o'yinchiga to'pni uzatadi, boshiga tashlab beradi, shundan keyin soniga, yana oyog'iga tashlaydi va qaytadan sherigiga yo'naltiradi.



A o'yinchi sherigi B o'yinchiga to'pni shunday yetkazib beradiki, to'p uning oyog'iga yerdan sakrab tushsin. B o'yinchi ozgina vaqt oyoqlari bilan turli usullarni qo'llab jonglyorlik qiladi, keyin A o'yinchiga ham to'p yerdan sakrab oyog'iga tushadigan qilib uzatadi.



A o'yinchi boshi bilan to'pni shunday jo'natadiki, u B o'yinchiga yerdan sakrab yetib

boradi. *B* o'yinchi oyog'i bilan to'pni qabul qilib oladi, uni soniga tashlaydi, sonidan boshiga oshiradi va boshi bilan qayta *A* o'yinchiga oshiradi (32-rasm).



A o'yinchi to'pni tepaga otadi va boshi bilan *B* o'yinchiga yo'llaydi. *B* o'yinchi to'pni oyog'i bilan qabul qilib oladi, keyin oyog'idan boshiga oshirib, keyin qo'lga oladi.



A o'yinchi oldinga harakat qila borib oyoqlari bilan to'pni jonglyorlik qiladi. Keyin payt poylab, to'pni ustidan oshirib sherigiga yetkazib beradi. Bu o'yinchi to'p yerdan sakrab unga yetib kelgach, u to'pni boshi ustidan oshirib oyoqlari bilan jonglyorlikni harakatda davom ettiradi.



A o'yinchi o'tirgan holatidan to'pni vertikal ravishda tepaga otadi, tezda sakrab turadi va to'pning yerga tegishiga yo'l qo'ymay uni oyoqlari bilan jonglyorlik qiladi, keyin esa oyoq bilan zarb berib *B* sherigining qo'lga uzatadi.



A va *B* o'yinchilar devor (stenka) oldida. *A* o'yinchi to'p bilan jonglyorlik qilib, payt poylab *B* o'yinchiga to'p devorga tegib sakrab yetib borishini mo'ljallab tepadi, o'zi esa devor uzunasi tomon o'tib oladi *B* o'yinchi to'pni yerga tushishiga imkon bermay yengilgina qabul qilib oladi va to'p bilan jonglyorlik qilishda davom etadi va hokazo.



O'yinchi to'p bilan ma'lum izchillikda jonglyorlik qiladi: oyoq yuzasining pod'yomi, soni, boshi 180° ga burilib yana pod'yom bilan.



O'yinchi bir tegishda o'ynab yoki ikki tegishda to'pni ustidan oshiradi: bir tegishda to'pni qabul qilib, ikkinchi tegishda ustidan oshirib yuborish.



5.5. To'p surishni takomillashtiramiz

To'pni turli usullar bilan (uchlikda) dumalatib o'ynashning mashqini olish: birinchi o'yinchi (*A*) ikkinchi o'yinchi tomon (*B*) to'p suradi, to'xtatadi (taqab) va *B* o'yinchining o'rnini oladi. Unisi *V* o'yinchiga qarab va hokazo to'p suradi.



To'p surishni ikki to'p bilan surish mashqini olish xuddi 39-rasmdagi mashqidek o'tkaziladi. Birinchi o'yinchi to'p suradi, uni yarim yo'lga to'xtatadi va ikkinchi to'p bilan yo'l davomiga start oladi. *B* o'yinchi to'pni qabul qilib oladi.



To'p o'ynovchi o'g'il va qizlar 4-6 kishi bo'lib, oldin kichik doiradan boshlab, keyin katta doyra hosil qilib to'pni bir-birlariga uzatadilar va aksincha. Sherigining jamoasiga ko'ra goh chap, goh o'ng oyoqda to'p surish.



“Sakkiz” raqami ustida aylanib to'p surish: *A* - “tashqi” oyoq yuzasining ichki qismi bilan, *B* - “ichki” oyoq yuzasining “tashqi” oyoq yuzasi bilan to'p surish.



“Sakkizsimon” bo'yicha to'p surish: *A* - “sakkizlik” ning birinchi yarmi bo'yicha “tashqi” oyoq bilan, ikkinchi yarmi bo'yicha “ichki” oyoq bilan, butun “sakkizlik” bo'yicha bir oyoqda to'p surish; *B* - “sakkizlik” ning birinchi yarmi bo'yicha “ichki” oyoq bilan, ikkinchi yarmi bo'yicha “ichki” oyoqda, butun “sakkizsimon” bo'yicha bir oyoqda to'p surish.



To'pni oldinga qarab surish: sherikning jamoasi bo'yicha oyoq yuzasining ichki tomoni bilan to'pni to'xtatish (*a*) va u bilan boshqa yo'nalishga qarab zarb yugurish qilib to'p surish (*b*).



To'pni oldinga qarab surish: sherikning jamoasi bo'yicha tormoz berish (a), shuningdek to'p bilan zarb yugurish qilib boshqa yo'nalishga qarab to'p surish mashqini olish va to'pni oyoq yuzasining tashqi tomoni bilan to'xtatib qolish (b).



To'pni oldinga qarab surish: sherikning jamoasi bo'yicha oyoq yuzasining ichki qismi bilan to'p to'xtatish (a), to'p bilan burilishlar (b) va boshqa tomonga zarb yugurish mashqlarini olish (v).



To'pni oldinga qarab surish: sherikning jamoasi bo'yicha oyoq yuzasining ichki qismi bilan to'p to'xtatish (a), qarama-qarshi tomonga yasama burilish qilish (b), to'pni dastlabki holatga qarab yo'naltirish (v) mashqini olish.




180° burilib oyoq kaftining pastki qismi bilan to'pni tortib oluvchi oyoq tomonga "tortish".



Har bir oyoqda navbatma-navbat to'pni oyoq tomonga tortib olish. To'pni oldinga qarab surish: jamoa bo'yicha to'pni qisib qolish (*a*), uni o'z tomoniga tortish (*b*) va to'p bilan o'sha yo'nalishning o'ziga harakatni davom ettirish. Topshiriqni har bir oyoqda navbatma-navbat bajarish.



O'yinchi to'pni oldinga qarab surmoqda. Jamoa bo'yicha to'pni oyoq bilan yerga taqab (*a*), uni bir vaqtning o'zida 90° ga burilib oyoq tomonga tortib (*b*), navbatma-navbat turli tomonga zarb yugurish qilish (*v*), topshiriqni har bir oyoqda navbatma-navbat bajarish.



To'pni oldinga qarab surish paytida sherik jamoasi bo'yicha to'pni oyoqning pastki qismi bilan to'xtatash (*a*), ayni paytda 180° ga burilib, uni oyoq tomonga tortib (*b*) qarshi tomonga qarab harakat qilish (*v*). Topshiriqni har bir oyoqda navbatma-navbat bajarish.



5.6. To'pga zarba berish

To'pga zarba berishni takomillashtirish uchun to'pning tezligi va aniqligini iloji boricha aniq bilishga, uning yo'nalishi va tezligini ixtiyoriy o'zgartira olish ko'nikmasiga ega bo'lishga erishmoq kerak.

Zarur aniqlikka erishmoq uchun futbolchilar trenirovkasi jarayonida ularga to'pni muayyan nishonga tegizishga o'rgatadigan mashqlar beriladi.

Aniqlikni trenirovka qilishning asosiy metodi priyomni bajarish sharoitini asta-sekin murakkablashtirib borishdir. U quyidagilardan iborat;

- a) nishonni kuchaytirish;
- b) normativ talablarini oshirish;
- v) turli to'siqlarni qo'yish;
- g) harakat tezligini oshirish.

Aniqlikni tarbiyalash trenirovkasida ko'pincha futbol darvozasidan nishon o'rnida foydalaniladi. Nishon o'rnidagi darvozani kichraytirish uchun tesma bilan turli hajmdagi kvadrat va to'g'ri to'rtburchakka bo'linadi.

Shuningdek, maxsus devordan foydalaniladi, unda bosh bilan futbol darvozasi chiziladi. Eng oxiri kvadrat raqam bilan belgilanadi. Futbolchilar to'pni muayyan usullar bilan tepishi uchun pastak darvoza, ustunlar va turli halqalar maydon sifatida ham xizmat qiladi.

Musobaqalar paytida to'pni mo'ljalga aniq tepish uchun mashg'ulot chog'ida to'pni o'yin sharoitiga yaqinlashtirilgan sharoitda tepishga o'rganish kerak. To'pni darvozabon himoyasidagi darvozaning eng nozik joyiga yuboriladi. To'pni tepib yuborishga himoyachilar tusqinlik qiladilar. Tepishni oldindan tayyorgarliksiz, ya'ni yondanmi, orqadanmi dumalab yoki uchib kelayotgan, yuqoridan tushayotgan to'pni tepib mashq qilmasdan bajariladi. Tepish o'yinlarda va o'yin mashqlarida bajariladi.

To'pga zarb berish trenirovkasi to'pni turli nishonlarga nihoyatda aniq tepish vazifalari bilan cheklanmaydi. Futbolchi to'pni kerakli tezlik bilan uzatishni ham bilishi darkor. To'pni uchish tezligi berilgan zarbning kuchiga, uning qanday bajarilganligiga va tashqi muhit sharoitiga bog'liqdir.

Tepishni takomillashtirish jarayonida usulni oqilona bajarishga katta ahamiyat beriladi. Bunga to'pga zarba berish detallarini muntazam aniqlay borish bilan erishiladi.

Futbolchiga priyomni bajarish xususida qo'yiladigan umumiy talablar bilan bir qatorda, uning to'pni zarur aniqlik va uchish tezligiga erishtiruvchi xususiyati ham albatta hisobga olinadi.

Trenirovkada tepishni bajarish uchun zarba beriladigan dastlabki holatni asta-sekin o'zgartirish, to'pning parvoz masofasini uzaytirish, to'pning og'irligi va tarangligini uzgartirish, shuningdek tepishni turli tashqi muhit sharoitlarida bajartirish bilan murakkablashtirib boriladi. Natijada, futbolchida moslashuvchi reaksiya, harakatchan dinamik stereotip hosil bo'ladi.

5.7. To'pga zarba berishni trenirovka qilish uchun taxminiy mashqlar

1. Jim turgan yoki oldinga sekin siljiyotgan to'pni muayyan usul bilan: oyoq yuzi, oyoq uchi bilan zarba berish va boshqalar.
2. Turli tezlik bilan oldinga siljib borayotgan (oldinda-chapda, oldinda-o'ngda) to'pga chap va o'ng oyoq bilan zarba berish.
3. Yerdan sapchigan to'pni uchib kelayotganda, tushib kelayotganda o'ng va chap oyoq bilan nishonga tepish.
4. Oldinda sakrab borayotgan to'pni (oldinda-o'ngda, oldinda-chapda) o'ng va chap oyoq bilan nishonga tepish.
5. Ikki o'yinchi to'pni bir-biriga uzatadi va to'xtatmay turib aytilgan usulga muvofiq zarba beradi.
6. Yerdan sapchigan to'pga chap va o'ng oyoq bilan istagan usulda zarba berish.
7. To'pni havoda (erga tushirmay) ushlab turib tepish.
8. O'yinchi to'r qarshisida turli masofada turib unga to'pni tepadi.
9. Pastak darvozaga to'pga turli usul bilan turli masofadan, turli burchak bilan, turli tezlik va traektoriyada zarba berish.
10. Boshqa nishonga shunday tepish.
1. 11 metr dan, maydonning burchagidan, darvozadan zarba berish.
11. Sakramay bosh bilan urish.
12. Shuning o'zini sakrab bajarish.
13. Sakramay turib darvozaga bosh bilan urish.
14. Sakrab turib shuning o'zini bajarish.
15. To'pni bosh bilan urib havoda ushlab turish.
16. "Bosh va oyoq bilan voleybol" o'yini.
17. O'yin mashqlari 3x2, 4x2 va boshqalar.
18. Osib qo'yilgan to'pga bosh va oyoq bilan tegish.
19. To'siqdan oshirib o'tib (ustun, sherik va boshq.) nishonga zarba berish.
20. Yiqilayotganda (o'zidan oshirib va boshq.) tepish.

Zarba berish uchun quyidagi maxsus qurilmalardan foydalanish mumkin: signal sistemasi bilan jihozlangan, futbol darvozasiga o'xshash tikka shchit, zarba kuchini o'lchaydigan maxsus dinamometr va boshqalar. Ana shu qurilmalar yordamida futbolchi trenirovka natijalari to'g'risida aniq axborot olib, mustaqil shug'ullanish hamda zarba berish texnikasi jarayonini takomillashtirish samaradorligini ancha oshiradi.

5.8. To'pni tuxtatib qolish

To'pni to'xtatishdan asosiy talab-usulni eng kam vaqt ichida bajarish va to'pni har bir aniq vaziyatda eng foydali o'ringa olib kelishdir.

Bunda futbolchi har qanday tezlikda uchib kelayotgan to'pning to'xtata bilishi favqulodda muhimdir. Bunga quyidagicha;

- chekinish harakati yordamida;
- oyoq, bo'yin, ko'krak muskullarini bo'shashtirish;

5.6. To'pga zarba berish

To'pga zarba berishni takomillashtirish uchun to'pning tezligi va aniqligini iloji boricha aniq bilishga, uning yo'nalishi va tezligini ixtiyoriy o'zgartira olish ko'nikmasiga ega bo'lishga erishmoq kerak.

Zarur aniqlikka erishmoq uchun futbolchilar trenirovkasi jarayonida ularga to'pni muayyan nishonga tegizishga o'rgatadigan mashqlar beriladi.

Aniqlikni trenirovka qilishning asosiy metodi priyomni bajarish sharoitini asta-sekin murakkablashtirib borishdir. U quyidagilardan iborat;

- a) nishonni kuchaytirish;
- b) normativ talablarini oshirish;
- v) turli to'siqlarni qo'yish;
- g) harakat tezligini oshirish.

Aniqlikni tarbiyalash trenirovkasida ko'pincha futbol darvozasidan nishon o'rnida foydalaniladi. Nishon o'rnidagi darvozani kichraytirish uchun tesma bilan turli hajmdagi kvadrat va to'g'ri to'rtburchakka bo'linadi.

Shuningdek, maxsus devordan foydalaniladi, unda bosh bilan futbol darvozasi chiziladi. Eng oxiri kvadrat raqam bilan belgilanadi. Futbolchilar to'pni muayyan usullar bilan tepishi uchun pastak darvoza, ustunlar va turli halqalar maydon sifatida ham xizmat qiladi.

Musobaqalar paytida to'pni mo'ljalga aniq tepish uchun mashg'ulot chog'ida to'pni o'yin sharoitiga yaqinlashtirilgan sharoitda tepishga o'rganish kerak. To'pni darvozabon himoyasidagi darvozaning eng nozik joyiga yuboriladi. To'pni tepib yuborishga himoyachilar tusqinlik qiladilar. Tepishni oldindan tayyorgarliksiz, ya'ni yondanmi, orqadanmi dumalab yoki uchib kelayotgan, yuqoridan tushayotgan to'pni tepib mashq qilmasdan bajariladi. Tepish o'yinlarda va o'yin mashqlarida bajariladi.

To'pga zarb berish trenirovkasi to'pni turli nishonlarga nihoyatda aniq tepish vazifalari bilan cheklanmaydi. Futbolchi to'pni kerakli tezlik bilan uzatishni ham bilishi darkor. To'pni uchish tezligi berilgan zarbning kuchiga, uning qanday bajarilganligiga va tashqi muhit sharoitiga bog'liqdir.

Tepishni takomillashtirish jarayonida usulni oqilona bajarishga katta ahamiyat beriladi. Bunga to'pga zarba berish detallarini muntazam aniqlay borish bilan erishiladi.

Futbolchiga priyomni bajarish xususida qo'yiladigan umumiy talablar bilan bir qatorda, unga to'pni zarur aniqlik va uchish tezligiga erishtiruvchi xususiyati ham albatta hisobga olinadi.

Trenirovkada tepishni bajarish uchun zarba beriladigan dastlabki holatni asta-sekin o'zgartirish, to'pning parvoz masofasini uzaytirish, to'pning og'irligi va tarangligini uzgartirish, shuningdek tepishni turli tashqi muhit sharoitlarida bajartirish bilan murakkablashtirib boriladi. Natijada, futbolchida moslashuvchi reaksiya, harakatchan dinamik stereotip hosil bo'ladi.

5.7. To'pga zarba berishni trenirovka qilish uchun taxminiy mashqlar

1. Jim turgan yoki oldinga sekin siljiyotgan to'pni muayyan usul bilan: oyoq yuzi, oyoq uchi bilan zarba berish va boshqalar.
2. Turli tezlik bilan oldinga siljib borayotgan (oldinda-chapda, oldinda-o'ngda) to'pga chap va o'ng oyoq bilan zarba berish.
3. Yerdan sapchigan to'pni uchib kelayotganda, tushib kelayotganda o'ng va chap oyoq bilan nishonga tepish.
4. Oldinda sakrab borayotgan to'pni (oldinda-o'ngda, oldinda-chapda) o'ng va chap oyoq bilan nishonga tepish.
5. Ikki o'yinchi to'pni bir-biriga uzatadi va to'xtatmay turib aytilgan usulga muvofiq zarba beradi.
6. Yerdan sapchigan to'pga chap va o'ng oyoq bilan istagan usulda zarba berish.
7. To'pni havoda (erga tushirmay) ushlab turib tepish.
8. O'yinchi to'r qarshisida turli masofada turib unga to'pni tepadi.
9. Pastak darvozaga to'pga turli usul bilan turli masofadan, turli burchak bilan, turli tezlik va traektoriyada zarba berish.
10. Boshqa nishonga shunday tepish.
11. 11 metrdan, maydonning burchagidan, darvozadan zarba berish.
12. Sakramay bosh bilan urish.
13. Shuning o'zini sakrab bajarish.
14. Sakramay turib darvozaga bosh bilan urish.
15. Sakrab turib shuning o'zini bajarish.
16. To'pni bosh bilan urib havoda ushlab turish.
17. "Bosh va oyoq bilan voleybol" o'yini.
18. O'yin mashqlari 3x2, 4x2 va boshqalar.
19. Osib qo'yilgan to'pga bosh va oyoq bilan tegish.
20. To'siqdan oshirib o'tib (ustun, sherik va boshq.) nishonga zarba berish.
21. Yiqilayotganda (o'zidan oshirib va boshq.) tepish.

Zarba berish uchun quyidagi maxsus qurilmalardan foydalanish mumkin: signal sistemasi bilan jihozlangan, futbol darvozasiga o'xshash tikka shchit, zarba kuchini o'lchaydigan maxsus dinamometr va boshqalar. Ana shu qurilmalar yordamida futbolchi trenirovka natijalari to'g'risida aniq axborot olib, mustaqil shug'ullanish hamda zarba berish texnikasi jarayonini takomillashtirish samaradorligini ancha oshiradi.

5.8. To'pni tuxtatib qolish

To'pni to'xtatishdan asosiy talab-usulni eng kam vaqt ichida bajarish va to'pni har bir aniq vaziyatda eng foydali o'ringa olib kelishdir.

Bunda futbolchi har qanday tezlikda uchib kelayotgan to'pning to'xtata bilishi favqulodda muhimdir. Bunga quyidagicha;

- chekinish harakati yordamida;
- oyoq, bo'yin, ko'krak muskullarini bo'shashtirish;

to'pni qadam, to'piq, ko'krak bilan to'sib qolish orqali erishiladi.

Bu harakatlar qanchalik ixcham bajarilsa, to'p shunchalik tez to'xtatib qolinadi. Shuning uchun trenirovkaning asosiy vazifasi ko'rsatib o'tilgan harakatlarni aniq bajartirishdir. Bunda futbolchi ortiqcha harakatlarni qanchalik kam bajarsa, to'pni shunchalik tez to'xtatib qoladi. Ko'pincha to'pni to'xtatib qolishni boshqa priyomga (tepish, olib yurish va boshq.) shaylanib bajarish hollari ham uchraydi. Futbolchiga yerdan dumalab ketayotgan, havoda uchib ketayotgan, yuqoridan tushib kelayotgan yoki turli tezlik bilan turli sharoitda yerdan sakrayotgan to'pni to'xtatib qolishga to'g'ri keladi.

To'pni to'xtatib qolish trenirovkasi, odatda, tepish trenirovkasi bilan bir vaqtda o'tadi.

To'pni to'xtatib qolish mashg'ulot bilan mustaqil shug'ullanganda, tikka qo'yilgan taxta devordan foydalaniladi: to'p taxta devorga turli burchaklardan qaytib keladigan qilib tepiladi. Bunda to'p turli traektoriyada qaytadi. To'pning traektoriyasi o'tkirroq bo'lishi uchun engashtirilgan taxta devordan foydalaniladi. Bundan tashqari, futbolchi mustaqil trenirovka qilib, to'pni yuqoriga otadi va uni (qo'l yoki oyoq bilan) yerga tushayotganda to'xtatib qoladi.

Biroq, o'yinchilar ko'pincha to'pni sherik yoki trener yordamida to'xtatadilar. To'pni to'xtatib qolishga oid taxminiy mashqlar.

1. Tashlab berilgan to'pni (turli usullarda) to'xtatish.
2. Tikka yoki engashtirilgan taxta devordan qaytgan to'pni turli usullar bilan to'xtatish.
3. Sherik yoki trener tepib yuborgan, boshi bilan urgan yoki qo'li bilan tashlagan to'pni turli usullar bilan to'xtatib qolish.
4. To'pni o'yinlarda, o'yin mashqlarida (3x2:4x2 va boshq.) to'xtatib qolish.

To'pni olib yurish trenirovkasini boshlashdan oldin harakatlarni yaxlit, qo'shimcha tarzda bajarish vazifasi qo'yiladi. Bunga to'pni turli usullarda turli tezlikda to'siqdan va tusiqsiz joydan olib yurish orqali erishiladi. Bunda to'p turli yo'nalishlarda (to'g'ri, qiya yerdan, ilon izi va boshq.) olib yuriladi. To'pni olib ketayotgan futbolchining yo'lga turli ustuncha, osib qo'yilgan qopcha, to'siqlar qo'yiladi.

To'pni olib yurish musobaqa sharoitiga yaqinlashtirilgan sharoitda amalga oshiriladi, buning uchun beriladigan o'yin va o'yin mashqlari mo'l bo'ladi.

Futbolchi to'pni eng katta tezlikda olib yurishni o'rganishga intiladi, bu olib yurish texnikasi va yugurish tezligiga bog'liq. Bu ikki shart majburiydir.

Futbolchilarda absolyut yugurish tezligi "Jismoniy tarbiya" bo'limida bayon qilingan maxsus metodlar yordamida rivojlantiriladi. To'pni olib yurish texnikasi esa maxsus mashqlar yordamida takomillashtiriladi. Katta tezlikdagi harakatlar yahlitligini o'rganishni esa qo'shma metodlar yordamida amalga oshiriladi.

5.9. To'pni tashlash

Futbolchi to'pni ikki qo'llab uzoqda, aniq tashlashni bilishi kerak. To'pni tashlashga o'rganish trenirovkasini yaxshisi-sherik bilan (sekin-sekin masofani o'zgartirgan holda) bajargan ma'qul. Bu mashqda aniq tashlash takomillashadi, chunki sherigi to'pni quliga yoki oyog'iga, boshiga, ko'kragiga turli tezlik va traektoriyada tashlab

berishni talab qiladi. Natijada, tashlab berish trenirovkasi tepish, bosh bilan urish hamda to'pni to'xtatish trenirovkasi bilan barobar olib boriladi.

Aniq tashlashni trenirovka qilish bilan futbolchi to'pni maydonning belgilangan uchastkasi (markaziy doiraga, jarima maydoni va boshq.) ga aniq uzatadigan bo'la boradi. To'pni uzoqda tashlashning muvaffaqiyatli chiqishi uchun qo'l va gavda muskul kuchini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarning ahamiyati kattadir.

5.10. To'pni olib qo'yish

To'pni olib qo'yish-o'yin jarayoni va o'yin mashqlarida trenirovka qilinadi. To'pni olib qo'yish trenirovkasiga oid mashqlar juda kam uchraydi.

To'pni olish uchun uni olish lahzasini aniq belgilash, uni bajarish vositalarini, o'yinda yo'l qo'yiladigan qoidalarini aniq bilish, tanlangan vositalarni o'z vaqtida aniq ishga solish va uni bexato bajarish favqulodda muhim, futbolchilar to'pni gavda bilan turtish, oyoq bilan tepish orqali, to'p yaqinlashib kelganda unga oyoq qo'yib qolish bilan tortib olishni trenirovka qiladilar.

5.11. Yo'nalishni o'zgartirib to'p olib yurish va raqibni aylanib o'tib to'p olib yurish malakalarini tarbiyalash

To'pni bir oyoqdan boshqa oyoqda dumalatish: *A*-to'p harakati amplitudasini oshirish (to'p bilan chapga, o'ngga, orqaga tashlanib); *B* 2-4 qadam chapga (o'ngga) tashlash, dastlabki holatga qaytish.



Sherik jamoasi bo'yicha to'psiz harakat qilishni o'rganish-chapga aldanma hamda o'ngga zarb yurish va aksincha.



To'pni ilon izi (oldinga-chapga, chapga-o'ngga) qilib surish (4-6 qadam). *A*-to'pni oldinga "tashqi" oyoq yuzasining ichki qismi bilan (tashlash paytida o'ngga-o'ng oyoq bilan, chapga-chap oyoq bilan) surish, 5-shuning o'zini "ichki" oyoq yuzasining ichki qismi bilan bajarish (tashlash paytida o'ngga-chap oyoq bilan, chapga-o'ng oyoq bilan).



O'yinchilar qatorda belgilar (bayroqchalar, ustunchalar, tiqma koptoklar, tik turgan sheriklar va hokazo) oralab oldinga qarab to'p suradilar, orqaga esa-belgilar yonida: A-har bir belgini bir marta chapga, boshqa gal to'p surish jarayonida oyoqlarni almashlab o'ngga: "ichki" oyoq harakat qilayotgan paytda to'pga oyoq yuzasining ichki qismi (a), "tashqi" oyoq harakat qilayotgan paytda oyoq yuzasining ichki qismi to'pga tegadi (b), B- o'yinchi o'ziga to'pni oldinga belgi yoniga tashlab beradi, bunda u belgining boshqa tomonidan aylanib o'tadi.



To'pga ega bo'lgan o'yinchi sherikning jamoasi bo'yicha to'pni oldinga qarab suradi: oyoqni bir tomonga siltaydi (a)-to'p bilan boshqa tomonga tashlanadi (b).



5.12. Harakatli o'yinlar, estafetalar "Uchinchisi ortiqcha". 10-12 kishi o'ynaydi.



Tayyorgarlik. Maydoncha markazida diametri 8-10 metrli doyra chiziladi. O'yinchilar juft-juft bo'lib, doyra bo'ylab turna qator bo'lib 1-2 metr masofada turishadi. Trener ikki boshlovchini tayinlaydi: qochuvchi va yetib oluvchi.

O'yin tafsiloti. Tovush signaliga qarab qochayotgan kishi yetib olayotgan kishidan uzoqlashib ketishga harakat qiladi, keyin kutilmaganda juft turganlardan birining oldiga turib oladi. Orqada turgan o'yinchi qocha boshlaydi. Agar orqada turgan o'yinchi yetib oluvchi bo'ladigan bo'lsa, o'yin yanada qiziqroq kechadi.

Varianti. Juft-juft bo'lib turganlar oyoqlarini keng qo'yadilar, qochayotgan o'yinchi esa oyoqlar orasidan emaklab o'tishi kerak.

Maqsad. O'yin yugurish, reaksiya tezligi va tez chopish, chaqqonlik, harakatlanish malakalarining takomillashuviga yordam beradi.

"Quyionlarni ovlaymiz". 12-16 kishi o'ynaydi.



Tayyorgarlik. Zal markazida diametri 10 metrli doyra chiziladi.

O'yinda ishtirok etuvchilarni 6-8 kishidan qilib ikki jamoaga ajratiladi. Jamoalardan biri ("quyonlar") doyra ichida turadi. Voleybol to'pli "ovchilar" doyra chizig'idan tashqarida turishadi.

O'yin tafsiloti. Tovush signaliga qarab "ovchilar" doyra ichiga kirmay, to'pni "quyonlarga" tekkizishga harakat qiladilar, bunda "quyonlar" doyra ichida xavfsiz joyga chopib o'tadilar. To'p tekkan "quyonlar" o'yindan chiqadi va oldindan kelishib


qo'yilgan to'rtta qo'shimcha mashqlardan birini bajarishga kirishadi. O'yin hamma "quyonlar" urib chiqarilmaguncha davom etadi. Shundan so'ng jamoalar o'rin almashadi. Eng kam yoki belgilangan vaqtda (masalan, uch daqiqada) raqiblar jamoasi o'yinchilarini o'yindan chiqargan jamoa g'olib sanaladi.

O'yin qoidasi. "Ovchilar" doyra ichiga oyoq qo'yishga haqlari yo'q (oldinga tashlanish hisobga o'tmaydi). Doyra chizig'idan chikib ketgan "quyon" o'yindan chiqadi. To'p gavdaning boshdan tashqari (to'pni bosh bilan qaytarish mumkin) har qanday qismiga (erdan yoki boshqa sherigidan sakrab kelib tegsa hisobga o'tmaydi) tegsa—"quyonga" tekkan hisoblanadi. Bu o'yinda o'yinchilarning bir-biriga to'p uzatish yo'li bilan kollektiv harakatlar qilishga erishish zarur.

Varianti. Agar to'p oyoq zarbidan kelib tegsa—"quyonlar" o'yindan chiqadi.

Maqsad. O'yin to'pni ilib olish, uzatish va uloqtirish malakalarini mustahkamlaydi. Orientir qilish, reaksiya, topqirlik (joy tanlash), chaqqonlik, aniq harakatlarni takomillashtiradi.

"Bo'ri o'z uyasida". 10-12 kishi o'ynaydi.



Tayyorgarlik. Maydoncha markazida oralig'i 80-100 santimetrli (uya) ikkita parallel chiziq tortiladi. Zalning qarama-qarshi tomonida ikkita "uy" chizib qo'yiladi. "Uyada" joylashib oladigan bitta-ikkita boshlovchilar ("bo'rilar") tanlab olinadi. Qolganlar ("quyonlar", "qo'zichoqlar", "echkilar") uylardan birining chizish ortida turadilar.

O'yin tafsiloti. Signal bo'yicha "hayvonlar" boshqa uya, "onalari" oldiga chopib o'tishga harakat qiladilar. Bunda ular yo'l-yo'lakay "uyadan" uyoq-buyoqqa sakraydilar. "Bo'rilar" ularga qo'l tekkizishga intiladilar. Qo'lga tushganlar qo'shimcha jismoniy yuklama bajaradilar (masalan, 10 marta tortilish va 10 marta o'tirib-turish) va o'ynayotganlar oldiga qaytadilar. Kimki biror marta ham qo'lga tushmasa, o'sha g'olib sanaladi.

O'yin qoidasi. Chopib o'tishlar faqat signal bo'yicha bo'ladi. "Uyaning" ustiga turish mumkin emas. "Bo'rilar" "uyalaridan" chiqishga haqlari yo'q. "Uya" oldida qo'lga tushgan (to'xtatilgan) yoki ortga qaytganlar qo'lga tushgan hisoblanadi. "Uya" bo'ylab manyovr qilishga ruxsat beriladi, ammo bunda albatta undan sakrab o'tishi shart. Chiziqlar va "bo'rilar" o'rtasidagi masofalar soni oshirilishi mumkin.

Maqsad. O'yin yugurish, uzunlikka sakrash, manyovr qilishni takomillashtirishga yordam beradi, mo'ljallashni, topqirlik, botirlikni rivojlantiradi.

“Kim tezroq”. 4-10 kishi o‘ynaydi.



Tayyorgarlik. Maydoncha markazida diametri 10-12 metrli doyra chiziladi, zal burchaklariga aylanib o‘tish uchun ustunlar o‘rnatiladi. To‘p bilan o‘ynovchilar doyra ichida turadilar.


O‘yin tafsiloti. Tovush signali bo‘yicha o‘yinchilar ixtiyoriy ravishda to‘p bilan doimo “trenerni” ko‘rib turishga harakat qilishib jonglyorlik qiladilar. Belgilangan ko‘rish signali bo‘yicha (masalan, qo‘llar “trenerni” belida) o‘yinchilar qo‘llarida to‘p bilan (to‘p surib) eng yaqin stoykaga qarab yuguradilar, uni aylanib o‘tadilar va doiraga qaytib kiradilar. Ikki oxirgi o‘yinchi (kechikkan) “takomillashtirish” zonasiga o‘tadilar va “trenerning” topshirig‘ini bajaradilar. O‘yin yangitdan boshlanadi. Doyra ichida qolganlar g‘olib deb e‘lon qilinadi.

O‘yin qoidasi. Agar jonglyorlik qilish paytida to‘p doyra chizig‘idan o‘tib ketsa, aybdor birinchi ogohlantirish oladi. Ikkinchi ogohlantirishdan so‘ng bu o‘yinchi “takomillashtirish zonasiga” o‘tadi. Ishtirokchilar birovning to‘piga tegmasliklari, raqibni qo‘llari bilan itarmasliklari kerak. Mashq paytida “trenerni” o‘rnini almashtirishi mumkin.

Varianti. Jonglyorlik qilish o‘rniga to‘pni fint qilib, to‘xtab qolishlar bilan surish mumkin.

Maqsad. O‘yin murakkab musobaqa sharoitida texnika elementlarini takomillashtiradi, chaqqonlik, fazoda orientir qilish, ko‘rish signaliga qarab reaksiya tezkorligini rivojlantiradi.

“Tezroq bayroqchalar tomon”. 12-16 kishi o‘ynaydi.



Tayyorgarlik. Maydonchani qarama-qarshi tomoniga ikki parallel chiziq tortiladi. Ulardan biri “o‘z uyi”, ikkinchisi “begona uy”. “O‘z uyidan” 8-10 metr nariga


ustun o'rnatiladi. O'yinchilar ikkita teng jamoaga bo'linadilar. Qur'a bo'yicha bir jamoa o'yinchilari (masalan, oq formadagilar) bittadan voleybol yoki futbol to'pini olishadi.

O'yin tafsiloti. Jamoaning to'pga ega bo'lgan birinchi nomer jamoasi (A, G) "o'z uyi" chizig'idan oyoq pod'yomi (gumbazi) bilan to'pni "begona uy" tomon havolatib tepadi, o'zi esa tezda stoyka tomon start oladi, uni aylanib o'tadi va "o'z uyiga" qaytadi. Qora formadagi o'yinchilar to'pni tutib qolishlari va individual tarzda yoki bir-biriga oshirish hisobiga chopib ketayotgan o'yinchiga to'pni tekkizishga harakat qilishlari kerak.

O'yin qoidasi. Qarshi jamoaning o'yinchisi (A, G) to'pni ilib olishi bilanoq (undan oldin mumkin emas), uning shariglari "o'z uylaridan" to'pni qabul qilib olish uchun stoyka tomonga o'tishlari mumkin. To'p tekkan o'yinchi ochko oladi. Hamma o'yinchilar dastlabki holatni egallaganlaridan so'ng o'yinga ikkinchi o'yinchi (B, D undan keyin V,E) o'yinga kiradi. Ma'lum vaqtdan keyin (5 daqiqa) jamoalar roli almashadi. Eng kam ochko olgan o'yinchi g'olib deb e'lon qilinadi.

Maqsad. O'yin tezkorlik, chaqqonlik, harakatlarni koordinatsiyalashni rivojlantirishga yordam beradi, oyoq pod'yomi bilan to'p tepish, to'pni ilib olish texnikasini takomillashtiradi, kollektiv bo'lib harakat qilishni tarbiyalaydi.

"Raqib to'pi uchun". 6-10 kishi o'ynaydi.




Tayyorgarlik. O'yinchilar 3-5 kishidan ikki jamoaga bo'linadi.

O'yin tafsiloti. Signal bo'yicha birinchi o'yinchilar oyoq pod'yomi bilan iloji boricha "maydonga" uzoqroqqa tepadilar va o'zlari raqib to'pi tomon intiladilar. O'z o'rmini birinchi bo'lib egallab olgan o'yinchi 1 ochko, ikkinchi o'yinchi 0 ochko oladi. Keyin ma'lum signal bo'yicha boshqa juft o'yinchilar to'p tepishadi va hokazo. Qaysi jamoa ko'p ochko to'plasa, o'sha g'olib sanaladi.

O'yin qoidasi. To'pga zarb berilgandan keyin o'z to'piga qayta tegish, raqibga halaqit berish mumkin emas.

Maqsad. O'yin kuchli zarb bilan tepish malakalarini takomillashtirishga yordam beradi, kuch, tezkorlikni rivojlantiradi.


Aralash estafeta: 8 metr zarb yugurish – to'xtash – go'yo to'pni boshi bilan urayotgandek imutatsiyali sakrash – 5 metr to'pga zarb yugurish – to'pni "mokisimon" surish – orqalama yugurib dastlabki pozitsiyaga kelish. 2 daqiqa (4 marta 30 soniyadan) nafas rostdash. Ixtiyoriy ravishda to'p bilan jonglyorlik qilish.




Aralash estafeta: yugurish – 3 ta yengil atletika to‘siqlaridan sakrab o‘tish – ilon izi bo‘lib, bayroqchalarni aylanib o‘tib yugurish – futbol to‘pi bilan “mokisimon” yugurish – 30 metrga chopish.



Umbaloq oshib, uzunlikka sakrash va to‘siqlar osha 25 metrga yugurish estafetasi.



Yugurish, skameykalar osha yugurish, umbaloq oshish va orqalama yoki qadam – baqadam chopish estafetasi .



Ikki to'p bilan "mokisimon" estafeta. Basketbol to'pini o'ynab surish va to'rga tushgunga qadar uni to'rga tashlash, to'pni ilib olish va dastlabki pozitsiyaga chopib kelish. Endi ikkinchi jadvalga ko'ra o'zingizning tezkorlik sifatini belgilab oling.

2-jadval

Tezkorlikni baholash

Topshiriqlar				Yosh					
				10	11	12	13	14	15
Startdan	15	metrga	yugurish,	3,2	3,1	3,0	2,7	2,6	2,5
soniyalar									
Startdan	30	metrga	yugurish,	5,3	5,2	5,1	4,8	4,6	4,4
soniyalar									
Yo'nalishni to'g'ri burchak shaklida o'zgartirib, startdan 15 metrga yugurish, soniyalar				5,2	5,1	5,0	4,8	4,7	4,6
Yo'nalishni o'tkir burchak shaklida o'zgartirib, startdan 15 metrga yugurish, soniyalar				6,0	5,8	5,6	5,4	5,3	5,2

5.13. Bosh bilan zarba

Futbolda o'yinchilar oyoqdagi zarbalar berishga nisbatan boshda ancha kam zarba beradilar. Biroq so'nggi vaqtlarda statistika ma'lumotlariga ko'ra bunday zarba berishlardan tez-tez foydalanilmoqda. Bu, darvozabonlarga to'pni havolatib o'rta chiziqdan ham nariga tashlash imkonini beruvchi yangi qoidalar kiritilganligi bilan izohlanmoqda.

Kalla bilan zarba berish texnikasini o'zlashtirishda yengillashtirilgan va osib qo'yilgan to'plardan foydalanish tavsiya etiladi. Zarbalarni esa, shunchaki boshni koptokka tutib qo'ya qolish bilan kifoyalanmasdan, aniq yo'nalishga qarata va ma'lum darajada kuch bilan berish lozim. Bunday zarbalar peshona o'rtasi, boshning yon va ensa qismi bilan turgan holatdagidek sakraganda yoki tashlanib turib ham bajariladi. Kalla bilan zarba berish texnikasini joyida turgan holatda peshonaning o'rtasida bajarish usulini tanishtirishdan boshlaymiz.



Bu borada shunday maslahatlarni berish mumkin:

- Bunday usul oyoqlarni yelka kengligida yoki oldinga bosgan holda qo'yib bajariladi. O'yinchi gavdasi zarba berish oldidan orqa tomonga bukiladi, oyoqlari tizza

va boldir pasti bo'g'imlaridan egiladi, orqa muskullar taranglashtiriladi. So'ngra gavda oldinga siljutilib, kallani bosh irg'itgandek keskin harakatlantirish kerak bo'ladi. Ana shu harakat muhimdir: zarba peshonaning o'rtasidan to'pning o'rtasiga beriladi. Bunda o'yinchi koptokning uchishini xotirada olib qolish uchun nazorat qilib turish kerak.

Ta'kidlash lozimki, peshona o'rtasidan beriladigan zarbalar yuqori darajada aniqligi bilan farqlanadi, bu to'pning sezilarli kattaroq joyiga boshning tegishi, koptokning parvozin ko'rib nazorat qilish qulayligi va zarba berish haroratida ko'proq muskullar qismi ishtirok etishi bilan izohlanadi. Peshona o'rtasidagi zarba kuchi zarba berish vaqtida gavdaning silkinish kengligi va bo'yin hamda orqa muskullarining taranglashish darajasiga bog'liq. Bunday usul bilan to'pni nafaqat oldinga, balki boshqa tomonlarga yo'llash mumkin. To'pga zarba berish paytidagi so'nggi holatda o'yinchining boshi va gavdasi koptokni yo'llash mo'ljallangan tomonga buriladi. Gavdani burish, odatda, oyoq uchida amalga oshiriladi.



Sakragan holatda peshonaning o'rtasi bilan zarba berish yanada murakkabroq hisoblanadi.



Bu borada mutaxassislar fikri:

- Bu zarba bir yoki ikki oyog'i bilan joyida turib yoki yugurib kelib sakrash orqali bajariladi. Zarba berishdan avval boshni orqaga bukish kerak. Iloji boricha balandroq sakrab, gavdani oldinga qisqa harakatlantirgan holda boshni keskin irg'atib to'pga zarba beriladi. Ko'z to'pning parvozin kuzatishda davom etadi. Oyoq uchida yerga tushiladi, oyoqqa zarbani kamaytirish uchun tizza bo'g'imlari bir oz egiladi. Bu usulning samarali bo'lishi zarba berish chog'ida o'yinchining o'z harakatini muvofiqlashtira bilishiga bogliq.

O'yin davomida boshning yon tomoni bilan beriladigan zarbalardan ham foydalaniladi.



Bu usul ham yerga tayangan holda, ham sakrab bajariladi. Yerga tayangan holda zarbani bajarishda to'pga nisbatan uzoq hisoblangan oyoq tizza bo'g'imidan bukilib, unga butun gavda og'irligi o'tkaziladi, so'ngra boshni yaqinlashayotgan tomonga buriladi. Zarba berish harakati oyoqni, gavdani va bo'yinni mo'ljallangan yo'nalishga tezda rostlab olishdan boshlanadi.

Gavdani uchib kelayotgan to'p tomonga egib va butun tana og'irligini oldinga ko'tarilgan oyoqda tashlagan holda zarba berish tugallanadi. O'yinchi sakrab boshining yon tomoni bilan zarba berganda maydon yuzasidan ko'tarila turib zarba taxminlangan yo'nalishning qarama-qarshi tomoniga gavdasini bukadi. Gavdani keskin to'g'irlash va ko'zlangan mo'ljal tomonga boshni harakatlantirish hisobiga mumkin qadar balandlikka sakrash nuqtasida to'pga zarba beriladi.

Boshning gardan qismi bilan zarba berish futbolda o'yinga kelayotgan to'p uning boshidan sal balandroqda bo'lsa (yoki unga tushayotgan koptokni biron-bir usul bilan boshqa tomonga yo'llash yoxud sheriklaridan birortasining oldiga tashlash iloji bo'lmasa) qo'llanadi.




Aynan shu pallada boshning ensa qismidan berilgan zarba bilan to'pni orqada turgan sherikka tashlash yoki bo'lmasa o'yin maydonining birmuncha xavfsizroq joyiga yo'llash o'rinli bo'ladi. Bu usul mahorati haqida quyidagi fikrlarni bildirish mumkin:

- Bu zarbani amalga oshirishda gavda va bosh birmuncha oldinga bukiladi. So'ngra gavdani yuqoriga - orqaga harakatlantirib va boshni orqaga silkitib to'p o'yinchi orqasiga yo'llanadi. Sakraganda ham bu zarba aynan shu tarzda bajariladi. To'pga bosh bilan zarba berishning murakkab holatlaridan biri o'yinchi koptokka tashlanib, havoda boshi bilan zarba berishdir.



Bu zarba texnikasi bosh bilan zarba berishning boshqa usullaridan mutlaqo farq qiladi.

Koptokka tashlanib zarba berish qachonki to'p o'yinchining oldiga pastlab uchib kelgan (odatda, beldan past paytlarda) va boshqa har qanday usul bilan zarba berishning iloji yo'q bo'lsa qo'llanadi. Bunday holatdagi koptokka yetish uchun o'yinchi bir oyog'i bilan (yugurib) yoki ikki oyoq bilan (joyidan) deysinib koptok tomon tashlanadi. O'yinchining tashlangan holati parvozda – maydon yuzasi bilan parallel tarzda kechadi. Parvoz chog'ida o'yinchining qo'llari tirsagidan bukilgan, ko'zlari to'pning harakatlanishiga qaratilgan bo'ladi. O'yinchining massasi va tezligi hisobiga to'pning o'rtasiga peshonaning o'rtasi bilan zarba beriladi. U so'nggi lahzalarda boshini burib zarba yo'nalishini o'zgartirishi mumkin. Shu bilan bir vaqtda o'yinchi to'pga tashlanayotib boshining yon tomoni bilan zarba bera oladi.



Bunday paytlarda to'p buralsa, uning uchish traektoriyasi zarba berishga mushkullik tug'diradi. Har qanday holatda ham zarba bajarilgandan keyin futbolchi yerga urilish zarbni kamaytirish uchun bir oz bukilgan qo'lga tiranib yerga tushadi. Shundan keyin ketma – ket ko'kragi, qorni, beli bilan yumalash amalga oshiriladi.

Bunday usulni futbolning mahoratni oshirish usullariga qo'shish mumkin. Qachonki o'yinchi raqib darvozasiga shunday holatlarda to'p kiritisa yoki bo'lmasa shu usullarni qo'llab o'z darvozasini xavfdan qutqarib qolsa, bu o'sha o'yinni yanada bezaydi.

6-BOB. FUTBOLDA DASTLABKI TAYYORGARLIK VA QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH METODLARI

6.1. Psixologik tayyorgarlik

Futbolchilarning psixologik tayyorgarligi umumiy psixologik tayyorgarlikni va oldinda turgan musobakaga psixologik tayyorgarlik ko'rishni o'z ichiga oladi.

Futbolchi shaxsining yuqori axloqiy-irodaviy hislatini tarbiyalash umumiy psixologik tayyorgarlikning asosiy vazifasi hisoblanadi. Quyidagilar ham umumiy psixologik tayyorgarlik vazifalariga kiradi:

- idrok etish jarayonlarini, xususan spesifik idrok etish ("to'pni his etish", "vaqtini his qilish", "fazoni his qilish") ni rivojlantirish;
- diqqatni (hajm, jadalik, taqsimlash, bir narsadan ikkinchisiga o'tishni) rivojlantirish;
- kuzatuvchanlikni, qiyin o'yin vaziyatlarida tez va to'g'ri mo'ljallanishni bilishni rivojlantirish;
- o'yindagi harakatlarning xususiyatlarini eslab qolish va oldinda turgan musobaqada ro'y berishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni batafsil tasavvur qila bilish qobiliyatida namoyon bo'ladigan xotira va faraz qilishni rivojlantirish;
- taktik fikrlashni, o'yin momentini tez va to'g'ri baholash qobiliyatini, samarali qaror qabul qilish va o'z harakatlarini nazorat qilishni rivojlantirish;
- o'yin faoliyati jarayonida o'z his-hayajonini boshqara olish qobiliyatini rivojlantirish.

Futbolchilar psixikasining hamma tomonlarini, ayniqsa fikrlashni, xotirani, irodani, diqqatni tasavvurni doimo takomillashtira borish planli ishlash va futbolchilarga pedagogik ta'sir etish predmeti bo'lishi kerak.

Umumiy psixologik tayyorgarlik musobaqaga psixologik tayyorgarlik ko'rishning poydevoridir.

G'alaba qilishga intilishi ochiq-oydin ko'rinib turganligi, yutib chiqish mumkin ekaniga ishonchi, emotsional ko'tarinkiligi (ijobiy his-hayajon) futbolchining musobaqaga psixologik tayyorligi holatining shartlaridir.

Futbolchida salbiy holatlar (tushkunlik, haddan tashqari to'liqinlanish, "start sarosimasi", kurashga aktiv intilishning yo'qligi) psixologik tayyorgarlik jarayonida hisobga olinadi.

Futbolchilarda o'z kuchiga ishonch ularni ko'p marta musobaqalarda tekshirish, kuchli raqiblar bilan mas'uliyatli o'yinlarda ishtirok etish tajribasi asosida yuksak mashk qo'rganlik, jismoniy jihatdan o'zini yaxshi his qilishi asosida tarbiya topadi. Ishonchni mustahkamlanishiga raqibni to'g'ri baholash, jamoaning uyushqoqligi va ittifoqligi, futbolchilarning bir-birini tushunishi va o'zaro yordamga tayyor turishi yo'li bilan erishiladi. Trenerning xotirjamligi, xatti-harakatlari, vazminligi ham futbolchilarning o'z kuchiga ishonchini oshiradi. Har bir sportchida irodaviy sifatlar yukori darajada rivojlangan bo'lishi lozim. Dadillik, qat'iylik, bosqililik va esankiramaslik, tashabbuskorlik, intizomlilik asosiy irodaviy xislatlardir.

Futbolchilarning irodaviy xislatlari o'yin harakatlari uchun spesifik bo'lgan, irodaviy zo'r berishni talab etuvchi mashqlarni trenirovka jarayonida ular sistematik

ijro etishi yo'li bilan tarbiya topadi. Qiyinchilikni yengib o'tishga to'g'ri rag'batlantirish sportchilarning irodaviy xislatlarini tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Futbolga qiziqish va muhabbatni uyg'otish, o'z kuchiga ishonchni mas'uliyat sezishni tarbiyalash, musobaqalashish metodini qo'llash, trenirovkaning maqsad va vazifalarini tushuntirish, trenerning talabchanligi, har kuni o'z-o'zini nazorat qilib borish-bularning hammasi sportchilarning irodaviy xislatlarini tarbiyalashda ko'maklashadi.

6.2. Dastlabki tayyorgarlik ko'rish metodlari

Texnik priyomlarni samaraliroq bajarish uchun nerv-muskul apparatining zarur bo'ladigan tayyorlik darajasiga yetishda dastlabki tayyorgarlik ko'rish mashqlari qo'llaniladi. Bu maqsadga yetish uchun yordamchi mashqlarni osonlashtirilgan va standart sharoitlarda o'tadigan texnika priyomlarni to'g'ri qo'shib olib borish kerak.

Harakat malakalarini mustahkamlash metodlari. Harakatlarni ular orasidagi eng qulay, ya'ni harakatlarning eng samarali bo'lishini ta'minlaydigan tanaffuslar oralab ko'p marta takrorlash, malakalarni mustahkamlashning eng asosiy metodidir. Shu maqsadda ijobiy emotsional holatlarni saqlashga ko'maklashuvchi mashqlarga o'tishdan ham foydalaniladi. Organizmdagi fiziologik jarayonlarning sustlashish holatini hisobga olib, mashqlarni murakkablashtirishda to'g'ri izchillikka rioya qilinadi.

"O'rgatish" metodini tanlayotganda samarali metod sifatida bevosita bo'lmagan metod ko'proq qadrlanadi. Futbolchi fikran o'ylagan mashqni nutqiy mustahkamlashga o'rganadi. Sportchiga harakat natijalari va unga qo'yilgan baho aytib turiladi.

Kechikib paydo bo'ladigan reflekslarga (soxta startlarga, "to'p tezlatish" harakatlari va shu singarilar) hamda shartli tormozlanishga, ya'ni u yoki bu o'rinsiz harakatlarning shartli reflekslar sifatida mustahkamlanib qolishiga (masalan, futbolchi 11 m likni tepishni muvaffaqiyatsiz bajarganda, ya'ni unda shu zarbaga ishonchsizlik tuyg'usi sezilganda) qarshi kurash olib boriladi.

Harakat malakalarining shu egaluvchanligini rivojlantirish metodlari. Kuch manbalari bo'lgan muskullar ish bajarayotganda ular bilan tashqi kuchlar orasida (og'irlik kuchi, ipqalanish kuchi, raqibining qarshiligi va shu singarilar) o'zaro muskul zo'r berishlari yuz berishini unutmagan, kuch omillarini (og'irlik, ishqalanish, qarshilik) juda ehtiyotlik bilan differensiya qilish zarur. Boshqacha qilib aytganda, muskullar zo'r berishini tashqi kuch omillari bilan o'zaro nozik aloqalarida juda gap ko'p.

Shunga bog'liq holda futbolchilardagi turli harakatlarning vaqt va fazoviy parametrlarni va zo'r berishlarni differentsiatlash qobiliyatlarini birinchi o'ringa qo'yiladi. Chunki, "fazoni his etmay turib kerakli yo'nalishda aniq harakat qilib bo'lmaydi, vaqtni idrok etmay turib, harakatda muayyan tezlik hosil qilib bo'lmaydi, harakat tezligini kerakli tarzda o'zgartirib bo'lmaydi" (V.S.Farfel).

Demak, aniq sezgilarni paydo qilish lozim ekan. Buning uchun esa: birinchi fazo va vaqtni aniq idrok etish hamda baholashni, fazoviy muvofiqlik sifatini baholashni bilishni shakllantirish.


To'pning uzoqda uchib borishini, to'pni olib borayotganda qadamning uzunligi va

chastotasini, to'pga beriladigan zarba chastotasini erkin o'zgartirish qobiliyatini hosil qilish lozim.

6.3. Tezkorlik, kuch, chaqqonlik sifatlarini rivojlantirish uchun mashqlar kompleksi.




Комплекс 1





Комплекс 2




1



2



3




4




5



6



7



8



9



10




11

Комплекс 3



12



13



14



15



16




17




18



19



20







Комплекс 4






Комплекс 5





Комплекс 6.



10




11



12



13





14






15



16







Комплекс 7



9




10



11




12




13




14




Комплекс 8





Комплекс 9



13





14



15



16



Комплекс 10



8



9



10



11




12



13



14





29



30




31



32




33





Комплекс II






1



2



3



4




5



6



7



8




9



10



Комплекс 12






22



23



24



25




26




27



28



29



Комплекс 13



11



12



13



14



15



16




17




18



19



20




21



22



23



24









25



26



27



Комплекс 14



9




10



11



12



13

GLOSSARIY

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida
Asosiy vaqt-to'qson daqiqaga teng match va qirq besh daqiqadan kam bo'lmagan taym uchun vaqt oralig'i.	Osnovnoe vremya promejutok vremeni, ravnyy dlya matcha devyanosta minutam, a dlya tayma - soroka pyati minutam i nikak ne menee (za isklyucheniem forsmajora).	Main time a period of time equal to ninety minutes for the match, and for a time forty-five minutes and no less (with the exception of force majeure).
Avtogol-o'yinchining o'z darvozasiga urgag goli.	Avtogol - gol, zabityy igrokom v vorota svoey komandy.	Auto goal - a goal scored by a player at the gate of his team.
Erkin zarba-to'g'ri bo'lmagan jarima zarbasi. Gol xisoblanadi, faqatgina, to' darvozaga uchish jarayonida biror bir jamoa o'yinchisi tupga tegib ketsa. Mabodo, tup darvozaga xech kimga tegmay kirsak, hakam burchak zarbasi belgilaydi.	* Svobodnyy udar - nepryamoy shtrafnoy udar, posle kotorogo gol zaschityvaetsya, tolko yesli xotya by odin iz igrokov (lyuboy komandy) prikosnulsya k myachu, poka tot letel do vorot. V sluchae, yesli myach popal v vorota bez takogo kasaniya, sudya naznachet uglovoy udar.	Free kick - an indirect free kick, after which a goal is counted only if at least one of the players (any team) touched the ball while it flew to the goal. If the ball hits the goal without such a touch, the referee appoints a corner kick.
Arbitr-musobaqa jarayonini, o'yin vaqtini nazorat kiliuvchi, shuningdek, sport musobaqasining boshlanishi va yakunlanishiga belgi beruvchi va natijalarni qayd qiluvchi odam.	Arbitr - chelovek, osushchestvlyayushiy kontrol za xodom sostyazaniya, vremenem igrы, a takje dayushiy signal okonchaniya i nachala sportivnogo sostyazaniya i fiksiruyushiy rezultaty.	Referee - a person who exercises control over the course of the competition, the time of the game, as well as giving a signal for the end and start of the sports competition and recording the results.
Erkin zarba-to'g'ri bo'lmagan jarima zarbasi. Gol xisoblanadi, faqatgina, to' darvozaga uchish jarayonida biror bir jamoa o'yinchisi tupga tegib ketsa. Mabodo, tup darvozaga xech kimga	* Svobodnyy udar - nepryamoy shtrafnoy udar, posle kotorogo gol zaschityvaetsya, tolko yesli xotya by odin iz igrokov (lyuboy komandy) prikosnulsya k myachu, poka tot letel do vorot. V sluchae, yesli myach popal v vorota bez	Free kick - an indirect free kick, after which a goal counts only if at least one of the players (any team) touched the ball while it flew to the goal. If the ball hits the goal without such a

tegmay kirsahakam burchak zarbasi belgilaydi.	takogo kasaniya, sudya naznachaet uglovoy udar.	touch, the referee appoints a corner kick.
Asosiy vaqt-to'qson daqiqaga teng match va qirq besh daqiqadan kam bo'lmagan taym uchun vaqt oralig'i.	Osnovnoe vremya - promejutok vremeni, ravnyy dlya matcha devyanosta minutam, a dlya tayma - soroka pyati minutam i nikak ne menee (za isklyucheniem fors- majora).	Main time a period of time equal to ninety minutes for the match, and for forty-five minutes and no less (with the exception of force majeure).
Dribling-raqib jamoa futbolchisini aldab o'tish maqsadida futbolchining o'ziga xos harakatlanishi.	Dribling - spetsificheskie dvizheniya futbolista s myachom, imeyushie svoey selyu obvodku igrokov drugoy komandy.	Dribbling - specific movements of a football player with a ball, with the aim of stroking the players of another team.
Dubl-jamoaning bitta mavsum jarayonida mamlakat birinchiligi va sovrinini qulga kiritishi	Dubl - vyigrysh odnoy komandoy odnovremenno kubka strany i pervenstva v techenie odnogo sezona.	Double - a single team wins the country's cup and championship simultaneously for one season.
Autsayder-turnir jadvalining oxirida turgan jamoa	* Autsayder - jamoa, kotoraya naxoditsya v konse turnirnoy tablisy.	Outsider - a team that is at the end of the standings.
Ataka-raqib jamoa darvozasiga harakatlanish.	Ataka - prodvijenie k vorotam protivnika.	Attack - advance to the opponent's goal.
Plyaj futboli-plyajda yoki qumda o'ynaladigan futbol varianti.	* Plyajnyy futbol -: variant assotsiatsii futbola igral na plyaje ili kakoylibo forme peska. Takje izvestnyy kak <i>plyajnyy futbol</i> ili <i>beasal</i> .	Beach football -: A football association option played on the beach or some form of sand. Also known as beach soccer or beasal.
Vaqt qo'shish- kompensatsiyalangan vaqt	Dobavleno vremya - <u>kompensirovannoe</u> <u>vremya</u> .	Added time - compensated time.
Anti-futbol-mustahkam mudofaa uslubidagi o'yinga kamsitilish termini.	Anti-futbol - unichijitelnyy termin dlya osobo prochnogo i oboronitelnogo stilya igrы.	Anti-football - is a derogatory term for a particularly strong and defensive style of play.
Jismoniy tarbiya - bu tarbiya faoliyati turi	Fizicheskoe vospitanie - eto vid vospitatelnoy deyatelnosti.	Physical education is a kind of

hisoblanib, xususiyati insonning har tomonlama garmonik rivojlantirish maqsadida jismoniy madaniyat vositalaridan foydalanishni boshqarish jarayonidir.	spesifik bo'lib,	Spesificheskoy osobennostyu, kotoroy yavlyaetsya upravlenie protsessom ispolzovaniya sredstv fizicheskoy kultury s selyu garmonichnomu razvitiyu cheloveka.	educational activity. A specific feature, which is the management of the process of using the means of physical culture in order to promote the harmonious development of man.
Jismoniy tayyorgarlik - aniq bir kasbiy yoki sport faoliyati uchun zarur bo'lgan harakat ko'nikmalarini shakllantirish va jismoniy qobiliyatlarini (sifatlarini) rivojlantirish jarayonidir (Yu.F. Kuramshin).		Fizicheskaya podgotovka - eto protsess formirovaniya dvigatelnykh navykov i razvitiya fizicheskix sposobnostyoy (kachestv), neobxodimyy v konkretnoy professionalnoy ili sportivnoy deyatelnosti (Yu.F. Kuramshin).	Physical training is the process of formation of motor skills and development of physical abilities (qualities) required in a specific professional or sports activity (Y.F. Kuramshin).
Jismoniy tayyorlanganlik - jismoniy tayyorgarlik natijasi bo'lib, erishilgan ishchanlik qobiliyati, jismoniy sifatarning rivojlanganlik darajasi va hayotiy zarur, amaliy malaka va ko'nikmalarning shakllanganlik darajasida namoyon bo'ladi.		Fizicheskaya podgotovlennost - rezultat fizicheskoy podgotovki, voploshennyy v dostignutoy rabotosposobnosti, urovne razvitiya fizicheskix kachestv i urovne sformirovannosti jiznenno vajnyx i prikladnyx umeniy i navykov.	Physical fitness is the result of physical training, embodied in the achieved efficiency, the level of development of physical qualities and the level of formation of vital and applied skills.
Umumiy jismoniy tayyorgarlik - turli faoliyat turlarida muvaffaqiyatga erishishning dastlabki sharti bo'lib, jismoniy rivojlanish darajasini, keng qamrovli harakat tayyorgarligini oshirishga yo'naltirilgan tayyorgarlikdir.		Obshchaya fizicheskaya podgotovka - nespesializirovannyy protsess fizicheskogo vospitaniya, napravlenyy na obshchie predposylki uspeha v razlichnyx vidax deyatelnosti.	General physical training is a non-specialized process of physical education, aimed at general preconditions for success in various activities.
Maxsus jismoniy tayyorgarlik - ixtisoslashtirilgan jarayon bo'lib, insonning harakat		Spesialnaya fizicheskaya podgotovka - spetsializirovannyy protsess fizicheskogo vospitaniya,	Special physical training - a specialized process of physical education, aimed at

